Ushbu tadqiqot chap qorincha gipertrofiyasi buyrak funksiyasi buzilishi yoki buyrak yetishmovchiligining terminal bosqichida bo'lgan bolalarda tez-tez uchraydigan holat ekanligini ko'rsatadi.. Transtorakal exokardiografiyada chap qorincha gipertrofiyasi va chap qorincha massasi indeksining oshishi aniqlanishi chap qorincha gipertrofiyasiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan barcha tuzatish mumkin bo'lgan omillarni, xususan, anemiya, semizlik va gipertenziyani sinchkovlik bilan baholashni talab etadi. Buyrak kasalligi bor bolalar o'rtasidan erta yurak-qon tomir kasalliklari va o'lim darajasida yurak qon-tomir tizimi o'zgarishlari,xususan, chap qorincha massasi indeksining oshishi qanchalik

ahamiyatli ekanini aniqlash uchun hozirda olib borilayotgan istiqbolli uzoq muddatli kuzatuv tadqiqotlari talab qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Гипертрофия левого желудочка у пациентов с хронической почечной недостаточностью Ю. Л. Чеснокова, В. Ю. Павлова, Л. Д. Чеснокова, О. Л. Барбараш *Нефрология и диализ*. 2003;5(3):282

2. Left ventricular abnormalities in children, adolescents and young adults with renal disease Lilian M. Johnstone, Colin L. Jones, Leeanne E. Grigg, James L. Wilkinson, Rowan G. Walker, Harley R. Powell (https://doi.org/10.1038/ki.1996.40)

3. Metabolic syndrome as risk factor for left ventricular hypertrophy in children with chronic kidney disease Monika Drożdż [1]Anna Moczulska [1] Andrzej Rudziński [2] (https://doi.org/10.3389/fendo.2023.1215527)

УЎК: 616.5-003.921-089.844-07

ПАТОЛОГИК ЧАНДИҚЛАРНИ ДАВОЛАШДА ФОТОДИНАМИК ТЕРАПИЯ ВА ЛАЗЕР ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ САМАРАДОРЛИГИ

Кенжаев Л.Р. [1,2], Кенжаева Н.А. [3], Тоғбоев Д.И. [1],

Бобомуратов У.С. [1], Тўрақулов М.Т. [3]

[1]Республика шошилинч тиббий ёрдам илмий маркази Бухоро филиали

[2]Осиё халқаро университети

[3]Бухоро давлат тиббиёт институти

Аннотация: *Патологик чандиқлар замонавий реконструктив ва пластик хирургиянинг долзарб тиббий-ижтимоий муаммоларидан бири ҳисобланади[1]. Уларнинг шаклланиши нафақат косметик нуқсонларни келтириб чиқаради, балки оғриқ синдроми, қичишиш, ҳаракат функциясининг чекланиши, тўқималар деформацияси ва беморлар ҳаёт сифати пасайишига сабаб бўлади[2,3]. Айниқса, гипертрофик ва келоид чандиқлар юқори рецидивланиш хусусияти билан ажралиб туради ва уларни даволашда қўлланилаётган анъанавий усулларнинг самарадорлиги ҳар доим ҳам қониқарли эмас. Сўнгги йилларда патологик чандиқларнинг ривожланишида ангиогенез, микроциркуляция бузилишлари ҳамда фибробластлар фаоллигининг ортиши муҳим патогенетик омиллар сифатида қаралмоқда[2,3,4]. Шу муносабат билан ушбу жараёнларга мақсадли таъсир кўрсатиш имконини берувчи фотодинамик терапия ва лазер технологияларини амалиётга жорий этиш алоҳида аҳамият касб этмоқда. Мазкур мақолада патологик чандиқларнинг клиник хусусиятлари, ташхислаш мезонлари ҳамда уларни даволашда фотодинамик терапия ва лазер технологияларини комплекс қўллашнинг замонавий имкониятлари ёритилган[1,5].*

Калит сўзлар: *патологик чандиқлар, гипертрофик чандиқлар, келоид чандиқлар, фотодинамик терапия, лазер технологиялари, ангиогенез, реконструктив хирургия.*

Аннотация: *Патологические рубцы остаются одной из наиболее актуальных проблем современной реконструктивной и пластической хирургии[1]. Их*

формирование сопровождается не только возникновением выраженных косметических дефектов, но и развитием функциональных нарушений, ограничением подвижности, болевым синдромом, зудом и снижением качества жизни пациентов[2,3]. Особую сложность представляют гипертрофические и келоидные рубцы, характеризующиеся склонностью к прогрессированию и высокой частотой рецидивов после лечения. Несмотря на значительное количество существующих методов коррекции рубцовых деформаций, проблема достижения стойкого клинического результата остаётся окончательно нерешённой[2,3,4]. Современные представления о патогенезе патологических рубцов свидетельствуют о важной роли нарушений ангиогенеза, микроциркуляции и процессов ремоделирования соединительной ткани. В связи с этим всё большее внимание уделяется внедрению технологий, способных воздействовать на основные звенья патологического процесса. В статье представлены современные данные о клинических особенностях патологических рубцов, возможностях их диагностики и перспективах применения фотодинамической терапии и лазерных технологий в составе комплексного лечения[1,5].

Ключевые слова: *патологические рубцы, гипертрофические рубцы, келоидные рубцы, фотодинамическая терапия, лазерные технологии, ангиогенез, реконструктивная хирургия.*

Abstract: *Pathological scars remain one of the most important challenges in modern reconstructive and plastic surgery[1]. Their development is associated not only with significant aesthetic defects but also with functional impairment, restricted mobility, pain, pruritus, tissue deformation, and a reduced quality of life[2,3]. Hypertrophic and keloid scars are particularly problematic because of their tendency toward progression and recurrence after treatment. Despite the wide range of available therapeutic approaches, achieving stable long-term clinical outcomes remains a major challenge. Current evidence suggests that pathological angiogenesis, microcirculatory disturbances, and abnormal connective tissue remodeling play a crucial role in scar formation and progression[2,3,4]. Therefore, increasing attention has been directed toward treatment modalities capable of targeting the key pathogenetic mechanisms involved in scar development. This article discusses current concepts regarding the clinical characteristics of pathological scars, diagnostic approaches, and the potential role of photodynamic therapy and laser technologies in comprehensive scar management[1,5].*

Keywords: *pathological scars, hypertrophic scars, keloid scars, photodynamic therapy, laser technologies, angiogenesis, reconstructive surgery.*

КИРИШ

Патологик чандиқлар реконструктив ва пластик хирургиянинг энг долзарб муаммоларидан бири ҳисобланади. Улар ташқи кўринишнинг бузилиши, ҳаракат функциясининг чекланиши, оғриқ синдроми, қичишиш ва психоэмоционал ноқулайлик билан кечади. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти маълумотларига кўра, ҳар йили миллионлаб беморларда жароҳатлар, куйишлар ва хирургик аралашувлардан кейин патологик чандиқлар шаклланади. Гипертрофик ва келоид чандиқларнинг юқори рецидив бериш хусусияти мавжуд бўлиб, бу уларни даволашда янги технологияларни жорий этишни талаб этади Сўнгги йилларда фотодинамик терапия ва турли лазер технологиялари патологик чандиқларни даволашда истиқболли усул сифатида қаралмоқда. Ушбу усуллар патологик ангиогенезни сусайтириш, фибробластлар фаоллигини камайтириш ва коллаген ремоделизациясини яхшилаш имконини беради

Тадқиқот мақсади: Патологик чандиқларни даволашда фотодинамик терапия ва лазер технологияларининг клиник самарадорлигини баҳолаш.

Материал ва усуллар:Тадқиқот Республика шошилинч тиббий ёрдам илмий маркази Бухоро филиали, В.Воҳидов номидаги Республика ихтисослаштирилган хирургия илмий-амалий тиббиёт маркази ҳамда «RS Laser Clinic» клиникаларида 2023–2026 йиллар давомида ўтказилди. Тадқиқотга патологик чандиқлари мавжуд бўлган 189 нафар бемор киритилди. Беморларнинг 97 нафари (51,3%) эркаклар ва 92 нафари (48,7%) аёллардан иборат бўлди. Беморларнинг асосий қисмини меҳнатга лаёқатли ёшдаги шахслар ташкил қилди.Чандиқларнинг морфологик хусусиятларига кўра беморлар қуйидагича тақсимланди:

- атрофик чандиқлар – 63 нафар (33,3%);

- гипертрофик чандиқлар – 69 нафар (36,5%);
- келоид чандиқлар – 57 нафар (30,1%).



Расм 1.

Беморларнинг чандиқ турлари бўйича тақсимланиши.

Барча беморларда даволашнинг биринчи босқичида патологик чандиқ тўқимасини хирургик эксцизия қилиш амалга оширилди. Лазер терапияси босқичида фракцион CO_2 лазер (10600 нм) ҳамда сариқ лазер (577–585 нм) қўлланилди. CO_2 лазер патологик фиброз тўқимани абляция қилиш ва чандиқ релефини текислаш мақсадида ишлатилди. Сариқ лазер эса патологик ангиогенезни камайтириш ва микроциркуляцияни яхшилаш учун қўлланилди.Фотодинамик терапия жараёнида фотосенсибилизатор қўлланилиб, белгиланган экспозициядан кейин махсус нур манбаи орқали фотодинамик таъсир амалга оширилди. Клиник баҳолаш учун Vancouver Scar Scale (VSS), Patient and Observer Scar Assessment Scale (POSAS) ва Manchester Scar Scale (MSS) шкалаларидан фойдаланилди.

Натижалар: Тадқиқот давомида патологик чандиқлар ривожланишида патологик ангиогенез муҳим патогенетик омил эканлиги аниқланди. Қон томирлар зичлиги ошиши чандиқ оғирлиги ва клиник кўринишининг ёмонлашиши билан узвий боғлиқ эканлиги қайд этилди. Чандиқларнинг этиологик таҳлили натижалари уларнинг асосий қисми

жарроҳлик аралашувлари, куйишлар ва механик жароҳатлар оқибатида шаклланганлигини кўрсатди.



Расм 2. Беморларнинг чандиқ этиологияси бўйича тақсимланиши.

Клиник баҳолашда POSAS шкаласи патологик чандиқларни баҳолаш учун энг юқори информативликка эга эканлиги аниқланди.

Кузатувчи қисми			
Кўрсаткичлар	**Атрофик**	**Гипертрофик**	**Келоид**
Васкуляризация	1,84±0,48	6,62±0,4	9,35±0,74
Пигментация	2,46±0,77	6,81±0,35	8,8±0,63
Қалинлик	3,35±0,62	7,61±0,28	9,71±0,67
Релеф	3,8±0,59	6,7±0,4	9,52±0,6
Эластиклик	3,15±0,54	7,42±0,35	9,8±0,54
Юза майдони	1,93±0,24	6,88±0,4	9,31±0,82
Бемор қисми			
Оғриқ	1,76±0,49	4,81±0,42	4,21±0,64
Қичишиш	2,47±0,53	5,36±0,54	4,21±0,64
Ранги	4,2±0,62	6,26±0,56	8,57±0,9
Қаттиқлик	4,11±0,62	6,5±0,58	9,12±0,6
Қалинлик	3,88±0,65	6,18±0,4	9,75±0,43

Жадвал 3.

POSAS шкаласи бўйича баҳолаш натижалари.

Комплекс даволашдан кейин гипертрофик чандиқларда VSS кўрсаткичлари ўртача 42% га яхшиланди. Келоид чандиқларда мазкур кўрсаткич 37,9% ни ташкил қилди. Асосий гуруҳда яра эпителизацияси 5–7 кун ичида кузатилди. Назорат гуруҳларида ушбу кўрсаткич 21–28 кунни ташкил қилди. Кутометрия натижалари асосий гуруҳда тери эластиклиги сезиларли даражада яхшиланганлигини кўрсатди.

Даражалар	**Атрофик**	**Гипертрофик**	**Келоид**	**Назорат гуруҳи**
Умумий эластиклик	0,46±0,06	0,42±0,04	0,32±0,02	0,82±0,06
Соф эластиклик	0,41±0,05	0,31±0,02	0,28±0,02	0,65±0,05
Биологик эластиклик	0,34±0,03	0,27±0,02	0,24±0,03	0,54±0,04
Вискоэластиклик (суюқлик/шиш)	0,44±0,06	0,58±0,04	0,62±0,03	0,38±0,04

Жадвал 4.

Кутометрия кўрсаткичлари динамикаси.

Комплекс даволашдан кейин чандиқ майдони ўртача 33% га камайди. Морфологик таҳлилларда коллаген толаларининг тартибли жойлашиши ва патологик томирланишнинг камайиши қайд этилди.

ХУЛОСА

Патологик чандиқлар ривожланишида патологик ангиогенез муҳим патогенетик омил ҳисобланади. CO_2 лазер, 585 нм сариқ лазер ва фотодинамик терапияни ўз ичига олган комплекс даволаш усули патологик чандиқларни даволашда юқори самарадорлик кўрсатди. Комплекс даволаш яра битиш муддатини 21–28 кундан 5–7 кунгача қисқартириш имконини берди. Гипертрофик чандиқларда клиник яхшиланиш 42%, келоид чандиқларда эса 37,9% ни ташкил қилди. POSAS шкаласи патологик чандиқларни баҳолашда энг юқори диагностик аҳамиятга эга бўлди.

Фотодинамик терапия ва лазер технологияларини биргаликда қўллаш рецидивларнинг олдини олиш ва косметик натижаларни яхшилаш имконини беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ogawa R. Keloid and hypertrophic scars: pathophysiology and current treatment strategies. Plast Reconstr Surg. 2021.
2. Carswell L., et al. Hypertrophic and keloid scars: current concepts and management. Dermatol Surg. 2023.
3. Murakami T., et al. Advances in scar management and laser therapy. Burns. 2024.
4.Таганов А.В., Брагина А.В. Современные аспекты диагностики и лечения келоидных рубцов. Москва, 2021.
5. Мадазимов М.М. ва ҳаммуаллифлар. Куйишдан кейинги чандиқли деформацияларни жарроҳлик даволаш. Тошкент, 2022.

KUYDIRGI (SIBIR YARASI) KASALLIGI PROFILAKTIKASI VA EPIDEMIOLOGIK NAZORAT: ADABIYOTLAR SHARHI

Axmatova Munisa Azamat qizi

KIUT talabasi

Ilmiy raxbar: Seytnazarov Miyribek Maxsetovich

KIUT katta o'qituvchisi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

KIRISH

Kuydirgi (lot. Anthrax, ruscha Сибирская язва) — o‘ta xavfli, zoonoz tabiatga ega bo‘lgan yuqumli kasallik bo‘lib, asosan qishloq xo‘jalik hayvonlari va odamlar orasida uchraydi. Ushbu kasallik qadim zamonlardan beri ma’lum bo‘lib, tarixiy manbalarda ham ko‘plab epidemiyalar sababchisi sifatida qayd etilgan. Hozirgi kunda ham kuydirgi global sog‘liqni saqlash tizimi uchun dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Kuydirgi kasalligi yuqori letallik darajasi, qo‘zg‘atuvchisining tashqi muhitda juda uzoq muddat saqlanishi hamda kasallikning tez va og‘ir kechishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, kasallikning o‘pka va septik shakllari qisqa vaqt ichida og‘ir asoratlar va o‘limga olib kelishi mumkin. Shu sababli kuydirgi "o‘ta xavfli infeksiyalar" guruhiga kiritilgan.

Zamonaviy tibbiyotda kuydirgini erta aniqlash, o‘z vaqtida davolash va oldini olish choralarini ko‘rish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada kuydirgi kasalligining etiologiyasi, epidemiologiyasi, patogenezi, klinik ko‘rinishlari, diagnostikasi, davolash va profilaktikasi ilmiy adabiyotlari asosida keng yoritilgan.

ВВЕДЕНИЕ

Сибирская язва (лат. Anthrax) — особо опасное инфекционное заболевание зоонозной природы, которое преимущественно поражает

сельскохозяйственных животных и человека. Данное заболевание известно с древних времён и в исторических источниках неоднократно упоминалось как причина многочисленных эпидемий. В настоящее время сибирская язва остаётся актуальной проблемой для глобальной системы здравоохранения.

Сибирская язва характеризуется высокой летальностью, способностью возбудителя длительное время сохраняться во внешней среде, а также быстрым и тяжёлым течением заболевания. Особенно опасны лёгочная и септическая формы, которые в короткие сроки могут приводить к тяжёлым осложнениям и летальному исходу. В связи с этим сибирская язва относится к группе «особо опасных инфекций».

В современной медицине большое значение имеет ранняя диагностика сибирской язвы, своевременное лечение и проведение профилактических мероприятий. В данной статье на основе научной литературы подробно освещены этиология, эпидемиология, патогенез, клинические проявления, диагностика, лечение и профилактика сибирской язвы.

INTRODUCTION

Anthrax (Latin: Anthrax, Russian: Sibirskaya yazva) is an extremely dangerous infectious disease of zoonotic nature that primarily affects agricultural animals and humans. This disease has been known since ancient times and has been recorded in historical sources as the cause of numerous epidemics. Even today, anthrax remains a pressing problem for the global healthcare system.

Anthrax is characterized by a high lethality rate, the long-term persistence of its causative agent in the external environment, and the rapid and severe course of the disease. In particular, the pulmonary and septic forms of the disease can lead to severe complications and death within a short period of time. For this reason, anthrax is classified as an “especially dangerous infection.”

In modern medicine, early detection of anthrax, timely treatment, and the implementation of preventive measures are of great importance. This article provides a comprehensive overview of the etiology, epidemiology, pathogenesis, clinical manifestations, diagnosis, treatment, and prevention of anthrax based on scientific literature.

Etiologiyasi

Kuydirgi kasalligining qo‘zg‘atuvchisi — Bacillus anthracis bo‘lib, grammusbat, harakatsiz, tayoqchasimon bakteriyadir. U aerob sharoitda yaxshi o‘sadi, oddiy oziqa muhitlarida koloniyalar hosil qiladi. Mikroorganizmdan tashqi muhitda saqlanib qolish imkonini beruvchi muhim xususiyat — spora hosil qilish qobiliyatidir.

Bacillus anthracis sporalarining chidamliligi juda yuqori bo‘lib, ular tuproqda, suvda va hayvon mahsulotlarida o‘nlab yillar davomida saqlanishi mumkin. Rus adabiyotlarida ayrim hududlarda sporalar 40–50 yilgacha hayotiy faolligini saqlab qolishi qayd etilgan. Bakteriyaning yana bir muhim patogenlik omili — polipeptid kapsula bo‘lib, u mikroorganizmlarni fagotsitozdan himoya qiladi.

Qo‘zg‘atuvchi ekzotoksin ishlab chiqaradi. Ushbu toksinlar organizmda umumiy intoksikatsiya, to‘qimalarning nekrozi va gemorragik jarayonlarni yuzaga keltiradi.

[Etiologiya bo‘limi: 1, 3, 4, 5]

Epidemiologiyasi

Kuydirgi tabiiy-o‘choqli infeksiya hisoblanadi. Kasallikning asosiy manbai — kasallangan yoki kuydirgidan nobud bo‘lgan qishloq xo‘jalik hayvonlari (qo‘y, qoramol, echki, ot, tuya). Infeksiya hayvonlardan odamlarga bevosita yoki bilvosita yo‘l bilan yuqadi.

Odamlarga kasallik asosan kasallangan hayvonlarni parvarishlash, so‘yish, terisini shilish, go‘shtini qayta ishlash jarayonida yuqadi. Shuningdek, kuydirgi sporalarining chang bilan nafas yo‘llari orqali tushishi yoki ifloslangan oziq-ovqat mahsulotlari iste’moli orqali ham infeksiya yuqishi mumkin.

Kasallik ko‘proq qishloq joylarda, chorvachilik rivojlangan hududlarda uchraydi. Mavsumiylik xususiyatiga ega bo‘lib, bahor va yoz oylarida kasallanish holatlari ko‘payadi. Bu davrda chorva mollari yaylovga chiqarilishi va tuproq bilan aloqa kuchayishi infeksiya tarqalishiga qulay sharoit yaratadi.

Rossiya, Markaziy Osiyo va Kavkaz hududlarida kuydirgining tabiiy o‘choqlari mavjudligi ilmiy adabiyotlarda ko‘p bor ta’kidlangan. Ayrim hududlarda kasallik yillar davomida saqlanib qolgan tuproq o‘choqlari bilan bog‘liq ekani aniqlangan.

[Epidemiologiya bo‘limi: 2, 6, 7]

Patogenezi

Infeksiya odam organizmiga uch xil asosiy yo‘l bilan kiradi: teri orqali, nafas yo‘llari orqali va ovqat hazm qilish tizimi orqali. Kirish darvozasida Bacillus anthracis sporalaridan vegetativ shakllar rivojlanib, mahalliy yallig‘lanish jarayoni yuzaga keladi.

Teri orqali kirganda avval mahalliy infiltratsiya, shish va giperemiya paydo bo‘ladi. Keyinchalik bakteriyalar limfa tomirlari orqali regional limfa tugunlariga, undan esa qon oqimiga tushib, butun organizmga tarqaladi.

Kuydirgi qo‘zg‘atuvchisining asosiy patogenlik omili — ekzotoksin bo‘lib, u uch komponentdan iborat. Ushbu toksinlar qon tomirlar o‘tkazuvchanligini oshiradi, kuchli shish, gemorragiyalar va to‘qimalar nekrozini keltirib chiqaradi. Og‘ir hollarda umumiy intoksikatsiya va sepsis rivojlanadi. O‘pka va ichak shakllarida patogen jarayon tez rivojlanib, qisqa vaqt ichida hayot uchun xavfli holatga olib keladi.

[Patogenez bo‘limi: 3, 5, 8]

Klinik shakllari

Inkubatsion davr muddati bir necha soatdan bir necha kungacha bo’lishi mumkin, ko’pincha 2-3 kun oralig’ida o’zgarib turadi. Kasallik lokalizatsiyalangan (teri) yoki generalizatsiyalangan (o’pka, ichak va septik) shaklda kechishi mumkun.

Kuydirgi klinik jihatdan bir nechta shaklda namoyon bo‘ladi:

Teri shakli — eng ko‘p uchraydigan turi. Avval qizarish, so‘ng pufakcha va qora rangli yara (karbunkul) hosil bo‘ladi.

Kuydirgining teri shakli

Bu kuydirgi kasalligi holatlarining 98-99 foizida kuzatiladi. Uning eng keng tarqalgan shakli karbunkulyar shaklidir, kamroq tarqalganlari kasallikning edematoz, bullyoz va erizipeloid shakllari. Ko'pincha tananing ochiq qismlari shikastlanadi; karbunkullar bosh, bo'yin, burun va og'izning shilliq qavatida joylashganida kasallik ayniqsa og'ir kechadi.

Kuydirgi infektsiyasining generalizatsiyasi klinikasi shaklidan (teri yoki vistseral) qat'iy nazar, kasallikning boshlang'ich davrining terminal bosqichida namoyon bo'lishlarning turfaligi bir xil: u konsentratsiyasi 1mm3 qonda yuz ming va hatto millionlab bakterial hujayrasi bo'lgan kuydirgi bakteriyalarining periferik qonga chiqishi bilan kechadi.

Bunday konsentratsiya esa kuydirgili sepsis deb qaralishi mumkin va o'zi bilan infektsion-toksik shok klinikasini taqdim qiladi. Bu qonning koagulyatsion (ivish) va antikoagulyatsion tizimining jiddiy buzilishlari, atsidoz, o'tkir buyrak yetishmovchiligi buyrak-yetishmovchiligi, tana haroratining me'yordan pasayib ketishi, o'ta kuchli intoksikatsiya demakdir.

Odatda karbunkul bitta bo'ladi, biroq ba'zan ularning soni 10-20 yoki undan ko'p bo'lishi mumkin. Infektsiyaning kirish darvozasi joyida ketma-ketlikda dog', papula, vezikula, yara rivojlanadi. Og'riqsiz ko'k-qizg'ish rangli va 1-3 mm diametrli, hasharot chaqishi izini eslatadigan dog', bir necha soat ichida mis-qizg'ish rangli papulaga aylanadi. Qichish va achish hissi kuchayadi.

12-24 soatdan so'ng papula diametri 2-3 mm bo'lgan suyuqlik bilan to'lgan pufakchaga aylanadi, suyuqlik bir muddatdan keyin qorayadi va qonsimon bo'ladi. Qashilaganda (ba'zan esa o'z-o'zidan) pufakcha yoriladi va uning o'rnida to'q jigarrang tagli, chetlari ko'tarilgan va seroz-gemorragik ajralmali yara hosil bo'ladi. Bir sutkadan keyin yara diametri 8-15 mm ga yetadi.

Nekroz natijasida, yaraning markaziy qismida 1-2 hafta o'tgach zich, og'rimaydigan qattiq chaqa hosil bo'ladi va uning atrofi qizil rangli sezilarli yallig'llanishli bolish qayd qilinadi. Tashqi tomondan, qattiq chaqa olovdagi

ko’mirni eslatadi, aynan shu ko’rinish kasallikning nomlanishiga sabab bo’lgan (Antrax — ko’mir). Ushbu shikastlanish karbunkul nomini olgan.

O‘pka shakli — nafas yo‘llari orqali yuqadi, og‘ir intoksikatsiya va nafas yetishmovchiligi bilan kechadi.

Ichak shakli — ifloslangan oziq-ovqat iste’moli natijasida rivojlanadi.

Septik shakl — kasallikning eng og‘ir turi bo‘lib, ko‘pincha o‘lim bilan tugaydi.

[Klinik shakllar bo‘limi: 1, 6, 9]

Diagnostikasi

Kuydirgini aniqlash uchun maxsus laborator tahlillar o‘tkaziladi. Bunga quyidagilar kiradi:

Qon va yara suyuqligini tekshirish: Kasallik bakteriyalarini aniqlash uchun mikroskopik tahlil.

Polimeraza zanjir reaksiyasi (PCR): Bakteriya DNKini aniqlash

Kuydirgi diagnostikasi klinik belgilarning xosligi, epidemiologik anamnez va laborator tekshiruv natijalariga asoslanadi. Bemorning kasbi, hayvonlar bilan aloqasi va yashash hududi muhim ahamiyatga ega.

Laborator diagnostikada bakteriologik usul yetakchi hisoblanadi. Teri yaralaridan olingan material, qon, balg‘am yoki najas namunalarida Bacillus anthracis aniqlanadi. Mikroskopiya, oziqa muhitlariga ekish va serologik reaksiyalar qo‘llaniladi.

Zamonaviy diagnostikada polimeraza zanjir reaksiyasi (PCR) yuqori aniqlikka ega usul sifatida keng joriy etilmoqda. Differensial diagnostika boshqa yiringli-terili kasalliklar, sepsis va ichak infeksiyalari bilan olib boriladi.

[Diagnostika bo‘limi: 4, 10]

Davolash

Kuydirgi bilan kasallangan bemorlar majburiy ravishda infeksion statsionar sharoitda davolanadi. Davolash imkon qadar erta boshlanishi zarur, chunki bu kasallik oqimini yengillashtiradi va asoratlar xavfini kamaytiradi.

Asosiy etiotrop davolash antibiotiklar yordamida olib boriladi. Penitsillinlar, doksisiklin, siprofloksasin va boshqa ftorxinolonlar keng qo‘llaniladi. Og‘ir hollarda bir nechta antibiotiklar kombinatsiyasi tavsiya etiladi.

Bundan tashqari, dezintoksikatsion terapiya, yurak-qon tomir faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi vositalar va simptomatik davolash choralariga katta e’tibor qaratiladi. Zarur hollarda reanimatsion yordam ko‘rsatiladi.

[Davolash bo‘limi: 5, 9, 11]

Oldini olish

Kuydirgining oldini olish veterinariya va tibbiyot xodimlarining hamkorlikdagi faoliyatini talab qiladi. Profilaktikaning asosiy yo‘nalishi — chorva hayvonlarini muntazam emlash va veterinariya-sanitariya nazoratini kuchaytirishdir.

Kasallangan yoki kuydirgidan nobud bo‘lgan hayvonlar maxsus qoidalarga muvofiq yo‘q qilinadi. Ularning go‘shti va terisini iste’mol qilish qat’iyan man etiladi. Tuproq o‘choqlarini dezinfeksiya qilish muhim ahamiyatga ega.

Xavf guruhiga mansub shaxslar (veterinarlar, chorvadorlar, go‘shtni qayta ishlovchi ishchilar) profilaktik emlashdan o‘tkaziladi. Aholi o‘rtasida sanitariya-ma’rifiy ishlar olib borish ham kasallikning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.

[Oldini olish bo‘limi: 2, 7, 12]

Qo‘shimcha ma’lumotlar (tarixiy va amaliy jihatlar)

Kuydirgining tarixiy ahamiyati

Kuydirgi insoniyatga qadim zamonlardan beri ma’lum bo‘lgan kasalliklardan biridir. Tarixiy manbalarda ushbu kasallik chorva mollari orasida ommaviy o‘limga sabab bo‘lgani, natijada iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqargani qayd etilgan. XIX asrda mashhur olim R. Kox tomonidan Bacillus anthracis ning aniqlanishi infeksion kasalliklar rivojida muhim bosqich

bo‘ldi. Aynan kuydirgi misolida "mikroorganizmlar kasallik qo‘zg‘atadi" degan nazariya ilmiy jihatdan isbotlangan.

Rossiya tibbiyot maktabida kuydirgi alohida e’tibor qaratilgan infeksiyalardan biri bo‘lib, uning tabiiy o‘choqlari, tarqalish mexanizmlari va profilaktikasi bo‘yicha ko‘plab fundamental tadqiqotlar olib borilgan. Bu tadqiqotlar zamonaviy epidemiologiya va infektologiya fanining rivojiga katta hissa qo‘shgan.

[Tarixiy ma’lumotlar: 1, 5, 8]

Kuydirgining ijtimoiy va sanitariya ahamiyati

Kuydirgi nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega kasallik hisoblanadi. Chorvachilik bilan shug‘ullanadigan hududlarda kasallik tarqalishi aholining daromShuningdek, kasallikning o‘ta xavfli infeksiya sifatida baholanishi sog‘liqni saqlash tizimidan yuqori darajadagi tayyorgarlikni talab qiladi.

Sanitariya-epidemiologiya xizmatlari tomonidan kuydirgi o‘choqlarini doimiy monitoring qilish, kasallik holatlari aniqlanganda tezkor choralar ko‘rish muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadbirlar kasallikning keng tarqalishining oldini olishga xizmat qiladi.

[Ijtimoiy ahamiyat bo‘limi: 2, 7, 12]

Kuydurgi (Sibir yarasi) kasalligi statistikasi.

Jahon bo‘yicha

Har yili dunyo bo‘yicha o‘rtacha 2 000 – 5 000 ta kuydurgi holati qayd etiladi

Kasallik asosan Afrika, Osiyo va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida uchraydi

Rivojlangan davlatlarda juda kam (sporadik holatlar).

Kuydurgining eng keng tarqalgan shakli — teri shakli

Eng yuqori o‘lim — o‘pka shaklida

Asosan qishloq joylarida va veterinariya nazorati sust hududlarda uchraydi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Покровский В.И. Инфекционные болезни человека. — М.: Медицина, 2014.
2. Ющук Н.Д. Эпидемиология. — М.: ГЭОТАР-Медиа, 2016.
3. Воробьев А.А. Медицинская микробиология. — М.: Медицина, 2015.
4. Зверев В.В. Микробиология, вирусология и иммунология. — М.: ГЭОТАР-Медиа, 2018.
5. Черкасский Б.Л. Особо опасные инфекции. — М.: Медицина, 2012.
6. Крюков А.И. Инфекционные болезни. — М.: Академия, 2017.
7. Шувалова Е.П. Инфекционные болезни. — М.: Медицина, 2013.
8. Павловский Е.Н. Природно-очаговые болезни. — М.: Наука, 2009.
9. Баранов А.А. Клиническая инфектология. — М.: ГЭОТАР-Медиа, 2019.
10. Киселев О.И. Лабораторная диагностика инфекционных болезней. — М.: Медицина, 2016.
11. Яковлев С.В. Антибактериальная терапия. — М.: ГЭОТАР-Медиа, 2018.
12. Серов В.В. Профилактика особо опасных инфекций. — М.: Медицина, 2015.

5-SECTION

SAVDO VA XIZMAT KO‘RSATISH OBYEKTLARI NOMLARI TASNIFI (CHIRCHIQ SHAHRI MISOLIDA)

Atayeva Shaxnoza Kosimovna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi, 1-bosqich magistranti

ORCID: https://orcid.org/0009-0002-3632-662X

shaxnoza.atayeva92@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur tezisda Toshkent viloyati Chirchiq shahridagi ergonimlar tasniflanadi. Tadqiqot natijasida savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari nomlarining qo‘llanish tendensiyalari aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *onomastika, ergonim, emporonim, neyming, tijorat obyektlari, servis obyektlari, xosnom, reklama funksiyasi, Chirchiq.*

Abstract. *This thesis presents a classification of the ergonyms of commercial and service establishments in Chirchiq, Tashkent Region, Uzbekistan. The study identifies the naming trends of commercial and service establishments based on the analysis of their ergonyms. The findings contribute to the linguistic investigation of urban naming practices and the functional characteristics of ergonyms within the field of onomastics.*

Keywords: *onomastics, ergonym, ergonomics, emporonym, naming, commercial establishments, service establishments, proper name, advertising function, Chirchiq.*

KIRISH

So‘nggi yillarda mamlakatimizda yangi ijtimoiy va texnologik hodisalar ta’sirida ko‘plab yangi leksik birliklar shakllanmoqda. Shu sababli, ergonimlar (savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari nomlari) ni tasniflash va ularni o‘rganish zamonaviy til taraqqiyotini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday nomlar endilikda faqat til hodisasi sifatida emas, balki iqtisodiyot, huquq va marketing sohalari kesimida ham muhim tadqiqot manbayiga aylanib bormoqda. Ushbu tezisning dolzarbligi shundaki, Chirchiq shahridagi savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari nomlari tasnifining ko‘rilishi kelgusida boshqa viloyatlar

va shaharlarning ergonimlar masalasini o‘rganishda muhim ilmiy tadqiqot manbasi vazifasini bajaradi.

Ergonimik makonni tartibga solish, ulardan foydalanishdagi nuqson va kamchiliklarni yuzaga chiqarish, shu bilan birga davlat tili qonunchiligi talablariga to‘g‘ri kelmaydigan nomlarning qay darajada tarqalganini kuzatish o‘zbek onomastika fanining bugungi kundagi muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Onomastikaning kichik birligi bo‘lgan ergonimlar masalasi o‘zbek tilshunosligida turli hududlar misolida o‘rganilmoqda. Chirchiq shahridagi tijorat va servis obyektlari peshlavhalarini tasniflash jarayonida klassifikatsiya, struktur (tarkibiy munosabatlarini tahlil qilish), statistik (ma’lumotlarni tahlil qilish va barqaror xususiyatlarini aniqlash), induktiv (dalil, kuzatuv va tajriba) va deduktiv (nazariya yoki qoidalar asosida xususiy xulosa chiqarish) metod[1]lardan foydalanildi. Tadqiqot natijasida emporonim (savdo obyektlari nomlari) lar va servis obyektlari nomlari leksik-semantik, derivatsion, motivatsion, funksional, etimologik, tematik jihatdan tahlil qilinib, ularning reklama va marketing bilan bog‘liq xususiyatlari ham yoritildi.

Tadqiqot doirasida Chirchiq shahridagi savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlarining 100 ta ergonimi motivatsion belgilari asosida tahlil qilindi va beshta asosiy guruhga ajratildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, shaxs ismlaridan kelib chiqqan antroponimik nomlar 22 % ni, geografik nomlar negizida shakllangan toponimik nomlar 6 % ni tashkil etdi. Obrazli-assotsiativ nomlar, ya’ni mavhum tushunchalar, badiiy timsollar, o‘simlik va hayvonot olami hamda tabiat hodisalari bilan bog‘liq nomlar eng salmoqli guruhlardan biri bo‘lib, ularning ulushi 28 % ga teng bo‘ldi. Obyektning faoliyat yo‘nalishi yoki ko‘rsatilayotgan xizmat turini bevosita ifodalovchi nomlar 15 % ni egalladi. Eng yuqori ko‘rsatkich esa 29 % bilan uyg‘unlashgan (aralash) nomlarga to‘g‘ri keldi.

[1] B,Mengliyev, Sh.Gulyamova. “Dissertatsiya yozish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2025, 26-28 b

Mazkur guruh tarkibiga ikki yoki undan ortiq motivatsion omilning o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida yuzaga kelgan ergonimlar kiritildi.

Ushbu tasnif nomlarning nafaqat til jihatidan tuzilishini, balki ularning ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy asosini ham namoyon etadi. Tadqiqot yakunida uyg‘unlashgan (aralash) negizli nomlarning ulushi boshqalarga nisbatan yuqoriroq ekanligi qayd etildi, bu esa hozirgi neyming amaliyotida bir qancha motivatsion omilning bir vaqtning o‘zida ishga solinish tendensiyasini yaqqol tasdiqlaydi. Ergonim endilikda shunchaki obyektni ajratib ko‘rsatish vositasi bo‘libgina qolmasdan, balki xosnomning reklama vazifasini bajaruvchi muhim omilga aylanib bormoqda. Xosnom xaridor ongida obyekt to‘g‘risidagi ilk taassurotni shakllantirib, uni bozordagi boshqa raqiblardan ajratib turadi[2]. Ana shu bois neyming jarayonida nomning eslab qolinishi qulayligi, talaffuz osonligi va assotsiativ yuk ko‘tara olishi kabi jihatlarga alohida e’tibor qaratiladi[3].

Ergonimlarni tartibga solishning muhim jihatlaridan yana biri ularning O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni va tegishli normativ-huquqiy hujjatlar talablariga to‘liq mos kelishini ta’minlashdan iborat. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, davlat tili me’yorlariga zid, transliteratsiya va imloviy xatolarga yo‘l qo‘yilgan (“Modniki Shop”), shuningdek, asossiz ravishda chet tilida yozilgan nomlar ayrim sohalarda, xususan, umumiy ovqatlanish va kiyim-kechak savdosi yo‘nalishida boshqalarga nisbatan ko‘proq uchraydi. Bu holat aynan shu sohalarda xorijiy bozor ta’siri hamda xalqaro xosnomlarga taqlid qilish tendensiyasining kuchliroq ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari nomlarini tizimli tasniflash ularning til tabiatini chuqurroq anglash, ergonimik makondagi mavjud kamchiliklarni aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini yaratadi. Neym

[2] Superanskaya A.V. Obshchaya teoriya imeni sobstvennogo. — Moskva: Nauka, 1973.
[3] Uluqov N. O‘zbek tili onomastikasi masalalari. — Toshkent, 2010.

shakllantirishda milliy nom tanlashning istiqbolli yo‘llarini belgilash, bir tomondan, o‘zbek tilining boyligi va milliy o‘ziga xosligini asrab qolishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, zamonaviy marketing va brending talablariga javob beradigan raqobatbardosh nomlar yaratish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda Chirchiq shahri hududidagi savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari nomlari yetarlicha o‘rganilmagan. Kelajakda ergonimlarning huquqiy jihatdan tartibga solinishi va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish masalalari alohida tadqiqot obyekti sifatida chuqurroq o‘rganilishi lozim.

FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. B,Mengliyev, Sh.Gulyamova. “Dissertatsiya yozish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2025, 26-28 b
2. M.Saparniyozova. O‘zbek tilida ergonimlar (struktur-semantik, pragmatik va lingvomadaniy aspekt). Monografiya. TOSHKENT: “BOOKMANY PRINT”, - 2023, - 178 b
3. Superanskaya A.V. Obshchaya teoriya imeni sobstvennogo. – Moskva: Nauka, 1973.
4. Uluqov N. O‘zbek tili onomastikasi masalalari. – Toshkent, 2010.

IMPROVING PARLIAMENTARY OVERSIGHT IN THE LEGISLATIVE CHAMBER OF UZBEKISTAN: INSTITUTIONAL INNOVATIONS FOR SUSTAINABLE GOVERNANCE

B.-M. A. To‘xtayev

Doctor of Philosophy (PhD) in Political Science

Independent Researcher at the National University of Uzbekistan, Uzbekistan

E-mail: boburmirzo.toxtayev@mail.ru

Abstract. *This article examines digital and artificial-intelligence-assisted oversight in the Legislative Chamber of Uzbekistan. Doctrinal legal, documentary, comparative, and institutional analysis identifies information asymmetry, weak public tracking of follow-up, and insufficient enforcement of procedural duties as the main constraints. It proposes a citizen-initiated oversight mechanism, an open oversight register, parliamentary party-group hearings, and a minority rapporteur. AI should support classification, deadline monitoring, and pattern detection only under human supervision, data-protection safeguards, cybersecurity controls, and algorithmic transparency.*

Keywords: *parliamentary oversight, digital parliament, artificial intelligence, accountability, open register.*

INTRODUCTION

Parliamentary oversight is a central mechanism of democratic accountability and sustainable governance. It enables the legislature to verify the implementation of laws, scrutinize public expenditure, and require corrective action. Uzbekistan’s 2023 Constitution strengthened the Legislative Chamber: Articles 93 and 94 address important budgetary and institutional competences, while Article 118 permits the Chamber to hear a Cabinet member and submit a dismissal proposal to the President. Under Article 15 of the Law No. ZRU-403 of 11 April 2016 on Parliamentary Oversight, a public official must normally answer a deputy’s inquiry within ten days.

The research asks how digital and AI-assisted mechanisms can reduce information asymmetry and improve follow-up without replacing political judgment. The analysis is limited to the Legislative Chamber, ensuring consistency between the title, research object, and recommendations.

MATERIALS AND METHODS

The study applies four methods reflected in the results: doctrinal legal analysis of the Constitution, the Law on Parliamentary Oversight, and parliamentary procedure; documentary analysis of official Legislative Chamber reports for 2015–2019 and 2020–2024; comparative institutional analysis of selected foreign oversight practices; and principal-agent theory together with the "fire-alarm" model to explain information asymmetry and citizen-generated signals. Expert-survey, statistical, and SWOT methods are not claimed because independently reportable results were unavailable for this article.

RESULTS AND DISCUSSION

Official reports demonstrate measurable oversight effects. In 2018–2019, the Legislative Chamber held 14 Government Question Hours involving 16 ministers and heads of state committees. During scrutiny of the 2021 State Budget, factions and deputies secured 23 substantive amendments and the reallocation of approximately UZS 700 billion. These results show that oversight is most effective when a defined procedure leads to a measurable policy or fiscal outcome.

Indicator	Evidence	Implication
Question Hour	14 sessions; 16 officials (2018–2019)	Visibility requires follow-up.
Budget scrutiny	23 amendments to the 2021 budget bill	Parliament changed executive proposals.
Fiscal effect	About UZS 700 billion reallocated	Impact can be measured by outcomes.

Activity counts alone do not show whether recommendations were implemented or deadlines observed. A results-based register should therefore

track timely responses, implementation rates, repeated violations, remedy periods, and fiscal or regulatory effects. In principal-agent terms, executive bodies possess superior administrative information; parliament needs a transparent record of the complete oversight chain to reduce this asymmetry.

INSTITUTIONAL AND LEGAL PROPOSALS

First, a citizen-initiated oversight mechanism should allow a verified electronic petition to trigger committee consideration. Authentication should use the national digital-identification system; duplicates and automated submissions should be filtered; admissibility criteria should be published; and the competent committee should decide within fifteen working days whether to request information, hold a hearing, or issue a reasoned refusal. A numerical threshold should be fixed after pilot testing rather than selected arbitrarily.

Second, an Open Parliamentary Oversight Register should be introduced through amendments to the Rules of Procedure and implementing regulations of the Chamber's Secretariat. It should publish non-confidential information on inquiries, Question Hour commitments, hearings, legal deadlines, responsible institutions, responses, committee conclusions, and implementation status. This would make compliance with Article 15's ten-day rule publicly verifiable.

Third, the Law on Parliamentary Oversight should provide for parliamentary party-group hearings, allowing a faction to hear a state-body head on problems identified during constituency work. The Rules of Procedure should also introduce a minority rapporteur whose assessment accompanies the main committee report. These mechanisms would strengthen political competition and prevent oversight conclusions from merely reproducing executive explanations.

Fourth, Article 18 on parliamentary investigation should clarify the power of a special commission to request documents, summon relevant officials in accordance with law, and refer evidence of violations to competent authorities. Non-binding political recommendations must be distinguished from binding procedural duties. Unjustified delay, deliberate submission of materially

incomplete information, or repeated non-compliance should entail defined disciplinary or administrative consequences.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE MODEL AND SAFEGUARDS

AI may support four limited functions in the register: document classification, deadline alerts, thematic clustering of recurring complaints, and detection of repeated non-compliance. The database should contain document type, subject, responsible institution, deadline, response, committee conclusion, and implementation status. AI must not determine political responsibility, recommend dismissal, or autonomously rank officials; every output should be traceable to source documents and reviewed by authorized staff.

Five safeguards are essential: human-in-the-loop review; data minimization and lawful-purpose processing; publication of classification criteria and correction procedures; cybersecurity protection against unauthorized alteration and service disruption; and a right to challenge inaccurate automated classifications. These requirements make AI a controlled analytical instrument rather than an opaque decision-maker.

CONCLUSION

The Legislative Chamber possesses important constitutional and statutory oversight powers, and official reports show measurable effects in Question Hour and budget scrutiny. The remaining task is to transform separate activities into a transparent and enforceable cycle. A citizen-initiated mechanism, open register, party-group hearings, minority rapporteur, and differentiated procedural responsibility can reduce information asymmetry and strengthen follow-up. AI can improve classification and monitoring only under human supervision, data-protection rules, cybersecurity safeguards, and algorithmic transparency.

REFERENCES

1. Constitution of the Republic of Uzbekistan. (2023).
2. Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. (2020). Report on the activities of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan in 2015–2019. Tashkent.

3. Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. (2024). Report on the activities of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan in 2020–2024. Tashkent.
4. McCubbins, M. D., & Schwartz, T. (1984). Congressional oversight overlooked: Police patrols versus fire alarms. American Journal of Political Science, 28(1), 165–179. https://doi.org/10.2307/2110792
5. Rose-Ackerman, S. (2021). Democracy and executive power: Policymaking accountability in the US, the UK, Germany, and France. Yale University Press.
6. Strøm, K. (2000). Delegation and accountability in parliamentary democracies. European Journal of Political Research, 37(3), 261–290. https://doi.org/10.1111/1475-6765.00513
7. The Republic of Uzbekistan. (2016). Law No. ZRU-403 of 11 April 2016 on Parliamentary Oversight.

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI BOZORDAGI MAVQEINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA MUSTAHKAMLASH (XUSUSIY TA'LIM MARKAZLARI MISOLIDA)

Yunusov Anasxon A'zamjon o'g'li

NamDTU tayanch doktoranti

E-mail: anaskhonyunusov1@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kichik biznes subyektlari, xususan, xususiy ta'lim markazlarining raqobatbardoshligini innovatsion yondashuvlar asosida oshirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotning dolzarbligi ta'lim xizmatlari bozorida raqobatning yildan-yilga kuchayib borayotgani, buning natijasida faqat sifatli xizmat taklif etuvchi emas, balki innovatsion boshqaruv va marketing vositalaridan foydalanuvchi markazlargina barqaror rivojlanish imkoniyatiga ega bo'layotgani bilan izohlanadi. Tadqiqot jarayonida ekspert so'rovi, kontent-tahlil, statistik taqqoslash va keys-stadi metodlaridan foydalanilgan bo'lib, innovatsion yondashuvlarni — brendlashtirish va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ibotni, gibrid (offlayn-onlayn) o'qitish formatini, mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini hamda o'qituvchilarni natijaga bog'liq rag'batlantirish tizimini — joriy etish xususiy ta'lim markazlarining bozordagi mavqeini, o'quvchilar sonini va o'qituvchilar faolligini sezilarli darajada yaxshilashi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim markazlari rahbarlari va tegishli sohadagi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *kichik biznes, raqobatbardoshlik, innovatsion yondashuv, xususiy ta'lim markazi, brendlashtirish, gibrid o'qitish, mijozlar sodiqligi.*

Annotation. *This article examines enhancing the competitiveness of small business entities, specifically private education centers, through innovative approaches. The relevance of the study is explained by the yearly intensification of competition in the education services market, as a result of which only centers that apply innovative management and marketing tools, rather than merely offering quality service, gain sustainable development opportunities. The study applied expert survey, content analysis, statistical comparison and case-study methods, demonstrating that introducing innovative approaches — branding and social-media-based promotion, a hybrid (offline-online) teaching format, long-term customer*

relationship support programs, and a performance-based teacher incentive system — considerably improves the market position, student enrollment and teacher engagement of private education centers. The findings are of practical value to education center managers and relevant specialists.

Keywords: *small business, competitiveness, innovative approach, private education center, branding, hybrid learning, customer loyalty.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается повышение конкурентоспособности субъектов малого бизнеса, в частности частных образовательных центров, на основе инновационных подходов. Актуальность исследования объясняется ежегодным усилением конкуренции на рынке образовательных услуг, вследствие чего устойчивые возможности развития получают только те центры, которые применяют инновационные инструменты управления и маркетинга, а не только предлагают качественные услуги. В исследовании применены методы экспертного опроса, контент-анализа, статистического сравнения и кейс-стади, в результате чего доказано, что внедрение инновационных подходов — брендинга и продвижения через социальные сети, гибридного (офлайн-онлайн) формата обучения, программ поддержки долгосрочных отношений с клиентами и системы стимулирования преподавателей по результатам — существенно улучшает рыночную позицию, набор учащихся и вовлечённость преподавателей частных образовательных центров. Результаты исследования имеют практическую значимость для руководителей образовательных центров и профильных специалистов.*

Ключевые слова: *малый бизнес, конкурентоспособность, инновационный подход, частный образовательный центр, брендинг, гибридное обучение, лояльность клиентов.*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish ularning barqaror faoliyat yuritishini ta’minlovchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ta’lim xizmatlari bozorining faollashishi, xususan, xususiy ta’lim markazlari sonining ortib borishi kuzatilmoqda. Biroq bozorga yangi ishtirokchilarning kirib kelishi natijasida raqobat kuchayib, faqat innovatsion yondashuvlarni qo‘llovchi markazlargina o‘z mavqeini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Xususiy ta’lim markazlari — repetitorlik markazlari, xorijiy til o‘quv markazlari, bolalar rivojlantirish klublari — ko‘pincha bir-biriga o‘xshash xizmatlarni taklif etadi, bu esa mijozlarning e’tiborini jalb qilishda faqat narx va joylashuvga emas, balki brend obro‘si, o‘qitish formati va mijozlar bilan munosabatlar sifatiga ham e’tibor qaratishni taqozo etadi. Shu sababli xususiy ta’lim markazlari faoliyatiga innovatsion yondashuvlarni izchil joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy masaladir.

Innovatsion yondashuv xususiy ta’lim markazi uchun nafaqat marketing vositasi, balki mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirish, o‘quv jarayonini moslashuvchan tashkil etish va xodimlarni rag‘batlantirishning yaxlit tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tizim brendlashtirish, raqamli targ‘ibot, o‘qitish formati va kadrlar siyosatiga oid komponentlarni o‘zaro bog‘liq holda birlashtiradi.

Tadqiqotning maqsadi innovatsion yondashuvlar asosida kichik biznes subyektlari, xususan, xususiy ta’lim markazlarining raqobatbardoshligini oshiruvchi amaliy metodikani ishlab chiqish va uning samaradorligini asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan: raqobatbardoshlikni oshirishning nazariy asoslarini o‘rganish; xususiy ta’lim markazlarida innovatsion vositalarni qo‘llash omillarini aniqlash; ishlab chiqilgan metodikani amaliyotda sinab ko‘rish va natijalarini tahlil qilish.

Mavzu doirasida mahalliy tadqiqotchilarning ishlari tahlil qilindi.

O.Rustamov “Kichik biznesda raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari” asarida kichik tadbirkorlik subyektlarining bozordagi mavqeini mustahkamlashda brend siyosatining o‘rnini alohida ta’kidlagan [1: 27]. Muallifning fikricha, kuchli brend obro‘siga ega bo‘lgan kichik korxonalar narx bo‘yicha raqobatga kamroq muhtoj bo‘ladi [1: 31].

Z.Karimova (2023) xususiy ta’lim markazlari misolida gibrid o‘qitish formatlarining samaradorligini tadqiq etib, offlayn va onlayn darslarni

uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning qulayligini oshirish bilan bir qatorda markaz xarajatlarini ham optimallashtirishini ko‘rsatgan [2: 44].

T.Yoqubov va L.Saidova (2022) “Ijtimoiy tarmoqlar orqali marketing” qo‘llanmasida kichik biznes subyektlarining ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish strategiyalarini o‘rgangan. Mualliflar mijozlar bilan muntazam muloqot va foydali kontent taqdim etish brend sodiqligini shakllantirishning asosiy usuli ekanligini asoslaganlar [3: 36].

H.Egamberdiyev (2024) “O‘zbekistonda ta’lim xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalari” tadqiqotida xususiy ta’lim markazlari o‘rtasidagi raqobat darajasini mintaqalar kesimida tahlil qilgan va yirik shaharlarda raqobat ayniqsa yuqori ekanligini statistik jihatdan asoslagan [4: 58].

D.Sattorova (2023) “O‘qituvchilarni rag‘batlantirishning zamonaviy modellari” ishida natijaga bog‘liq mukofotlash tizimlarining o‘qituvchilar faolligiga ta’sirini o‘rgangan va bunday tizimlar o‘qituvchilarning mehnat unumdorligini oshirishini ko‘rsatgan [5: 49].

Yuqoridagi manbalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, xususiy ta’lim markazlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun brendlashtirish, gibrid o‘qitish, raqamli marketing va o‘qituvchilarni rag‘batlantirish mexanizmlarini uyg‘unlashtiruvchi yaxlit yondashuv zarur.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi: nazariy qismda ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish; empirik qismda ekspert so‘rovi va keys-stadi metodi; natijalarni baholashda statistik taqqoslash metodi.

Ekspert so‘rovida o‘n beshta xususiy ta’lim markazi rahbari va o‘n oltita o‘qituvchi ishtirok etdi. Ular bilan innovatsion vositalarni qo‘llash tajribasi, ularning natijalari va uchraydigan qiyinchiliklar bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazildi.

Keys-stadi metodi doirasida Andijon shahridagi ikkita xususiy ta’lim markazi — biri innovatsion yondashuvlarni faol qo‘llovchi, ikkinchisi an’anaviy usulda faoliyat yurituvchi — bir yil davomida kuzatildi. Markazlarning o‘quvchilar soni, brend tanilishi va daromadlilik ko‘rsatkichlari qiyoslandi.

Kuzatuv boshida ikkala markazning o‘quvchilar soni deyarli teng edi (farq besh foizdan oshmadi). Yil yakunida esa innovatsion markazda o‘quvchilar soni qirq ikki foizga o‘sgan bo‘lsa, an’anaviy markazda bu ko‘rsatkich atigi o‘n ikki foizni tashkil etdi.

Brend tanilishi bo‘yicha innovatsion markazda ijtimoiy tarmoqlardagi obunachilar soni uch baravardan ortiq oshdi, an’anaviy markazda esa bu ko‘rsatkich sezilarli o‘zgarmadi. Daromadlilik bo‘yicha innovatsion markazda o‘rtacha oylik daromad qirq to‘qqiz foiz punktga oshdi, an’anaviy markazda esa o‘n uch foiz punktga oshdi.

Ekspert so‘rovi natijalariga ko‘ra, so‘rovda ishtirok etgan rahbarlarning sakson to‘rt foizi brendlashtirish va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ‘ibotni eng samarali innovatsion vosita sifatida baholadi. O‘qituvchilarning yetmish sakkiz foizi esa natijaga bog‘liq rag‘batlantirish tizimi ularning ish faoliyatidan qoniqish darajasini oshirganini qayd etdi.

Olingan natijalar innovatsion yondashuvlarning xususiy ta’lim markazlari raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyatini tasdiqladi.

Birinchidan, innovatsion markazda kuzatilgan o‘quvchilar sonining sezilarli o‘sishi O.Rustamovning kuchli brend obro‘siga ega kichik korxonalar narx raqobatiga kamroq muhtoj bo‘lishiga oid xulosasini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, gibrid o‘qitish formatining qo‘llanilishi Z.Karimovaning ushbu format o‘quvchilar qulayligi va xarajatlar optimallashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatishiga oid xulosasini amalda tasdiqladi.

Uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlardagi obunachilar sonining sezilarli o‘sishi T.Yoqubov va L.Saidovaning muntazam muloqot brend sodiqligini shakllantirishning asosiy usuli ekanligiga oid xulosasini mustahkamlaydi.

To‘rtinchidan, o‘qituvchilarning ish faoliyatidan qoniqish darajasining oshishi D.Sattorovaning natijaga bog‘liq mukofotlash tizimlari mehnat unumdorligini oshirishiga oid xulosasini tasdiqladi.

Tadqiqotning cheklovi sifatida uning faqat Andijon shahridagi ikkita markaz misolida o‘tkazilganini ta’kidlash lozim. Kelajakdagi tadqiqotlarda namuna hajmini kengaytirish va boshqa mintaqalarni ham qamrab olish tavsiya etiladi.

Ushbu tadqiqot kichik biznes subyektlari, xususan, xususiy ta’lim markazlarining raqobatbardoshligini innovatsion yondashuvlar asosida oshirish metodikasini ishlab chiqishga bag‘ishlandi. Tadqiqot davomida quyidagi xulosalarga kelindi: birinchidan, brendlashtirish va raqamli targ‘ibot mijozlarni jalb qilishning eng samarali vositalaridan biridir; ikkinchidan, gibrid o‘qitish formati o‘quvchilar sonini oshirish va xarajatlarni optimallashtirishga xizmat qiladi; uchinchidan, o‘qituvchilarni natijaga bog‘liq rag‘batlantirish tizimi ularning faolligini oshiradi. Ishlab chiqilgan metodika O‘zbekistondagi xususiy ta’lim markazlari faoliyatida qo‘llanilishi tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rustamov O. Kichik biznesda raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.
2. Karimova Z. Xususiy ta’lim markazlarida gibrid o‘qitish formatlari. — Andijon: AndDU nashriyoti, 2023.
3. Yoqubov T., Saidova L. Ijtimoiy tarmoqlar orqali marketing (o‘quv qo‘llanma). — Toshkent, 2022.
4. Egamberdiyev H. O‘zbekistonda ta’lim xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalari. — Toshkent: Fan, 2024.
5. Sattorova D. O‘qituvchilarni rag‘batlantirishning zamonaviy modellari. — Andijon: AndDU nashriyoti, 2023.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-5841063.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OSHIRISH (XUSUSIY TA'LIM MARKAZLARI MISOLIDA)

Yunusov Anasxon A'zamjon o'g'li

NamDTU tayanch doktoranti

Tel: +998 99 633 00 43

E-mail: anaskhonyunusov1@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kichik biznes subyektlari, xususan, xususiy ta'lim markazlarining raqobatbardoshligini innovatsion yondashuvlar asosida oshirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotning dolzarbligi ta'lim xizmatlari bozorida raqobatning yildan-yilga kuchayib borayotgani, buning natijasida faqat sifatli xizmat taklif etuvchi emas, balki innovatsion boshqaruv va marketing vositalaridan foydalanuvchi markazlargina barqaror rivojlanish imkoniyatiga ega bo'layotgani bilan izohlanadi. Tadqiqot jarayonida ekspert so'rovi, kontent-tahlil, statistik taqqoslash va keys-stadi metodlaridan foydalanilgan bo'lib, innovatsion yondashuvlarni — brendlashtirish va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ibotni, gibrid (offlayn-onlayn) o'qitish formatini, mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini hamda o'qituvchilarni natijaga bog'liq rag'batlantirish tizimini — joriy etish xususiy ta'lim markazlarining bozordagi mavqeini, o'quvchilar sonini va o'qituvchilar faolligini sezilarli darajada yaxshilashi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari ta'lim markazlari rahbarlari va tegishli sohadagi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *kichik biznes, raqobatbardoshlik, innovatsion yondashuv, xususiy ta'lim markazi, brendlashtirish, gibrid o'qitish, mijozlar sodiqligi.*

Annotation. *This article examines enhancing the competitiveness of small business entities, specifically private education centers, through innovative approaches. The relevance of the study is explained by the yearly intensification of competition in the education services market, as a result of which only centers that apply innovative management and marketing tools, rather than merely offering quality service, gain sustainable development opportunities. The study applied expert survey, content analysis, statistical comparison and case-study methods, demonstrating that introducing innovative approaches — branding and social-*

media-based promotion, a hybrid (offline-online) teaching format, long-term customer relationship support programs, and a performance-based teacher incentive system — considerably improves the market position, student enrollment and teacher engagement of private education centers. The findings are of practical value to education center managers and relevant specialists.

Keywords: *small business, competitiveness, innovative approach, private education center, branding, hybrid learning, customer loyalty.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается повышение конкурентоспособности субъектов малого бизнеса, в частности частных образовательных центров, на основе инновационных подходов. Актуальность исследования объясняется ежегодным усилением конкуренции на рынке образовательных услуг, вследствие чего устойчивые возможности развития получают только те центры, которые применяют инновационные инструменты управления и маркетинга, а не только предлагают качественные услуги. В исследовании применены методы экспертного опроса, контент-анализа, статистического сравнения и кейс-стади, в результате чего доказано, что внедрение инновационных подходов — брендинга и продвижения через социальные сети, гибридного (офлайн-онлайн) формата обучения, программ поддержки долгосрочных отношений с клиентами и системы стимулирования преподавателей по результатам — существенно улучшает рыночную позицию, набор учащихся и вовлечённость преподавателей частных образовательных центров. Результаты исследования имеют практическую значимость для руководителей образовательных центров и профильных специалистов.*

Ключевые слова: *малый бизнес, конкурентоспособность, инновационный подход, частный образовательный центр, брендинг, гибридное обучение, лояльность клиентов.*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish ularning barqaror faoliyat yuritishini ta’minlovchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ta’lim xizmatlari bozorining faollashishi, xususan, xususiy ta’lim markazlari sonining ortib borishi kuzatilmoqda. Biroq bozorga yangi ishtirokchilarning kirib kelishi natijasida raqobat kuchayib, faqat innovatsion yondashuvlarni qo‘llovchi markazlargina o‘z mavqeini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Xususiy ta’lim markazlari — repetitorlik markazlari, xorijiy til o‘quv markazlari, bolalar rivojlantirish klublari — ko‘pincha bir-biriga o‘xshash xizmatlarni taklif etadi, bu esa mijozlarning e’tiborini jalb qilishda faqat narx va joylashuvga emas, balki brend obro‘si, o‘qitish formati va mijozlar bilan munosabatlar sifatiga ham e’tibor qaratishni taqozo etadi. Shu sababli xususiy ta’lim markazlari faoliyatiga innovatsion yondashuvlarni izchil joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy masaladir.

Innovatsion yondashuv xususiy ta’lim markazi uchun nafaqat marketing vositasi, balki mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirish, o‘quv jarayonini moslashuvchan tashkil etish va xodimlarni rag‘batlantirishning yaxlit tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tizim brendlashtirish, raqamli targ‘ibot, o‘qitish formati va kadrlar siyosatiga oid komponentlarni o‘zaro bog‘liq holda birlashtiradi.

Tadqiqotning maqsadi innovatsion yondashuvlar asosida kichik biznes subyektlari, xususan, xususiy ta’lim markazlarining raqobatbardoshligini oshiruvchi amaliy metodikani ishlab chiqish va uning samaradorligini asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan: raqobatbardoshlikni oshirishning nazariy asoslarini o‘rganish; xususiy ta’lim markazlarida innovatsion vositalarni qo‘llash omillarini aniqlash; ishlab chiqilgan metodikani amaliyotda sinab ko‘rish va natijalarini tahlil qilish.

Mavzu doirasida mahalliy tadqiqotchilarning ishlari tahlil qilindi.

O.Rustamov “Kichik biznesda raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari” asarida kichik tadbirkorlik subyektlarining bozordagi mavqeini mustahkamlashda brend siyosatining o‘rnini alohida ta’kidlagan [1: 27]. Muallifning fikricha, kuchli brend obro‘siga ega bo‘lgan kichik korxonalar narx bo‘yicha raqobatga kamroq muhtoj bo‘ladi [1: 31].

Z.Karimova (2023) xususiy ta’lim markazlari misolida gibrid o‘qitish formatlarining samaradorligini tadqiq etib, offlayn va onlayn darslarni

uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning qulayligini oshirish bilan bir qatorda markaz xarajatlarini ham optimallashtirishini ko‘rsatgan [2: 44].

T.Yoqubov va L.Saidova (2022) “Ijtimoiy tarmoqlar orqali marketing” qo‘llanmasida kichik biznes subyektlarining ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish strategiyalarini o‘rgangan. Mualliflar mijozlar bilan muntazam muloqot va foydali kontent taqdim etish brend sodiqligini shakllantirishning asosiy usuli ekanligini asoslaganlar [3: 36].

H.Egamberdiyev (2024) “O‘zbekistonda ta’lim xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalari” tadqiqotida xususiy ta’lim markazlari o‘rtasidagi raqobat darajasini mintaqalar kesimida tahlil qilgan va yirik shaharlarda raqobat ayniqsa yuqori ekanligini statistik jihatdan asoslagan [4: 58].

D.Sattorova (2023) “O‘qituvchilarni rag‘batlantirishning zamonaviy modellari” ishida natijaga bog‘liq mukofotlash tizimlarining o‘qituvchilar faolligiga ta’sirini o‘rgangan va bunday tizimlar o‘qituvchilarning mehnat unumdorligini oshirishini ko‘rsatgan [5: 49].

Yuqoridagi manbalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, xususiy ta’lim markazlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun brendlashtirish, gibrid o‘qitish, raqamli marketing va o‘qituvchilarni rag‘batlantirish mexanizmlarini uyg‘unlashtiruvchi yaxlit yondashuv zarur.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi: nazariy qismda ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish; empirik qismda ekspert so‘rovi va keys-stadi metodi; natijalarni baholashda statistik taqqoslash metodi.

Ekspert so‘rovida o‘n beshta xususiy ta’lim markazi rahbari va o‘n oltita o‘qituvchi ishtirok etdi. Ular bilan innovatsion vositalarni qo‘llash tajribasi, ularning natijalari va uchraydigan qiyinchiliklar bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazildi.

Keys-stadi metodi doirasida Andijon shahridagi ikkita xususiy ta’lim markazi — biri innovatsion yondashuvlarni faol qo‘llovchi, ikkinchisi an’anaviy usulda faoliyat yurituvchi — bir yil davomida kuzatildi. Markazlarning o‘quvchilar soni, brend tanilishi va daromadlilik ko‘rsatkichlari qiyoslandi.

Kuzatuv boshida ikkala markazning o‘quvchilar soni deyarli teng edi (farq besh foizdan oshmadi). Yil yakunida esa innovatsion markazda o‘quvchilar soni qirq ikki foizga o‘sgan bo‘lsa, an’anaviy markazda bu ko‘rsatkich atigi o‘n ikki foizni tashkil etdi.

Brend tanilishi bo‘yicha innovatsion markazda ijtimoiy tarmoqlardagi obunachilar soni uch baravardan ortiq oshdi, an’anaviy markazda esa bu ko‘rsatkich sezilarli o‘zgarmadi. Daromadlilik bo‘yicha innovatsion markazda o‘rtacha oylik daromad qirq to‘qqiz foiz punktga oshdi, an’anaviy markazda esa o‘n uch foiz punktga oshdi.

Ekspert so‘rovi natijalariga ko‘ra, so‘rovda ishtirok etgan rahbarlarning sakson to‘rt foizi brendlashtirish va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ‘ibotni eng samarali innovatsion vosita sifatida baholadi. O‘qituvchilarning yetmish sakkiz foizi esa natijaga bog‘liq rag‘batlantirish tizimi ularning ish faoliyatidan qoniqish darajasini oshirganini qayd etdi.

Olingan natijalar innovatsion yondashuvlarning xususiy ta’lim markazlari raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyatini tasdiqladi.

Birinchidan, innovatsion markazda kuzatilgan o‘quvchilar sonining sezilarli o‘sishi O.Rustamovning kuchli brend obro‘siga ega kichik korxonalar narx raqobatiga kamroq muhtoj bo‘lishiga oid xulosasini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, gibrid o‘qitish formatining qo‘llanilishi Z.Karimovaning ushbu format o‘quvchilar qulayligi va xarajatlar optimallashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatishiga oid xulosasini amalda tasdiqladi.

Uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlardagi obunachilar sonining sezilarli o‘sishi T.Yoqubov va L.Saidovaning muntazam muloqot brend sodiqligini shakllantirishning asosiy usuli ekanligiga oid xulosasini mustahkamlaydi.

To‘rtinchidan, o‘qituvchilarning ish faoliyatidan qoniqish darajasining oshishi D.Sattorovaning natijaga bog‘liq mukofotlash tizimlari mehnat unumdorligini oshirishiga oid xulosasini tasdiqladi.

Tadqiqotning cheklovi sifatida uning faqat Andijon shahridagi ikkita markaz misolida o‘tkazilganini ta’kidlash lozim. Kelajakdagi tadqiqotlarda namuna hajmini kengaytirish va boshqa mintaqalarni ham qamrab olish tavsiya etiladi.

Ushbu tadqiqot kichik biznes subyektlari, xususan, xususiy ta’lim markazlarining raqobatbardoshligini innovatsion yondashuvlar asosida oshirish metodikasini ishlab chiqishga bag‘ishlandi. Tadqiqot davomida quyidagi xulosalarga kelindi: birinchidan, brendlashtirish va raqamli targ‘ibot mijozlarni jalb qilishning eng samarali vositalaridan biridir; ikkinchidan, gibrid o‘qitish formati o‘quvchilar sonini oshirish va xarajatlarni optimallashtirishga xizmat qiladi; uchinchidan, o‘qituvchilarni natijaga bog‘liq rag‘batlantirish tizimi ularning faolligini oshiradi. Ishlab chiqilgan metodika O‘zbekistondagi xususiy ta’lim markazlari faoliyatida qo‘llanilishi tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rustamov O. Kichik biznesda raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.
2. Karimova Z. Xususiy ta’lim markazlarida gibrid o‘qitish formatlari. — Andijon: AndDU nashriyoti, 2023.
3. Yoqubov T., Saidova L. Ijtimoiy tarmoqlar orqali marketing (o‘quv qo‘llanma). — Toshkent, 2022.
4. Egamberdiyev H. O‘zbekistonda ta’lim xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalari. — Toshkent: Fan, 2024.
5. Sattorova D. O‘qituvchilarni rag‘batlantirishning zamonaviy modellari. — Andijon: AndDU nashriyoti, 2023.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-5841063.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/

TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI: XALQARO TAJRIBA TAHLILI

Raxmonov Shuxrat Shavkatovich

i.f.f.d., PhD

Samarqand davlat chet tillar instituti

raxmonovshuxrat1997@gmail.com

Annotatsiya: *turizmni barqaror rivojlantirish zamonaviy iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanatni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirish va mavjud resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada turizmni barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari xalqaro tajriba asosida tahlil qilinib, ularni milliy amaliyotga moslashtirish imkoniyatlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *barqaror turizm, turizmni rivojlantirish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, xalqaro tajriba, turizm siyosati, innovatsiyalar, ekologik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik.*

Abstract: *Sustainable tourism development has become one of the key priorities of the modern economy, contributing to economic growth, social well-being, and environmental sustainability. International practice demonstrates that effective organizational and economic mechanisms enhance the competitiveness of the tourism sector while ensuring the rational use of available resources. This article analyzes organizational and economic mechanisms for sustainable tourism development based on international experience and examines the possibilities of adapting successful practices to the national context.*

Keywords: *sustainable tourism, tourism development, organizational and economic mechanism, international experience, tourism policy, innovation, environmental sustainability, economic efficiency.*

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida turizm eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Butunjahon turizm tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra 2025-yilda dunyo bo‘ylab sayohat qilgan xorijiy turistlar soni 1,52 milliard nafarni tashkil

etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan 4 foizlik o‘sishni (60 million turist) tashkil etadi [1]. Mazkur soha millionlab ish o‘rinlarini yaratish, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish va milliy daromadlarni ko‘paytirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq turizm oqimlarining keskin ortishi ayrim hududlarda ekologik muammolar, resurslardan haddan tashqari foydalanish va mahalliy aholi manfaatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu sababli turizmni barqaror rivojlantirish konsepsiyasi xalqaro hamjamiyat tomonidan ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda. Barqaror turizm iqtisodiy foyda olish bilan bir qatorda ekologik muvozanatni saqlash va ijtimoiy manfaatlarni ta’minlashni nazarda tutadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi turizmni barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini xalqaro tajriba asosida tahlil qilish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. 1987-yilda qabul qilingan Brutland Komissiyasining fikriga ko‘ra “Barqaror rivojlanish bu hozirgi avlod ehtiyojlarini kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga putur yetkazmagan holda ta'minlaydigan rivojlanishdir” [2]. Olim Batlerning ta’kidlashicha “Barqaror turizm — bu ma'lum hududda uzoq muddat davomida o‘z hayotiyligini saqlab qoladigan tarzda rivojlantiriladigan va boshqariladigan turizmdir” [3]. Tadqiqotchi Jefreyning fikricha “Turizmni rivojlantirish mahalliy aholi turmush sifatini yaxshilashi bilan birga tabiiy va madaniy resurslarni ham muhofaza qilishi kerak” [4].

Metodologiya. Tadqiqotda turizmni boshqarishning turli mamlakatlarda qo‘llanilayotgan mexanizmlarini solishtirish orqali qiyosiy tahlil, turizm tizimining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy elementlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash orqali tizimli yondashuv, xalqaro tashkilotlar, ilmiy maqolalar va normativ hujjatlar mazmunini o‘rganish orqali kontent tahlili, olingan natijalarni umumlashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish orqali analiz-sintez usullaridan foydalanildi.

Natijalar. Turizm tarmog‘ining barqaror taraqqiyoti mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash hamda tabiiy va madaniy merosni asrab-avaylash jarayonlarida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur maqsadlarga erishishda turizm faoliyatini samarali boshqarishga xizmat qiluvchi tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Olim I.Ivanovning fikricha, “turizmni barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi esa turizm sohasining uzoq muddatli va muvozanatli rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan boshqaruv, iqtisodiy va institutsional vositalar tizimini o‘zida mujassam etadi” [5].

Bugungi kunda dunyo davlatlarida turizmning salbiy oqibatlarini kamaytirish va sohani barqaror rivojlantirish ustida ko‘plab strategiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular barqaror turistik infratuzilmani izchil rivojlantirishga yo‘naltirilgan dastur hamda chora-tadbirlar majmuasi hisoblanadi. (1-jadval)

1-jadval

Turizmni barqaror rivojlantirish doirasida ishlab chiqilgan dasturlar va chora-tadbirlar[4]

Davlat	Dastur va chora-tadbirlar
Fransiya	“Paris Low Emission Zone” – Parijda karbon izini kamaytirish maqsadida ekologik transport tizimi joriy qilingan, “Eco-Tourism Labels” – sayyohlik ob’ektlari uchun ekologik standartlar joriy etilgan, “Green France” – ekologik mehmonxonalar va qayta tiklanuvchi energiya loyihalari;
Shvesiya	Mehmonxonalar va turistik ob’ektlar barqarorlik standartlariga javob berishi uchun “Nordic Swan” ekologik markeriga ega bo‘lishi, “Green Tourism” dasturi – karbon izini kamaytirish, Ekologik mehmonxonalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish;

[4] Muallif ishlanmasi

Ispaniya	“Sustainable Spain” dasturi doirasida turizmning salbiy ekologik ta’sirini kamaytirish, “Plastic Free Beaches” – Balear orollarida plastik chiqindilarni kamaytirish, Balear va Kanar orollarida turistlar sonini cheklash, Barselona va Valensiyada quyosh energiyasidan foydalanuvchi mehmonxonalar;
Yaponiya	“Go Green Japan” dasturi – ekologik mehmonxonalar tarmog‘I, “Sustainable Travel Japan” – madaniy merosni muhofaza qilish, tabiatga zarar yetkazmaydigan “smart tourism”;
Hindiston	“Incredible India Green” – tarixiy ob’ektlar atrofini himoya qilish dasturi, Assam va Uttarakxand shtatlari maxsus ekoturizm hududlari, mahalliy jamoalarni jalb qilish va turizmdan tushgan daromadni ularga yo‘naltirish;
Kanada	“Eco Parks Canada” dasturi asosida sayyohlarning tabiatga salbiy ta’sirini kamaytirish, barqaror transport tizimi – turizmda velosiped va elektromobillar harakatini ommalashtirish;
Braziliya	Turizmda Amazonka o‘rmonlari muhofazasi va mahalliy qabilalar huquqlarini himoya qilish uchun “Sustainable Amazon” dasturi;
Birlashgan Arab Amirliklari	Dubay va Abu-Dabi toza energiya va barqaror infratuzilma asosida turizmni rivojlantirish, “Green Dubai” dasturi doirasida turizm ob’ektlarida quyosh energiyasidan foydalanish, “Smart City”da energiya tejovchi binolar faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
Saudiya Arabistoni	“Vision 2030” dasturi orqali barqaror turizmni rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda, Qizil dengizdagi korall riflarini himoya qilish dasturlari, Haj va Umra ziyoratlarida karbon izini kamaytirishga qaratilgan choralar, “NEOM” – kelajakdagi ekoshahar loyihasi.
Italiya	“Eco-Friendly Villages” dasturi – qishloq joylarida barqaror turizmni rivojlantirish, Venesiyada sayyohlar oqimini nazorat

	qilish uchun kruiz kemalarini shahar markaziga kiritishni cheklash, “Venice Green Tax” – Venesiyaga kirish uchun turistlardan ekologik to‘lov undirish.

XULOSA

Turizmning barqaror rivojlanishi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarni ta’minlash hamda madaniy merosni muhofaza qilishni uyg‘unlashtirgan holda amalga oshiriladigan uzoq muddatli rivojlanish jarayonini anglatadi. Ushbu jarayonni samarali yo‘lga qo‘yish strategik boshqaruv va puxta rejalashtirish mexanizmlarini talab etadi. Shu jihatdan, turizmni barqaror rivojlantirish algoritmi mazkur sohani tizimli ravishda tashkil etish va boshqarishga qaratilgan bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui sifatida talqin etiladi. Ilmiy nuqtai nazardan, bu algoritm huquqiy, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy mexanizmlar yig‘indisidan iborat bo‘lib, hudud yoki mamlakat miqyosida turizmning muvozanatli va barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Xalqaro tajriba asosida turizmni barqaror rivojlantirish algoritmi uzviy, kompleks va ko‘p tomonlama yondashuvni talab qiladi. Xalqaro tajriba ushbu elementlarning uyg‘un qo‘llanilishi turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. UN Tourism, New release (2026). Madrid, January.
2. World Commission on Environment and Development (1987). *Our Common Future*. Oxford University Press.
3. Butler, R.W. (1999). *Sustainable Tourism: A State-of-the-Art Review*. Tourism Geographies.
4. Wall, G. (1997). *Is Ecotourism Sustainable?* Environmental Management.
5. Иванов, Илья Сергеевич (2011). Повышение качества туристского продукта в условиях персонализации систем дистрибуции: диссертация ... кандидата экономических наук: 08.00.05. Москва.

MHXS 15 (IFRS 15) STANDARTI ASOSIDA TOG‘-KON SANOATI KORXONALARIDA DAROMADLARNI TAN OLISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: “NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AJ MISOLIDA BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASI

Davronova Dilnoza

SamISI, 2-kurs magistranti

davronovadilnoza0428@gmail.com

Annotatsiya. *O‘zbekiston iqtisodiyoti xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga integratsiyalashuvi sharoitida daromadlarni tan olish masalasi dolzarblik kasb etmoqda. Tadqiqotda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ (NKMK) misolida milliy buxgalteriya hisobi standartlari (BHMS) bilan MHXS 15 (IFRS 15) o‘rtasidagi tafovutlar tahlil qilinadi. Maqsad — uzoq muddatli yetkazib berish shartnomalari bo‘yicha daromadni besh bosqichli model asosida taqsimlash mexanizmini ishlab chiqishdir. Tahliliy qiyoslash va gipotetik modellashtirish usullari yordamida amaliy keys taqdim etiladi hamda raqamli avtomatlashtirish bo‘yicha takliflar beriladi. Natijalar korxonaning moliyaviy shaffofligi va investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.*

Abstract. *As Uzbekistan integrates with international financial reporting standards, revenue recognition has become increasingly important. This study analyses discrepancies between national accounting standards (BHMS) and IFRS 15 using the example of Navoi Mining and Metallurgical Combinat JSC. It develops a mechanism for allocating revenue from long-term supply contracts under the five-step model, presenting a hypothetical case study and proposals for digital automation that enhance financial transparency and investment attractiveness within a sustainable development framework.*

Kalit so‘zlar: *daromadlarni tan olish, MHXS 15 (IFRS 15), besh bosqichli model, tog‘-kon sanoati, barqaror rivojlanish, raqamli avtomatlashtirish.*

Key words: *revenue recognition, IFRS 15, five-step model, mining industry, sustainable development, digital automation.*

KIRISH

So‘nggi o‘n yillikda O‘zbekiston iqtisodiyotining xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvi strategik ustuvorlik sifatida belgilanmoqda, buning muhim tarkibiy qismi — milliy buxgalteriya hisobi tizimini MHXS

(IFRS) talablariga muvofiqlashtirishdir. Xususiylashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish borasidagi me’yoriy hujjatlar korxonalarni xalqaro standartlar asosida hisobot tuzishga undamoqda. Shu boisdan daromadni to‘g‘ri va shaffof tan olish strategik-boshqaruv ahamiyatiga ega bo‘lib bormoqda, chunki daromad moliyaviy natijaning asosiy ko‘rsatkichi va investorlar uchun birlamchi parametrdir.

Daromadni tan olish tartibidagi noaniqlik moliyaviy hisobotga bo‘lgan ishonchni pasaytiradi, kredit reytingga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va xalqaro kapital bozorlariga chiqish imkoniyatini cheklaydi. Bu masala, ayniqsa, uzoq muddatli shartnomalar va murakkab yetkazib berish sxemalari keng qo‘llaniladigan tog‘-kon-metallurgiya tarmog‘i uchun dolzarbdir. 2018-yildan kuchga kirgan MHXS 15 “Xaridorlar bilan shartnomalar bo‘yicha tushumlar” standarti avvalgi tarmoq bo‘yicha parchalangan me’yorlarni yagona, besh bosqichli model bilan almashtirdi — bu model daromadni nazoratning xaridorga o‘tishi asosida tan olishni talab qiladi, an’anaviy “yuklab jo‘natish — hisob-faktura” mantig‘idan tubdan farqlanadi.

NKMK O‘zbekiston tog‘-kon sanoatining yetakchi korxonasi sifatida uran, oltin va boshqa metallarni qazib chiqarish, boyitish va xalqaro bozorlarga yetkazib berish bo‘yicha uzoq muddatli shartnomalar tuzadi. Bunday shartnomalarda mahsulot sifati, yetkazib berish bosqichlari, narx tuzatish mexanizmlari va logistika xarajatlarini taqsimlash kabi murakkab shartlar mavjud bo‘lib, daromadni bir necha ijro majburiyati kesimida tan olishni taqozo etadi. Shu sababli tadqiqot maqsadi — NKMK misolida MHXS 15 talablarini amaliy qo‘llash mexanizmini ishlab chiqish, milliy standart bilan tafovutlarni aniqlash va daromad hisobini avtomatlashtirish bo‘yicha takliflar berishdan iborat bo‘lib, u BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM-8, BRM-9, BRM-12) kontekstida korporativ shaffoflik masalasini ham qamrab oladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi umumilmiy va maxsus iqtisodiy-buxgalteriya tahlil usullariga asoslanadi. Milliy BHMS (4-son va 21-son) hamda MHXS 15 matnini o‘rganishda tahliliy qiyoslash usuli qo‘llanildi. Induksiya usuli yordamida tarmoqdagi amaliy holatlar umumlashtirilib, kon-metallurgiya korxonalari uchun xarakterli tendensiyalar aniqlandi, deduksiya usuli esa besh bosqichli modelni NKMK faoliyatining aniq holatlariga tatbiq etishda qo‘llanildi. Tizimli yondashuv daromadni tan olish jarayonini korxonaning umumiy moliyaviy boshqaruvi bilan bog‘liqlikda ko‘rib chiqishga imkon berdi.

NKMK bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlarning cheklanganligini hisobga olib, amaliy qismda gipotetik modellashtirish (illustrative case modelling) usuli qo‘llanildi: tarmoq o‘rtacha ko‘rsatkichlari asosida shartli-hisob ma’lumotlari ishlab chiqildi, bu maxfiy korporativ ma’lumotlarni oshkor qilmagan holda standartning amaliy qo‘llanilishini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Manba bazasini IASB hujjatlari, O‘zbekiston Moliya vazirligi me’yoriy hujjatlari, Big Four uslubiy qo‘llanmalari va ilmiy nashrlar tashkil etdi.

NATIJALAR VA TAHLILLAR

Qiyoslash natijalari milliy standartlar bilan MHXS 15 o‘rtasida bir qator tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi. Eng muhim farq — tan olish mezonining o‘zida: milliy amaliyotda daromad ko‘pincha mahsulot jo‘natilishi faktiga bog‘lansa, MHXS 15 nazoratning xaridorga o‘tish momentini asos qilib oladi (substance over form tamoyili). Asosiy tafovutlar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval.

BHMS va MHXS 15 talablari o‘rtasidagi tafovutlar

Mezon	**Milliy BHMS amaliyoti**	**MHXS 15 talabi**
Tan olish asosi	Jo‘natish/bajarilish fakti	Nazoratning xaridorga o‘tishi
Kontseptual model	Yagona, batafsillashtirilmagan qoida	Besh bosqichli model

Ko‘p elementli shartnomalar	Alohida tartibga solinmagan	Har bir ijro majburiyati alohida ajratiladi
O‘zgaruvchan narx	Yakuniy hisob-fakturaga ko‘ra	Eng ehtimolli/kutilayotgan qiymat usulida, cheklanadi
Uzoq muddatli shartnomalar	Yagona vaqt nuqtasida	Davr mobaynida yoki vaqt nuqtasida
Oshkoralik	Cheklangan izoh	Kengaytirilgan izohlar talab etiladi

Jadvaldan ko‘rinadiki, milliy amaliyot yuridik-formal yondashuvga, MHXS 15 esa iqtisodiy mazmun va nazorat mezoniga asoslanadi. Bu farq NKMK kabi ko‘p bosqichli korxonalar uchun moliyaviy natijalarning davrlar kesimida boshqacha taqsimlanishiga olib kelishi mumkin.

MHXS 15 bo‘yicha daromadni tan olish besh bosqichdan iborat bo‘lib, ularni NKMKning tipik uzoq muddatli metall yetkazib berish shartnomasi misolida 2-jadvaldagidek talqin qilish mumkin.

2-jadval.

MHXS 15 asosida NKMK faoliyati mazmuni

№	**Bosqich**	**NKMK faoliyatidagi mazmuni**
1	Shartnomani aniqlash	Xorijiy xaridor bilan oltin/kontsentrat yetkazib berish bo‘yicha aniq shartnoma (miqdor, sifat, narx, muddat)
2	Ijro majburiyatlarini aniqlash	Yetkazib berish, sifat sertifikatlari, transport-logistika xizmati alohida ajratiladi
3	Operatsiya narxini aniqlash	LBMA birja narxlari, valyuta kursi va sifat chegirma/ustamalari hisobga olinadi

4	Narxni taqsimlash	Alohida sotish narxlari (stand-alone selling price) nisbatida taqsimlanadi
5	Daromadni tan olish	Nazorat portda/chegarada (FOB/CIP) o‘tgan vaqtda yoki bajarilish darajasiga mutanosib davr mobaynida

Ushbu model NKMK kabi korxonalarga shartnoma tuzilmasidagi har bir komponentni alohida qiymatga ega ob’ekt sifatida baholash imkonini beradi: qo‘shimcha xizmatlar (masalan, sifat nazorati) alohida ijro majburiyati sifatida ajratiladi va daromad faqat tegishli majburiyat bajarilgandan so‘ng tan olinadi — bu daromadni erta yoki kech tan olish xavfini kamaytiradi.

Amaliy qo‘llanilishni ko‘rsatish uchun shartli holat modellashtirildi: NKMK xorijiy xaridor bilan umumiy qiymati 1 200 000 AQSh dollari bo‘lgan shartnoma tuzgan, unda ikkita ijro majburiyati mavjud — kontsentratni yetkazib berish (alohida sotish narxi 1 100 000 dollar, 91,7%) va sifatni tasdiqlovchi texnik xizmat (100 000 dollar, 8,3%). Nazorat xaridorga port terminalida (CIP) o‘tgani va texnik xizmat alohida davr mobaynida ko‘rsatilgani sababli, daromad ikki bosqichda — yetkazib berilgan kunda 1 100 000 dollar va xizmat yakunlangach 100 000 dollar — tan olinadi. Tegishli provodkalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval.

Buxgalteriya provodkalari

Debet	**Kredit**	**Mazmuni**	**Summa, $**
4010	9030/6410	Shartnoma aktivi tan olinishi	1 200 000
4010	9030	Yetkazib berilgan kunda daromad tan olinishi	1 100 000
9110	1000/1500	Mahsulot tannarxining hisobdan chiqarilishi	(shartli)

4010	9030	Texnik xizmat yakunlangach daromad tan olinishi	100 000
5110	4010	Xaridordan pul mablag‘i kelib tushishi	1 200 000

Agar korxona MHXS 15ni e’tiborga olmay, butun summani yetkazib berish sanasida bitta yozuv bilan tan olganida, bu hali bajarilmagan majburiyat bo‘yicha daromadni muddatidan oldin tan olishga olib kelar edi. Besh bosqichli model daromad va xarajatlarning davrlar bo‘yicha mutanosib taqsimlanishini (matching principle) ta’minlaydi — bu investorlar uchun moliyaviy natijaning real manzarasini beradi.

Raqamli transformatsiya sharoitida MHXS 15ning ko‘p bosqichli mantig‘ini qo‘lda hisoblash xatolik xavfini oshiradi. Shu sababli quyidagi takliflar ishlab chiqildi: 1) ERP tizimlariga (1C:ERP, SAP S/4HANA) integratsiyalashgan “Contract & Revenue Management” modulini joriy etish; 2) mashinaviy o‘qitish algoritmlari yordamida stand-alone selling price’ni bashorat qilish modelini yaratish; 3) daromadni erta/kech tan olish holatlarini real vaqtda aniqlaydigan sun’iy intellekt tizimini joriy etish. Bunday avtomatlashtirish hisob sifatini oshiradi va BRM-9 hamda BRM-12 maqsadlariga muvofiq korporativ shaffoflikni kuchaytiradi, shuningdek auditorlik xarajatlarini qisqartirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari milliy BHMS bilan MHXS 15 o‘rtasidagi kontseptual tafovutlarning NKMK kabi tog‘-kon-metallurgiya korxonalari moliyaviy hisobotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Besh bosqichli model asosidagi gipotetik tahlil daromadni ijro majburiyatlari bo‘yicha ajratib tan olish yondashuvi moliyaviy natijalarning davrlar kesimida aniqroq taqsimlanishini ta’minlashini va hisobotning xalqaro investorlar uchun ishonchliligini oshirishini tasdiqladi.

Amaliy tavsiyalar: 1) shartnomalarni ijro majburiyatlari kesimida tasniflash bo‘yicha ichki uslubiy qo‘llanma ishlab chiqish; 2) buxgalteriya xodimlarini

MHXS 15 bo‘yicha malaka oshirish tizimiga jalb etish; 3) ERP tizimlariga integratsiyalashgan avtomatlashtirilgan daromad hisobi modulini joriy etish; 4) shartnoma aktivlari va majburiyatlari bo‘yicha kengaytirilgan izohlar taqdim etish amaliyotini kuchaytirish. Bu chora-tadbirlar korxonaning moliyaviy shaffofligi, investitsiyaviy jozibadorligi va barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Kelgusi tadqiqotlar NKMKning haqiqiy moliyaviy ma’lumotlari asosida chuqurroq empirik tahlilga, shuningdek boshqa tarmoq korxonalari bilan solishtirma tahlilga qaratilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. International Accounting Standards Board. (2014). IFRS 15: Revenue from Contracts with Customers. IFRS Foundation.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5892-son Farmoni. (2019). “Buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2023). Milliy buxgalteriya hisobi standartlari (BHMS) to‘plami. Toshkent.
4. Deloitte. (2022). A Guide to IFRS 15: Revenue from Contracts with Customers. Deloitte IFRS Global Office Publication.
5. PwC. (2021). IFRS 15 for the Mining Industry: Practical Application Guide. PricewaterhouseCoopers International Limited.
6. Barth, M. E. (2020). The Future of Financial Reporting: Insights from Research. Journal of Accounting Research, 58(2), 313–349.
7. United Nations. (2015). Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. UN General Assembly Resolution A/RES/70/1.

STRUCTURAL TRANSFORMATION OF THE ELECTRICITY SECTOR IN UZBEKISTAN AND THE ROLE OF QASHQADARYO REGION: A STATISTICAL AND CORRELATION ANALYSIS

Pardayeva Maftuna Ulug'bek qizi

PhD Candidate

Tashkent state university of economics,

bmaftuna734@gmail.com

Abstract. *This article examines the structural transformation of Uzbekistan's electricity sector between 2016 and 2024, with particular attention to the position of Qashqadaryo region home to the Talimarjan Thermal Power Plant and the Hisorak Hydropower Plant within the national energy system. Using official statistical data published by the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan, the study applies descriptive statistical analysis, dynamic (time-series) analysis, structural (share) analysis and Pearson correlation analysis to assess (i) the evolution of installed generation capacity by source, (ii) the growth of solar and wind electricity production, (iii) Qashqadaryo's share in national electricity output, and (iv) the relationship between regional GDP dynamics and electricity production dynamics. The results show that the share of solar and wind capacity in the national generation mix rose from a negligible level in 2021 to 12.5% in 2024, while renewable electricity output increased more than eightyfold over the same period, indicating an accelerating energy transition.*

Keywords: *electricity generation structure; renewable energy; regional energy economics; Qashqadaryo; Uzbekistan; correlation analysis; energy-GDP nexus*

INTRODUCTION

Ensuring a stable, efficient and increasingly low-carbon electricity supply is a central element of Uzbekistan's national development strategy. Over the past decade, the country has pursued a deliberate diversification of its power generation mix away from an almost exclusive reliance on thermal power plants toward a mix that increasingly incorporates hydropower, solar photovoltaic and wind generation, in line with national decrees on the development of renewable

energy sources and the broader regional trend across Central Asia toward reducing dependence on hydrocarbon-based electricity generation[5]. At the same time, the electricity sector in Uzbekistan exhibits pronounced regional heterogeneity: individual regions differ substantially in their generation capacity, their contribution to national output, and the pace at which they participate in the ongoing energy transition. Qashqadaryo region occupies a distinctive position in this respect. It hosts two of the country's most significant generation assets the Talimarjan Thermal Power Plant, one of the largest thermal facilities in Central Asia, and the Hisorak Hydropower Plant and consequently contributes a disproportionately large share of national electricity production relative to its share of national economic output. Understanding the dynamics of this contribution, and its relationship to the region's broader economic development, is a prerequisite for designing effective regional energy policy.

Prior research on energy efficiency in Central Asia and the post-Soviet space has increasingly applied quantitative benchmarking methods most notably Data Envelopment Analysis (DEA) and related non-parametric efficiency frontiers to evaluate the performance of energy systems at the national and regional level (e.g. Ratner, 2017[6]; Pokushko & Stupina, 2019[7], among others working on DEA-based energy efficiency assessment in the CIS). Uzbek-language scholarship has begun to extend this tradition to the national context (Mirzaxalilova, 2024[8]; Akromov et al., 2022), while international agencies such as the International Energy Agency (IEA) and the World Economic Forum's Energy Transition Index (WEF ETI) provide comparative benchmarks for energy intensity and transition readiness. However, region-specific structural and correlation analysis of the electricity sector particularly for Qashqadaryo,

[5] https://energyforum.uz/en/news/green-energy-generation-in-uzbekistan-since-the-beginning-of-the-year-amounted-to-1-billion-kwh

[6] https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=2659454

[7]https://www.researchgate.net/publication/341740295_Data_Envelopment_Analysis_in_Performance_Assessment_of_Fuel_and_Energy_Complex_Enterprises

[8] Mirzaxalilova Azizaxon Alisherovna. O’zbekiston yoqilg‘i-energetika majmui korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish. PhD dissertatsion

one of Uzbekistan's principal energy-producing regions remains scarce in the peer-reviewed literature, constituting a clear research gap that this study aims to address.

The aim of this article is threefold: (1) to document the structural transformation of Uzbekistan's electricity generation capacity and output between 2016 and 2024, with emphasis on the emergence of solar and wind generation; (2) to quantify Qashqadaryo region's contribution to, and volatility within, national electricity production over the same period; and (3) to test, using correlation analysis, whether regional and national electricity production growth is statistically associated with regional and national GDP growth, thereby providing an empirical starting point for a broader investigation into the mechanism of energy resource utilisation in regional economic development.

METHODS

The study relies exclusively on official statistical indicators published by the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan , accessed through its SDMX-format open-data indicator system. The following annual indicators were used for the period 2016-2024 (unless otherwise noted): (a) total installed capacity of power plants, MW; (b) installed capacity of thermal power plants, MW; (c) installed capacity of hydropower plants, MW; (d) total volume of electricity production, million kWh; (e) volume of electricity production by solar power plants, million kWh; (f) volume of electricity production by wind power plants, million kWh; (g) volume of electricity production in Qashqadaryo region, million kWh; and (h) nominal gross regional product (GRP) of Qashqadaryo region and nominal GDP of the Republic of Uzbekistan, billion soums, for 2016-2025. Where 2025 regional and structural indicators had not yet been published in the official indicator system at the time of writing, the analysis was restricted to the latest available year, 2024, and this limitation is noted explicitly.

In article, complementary methods of analysis were applied: Descriptive statistical analysis computation of levels, absolute changes and multiplicative growth factors for capacity, production and GDP indicators over the study period. Dynamic (time-series) analysis year-on-year growth rates were calculated and compound growth over multi-year sub-periods was calculated as a growth factor. Structural (share) analysis the share of each generation source i in total capacity or production was calculated , applied separately to installed capacity (thermal, hydro, solar+wind) and to electricity production (conventional, solar, wind), and to Qashqadaryo's share of national electricity production and national GDP. Correlation analysis the Pearson product-moment correlation coefficient, $r = \Sigma(x_i-\bar{x})(y_i-\bar{y}) / \sqrt{[\Sigma(x_i-\bar{x})^2\Sigma(y_i-\bar{y})^2]}$, was used to test the linear association between (a) national year-on-year GDP growth and national year-on-year electricity production growth, (b) regional (Qashqadaryo) GDP growth and regional electricity production growth, and (c) the level of Qashqadaryo's GDP share and the level of its electricity production share across the study years.

All computations were performed on the raw published indicator values without seasonal or inflation adjustment; because gross domestic/regional product is reported in nominal (current-price) terms while electricity output is a physical quantity, this distinction is addressed explicitly when interpreting the correlation results

RESULTS

National installed electricity generation capacity increased from 14,102.1 MW in 2016 to 21,501.4 MW in 2024, a 1.52-fold increase. Throughout most of the period, thermal power plants dominated the capacity mix: their share stood at 86.67% in 2016 and remained above 85% through 2021. A pronounced structural shift occurred from 2022 onward, when the combined share of solar and wind capacity rose from near zero to 1.22% in 2023 and then sharply to 12.48% in 2024, corresponding to the commissioning of several large-scale solar

and wind facilities. The thermal share correspondingly fell to 72.94% by 2024, while the hydropower share remained comparatively stable, moving from 13.33% to 14.58% (Fig. 1, Table 1).



Fig. 1. Structure of installed electricity generation capacity in Uzbekistan, 2016-2024 (%).

Source: authors' calculation based on stat.uz data.

Kreativ yondashuv esa amaliy mashg‘ulotlarga yangi ruh olib kiradi. Bunda o‘qituvchi darsni oddiy topshiriqlar bilan cheklab qo‘ymasdan, uni hayotiy vaziyatlar, muammoli holatlar va interaktiv metodlar asosida tashkil etadi. Masalan, guruhli ishlash, “case study”, rol o‘ynash yoki muammoli vazifalar orqali talabalar faol jalb qilinadi. Natijada ular faqat bilimni qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil tahlil qiluvchi va qo‘llovchi subyektga aylanadi.[14] Shuningdek, kreativ yondashuv talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Amaliy mashg‘ulot davomida berilgan noodatiy topshiriqlar, ochiq savollar yoki muammoli vaziyatlar talabaning fikrlash doirasini kengaytiradi. Bunday jarayonda talaba tayyor javobni emas, balki o‘z yechimini izlaydi. Bu esa uning mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.[15] Bundan tashqari, amaliy mashg‘ulotlarda kreativ yondashuvni qo‘llash talabalarning faolligini oshiradi. Oddiy darslarda ko‘pincha faqat faol talabalar qatnashsa, kreativ tashkil etilgan mashg‘ulotlarda deyarli barcha talabalar jarayonga jalb etiladi. Chunki bunday darslar qiziqarli, interaktiv va erkin muhitda o‘tadi. Bu esa talabalarning o‘z fikrini bildirishdan qo‘rqmasligiga, jamoada ishlashiga va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga yordam beradi.[16]

[13] O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun”. – Toshkent, 2020.
[14] Bonwell, C., Eison, J. Active Learning: Creating Excitement in the Classroom. – Washington, 1991.
[15] Dewey, J. Experience and Education. – New York, 1938.
[16] Prince, M. Does Active Learning Work? – Journal of Engineering Education, 2004.

Yana bir muhim jihat shundaki, kreativ yondashuv o‘qituvchining o‘z ustida ishlashini ham talab qiladi. Ya’ni, har bir mashg‘ulotni yangicha tashkil etish, yangi metodlarni sinab ko‘rish va talabalarning ehtiyojidan kelib chiqib darsni rejalashtirish zarur bo‘ladi. Bu esa ta’lim jarayonining doimiy rivojlanishiga xizmat qiladi va uning sifatini oshiradi.[17] Shunday qilib, OTT doirasida amaliy mashg‘ulotlarni kreativ yondashuv asosida tashkil etish talabalarning bilimini chuqurlashtirish, ularning mustaqil va innovatsion fikrlashini rivojlantirish hamda ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, OTT sharoitida amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishda professor-o‘qituvchilarning kreativ yondashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Amaliy darslar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki ularni real vaziyatlarda qo‘llash, mustaqil fikrlash va muammo yechish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli bunday mashg‘ulotlarni oddiy, an’anaviy shaklda emas, balki zamonaviy va kreativ yondashuv asosida tashkil etish zarur. Kreativ yondashuv orqali tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotlar talabalarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol ishtirok etishga undaydi va o‘z fikrini erkin bayon qilishiga imkon yaratadi. Bunday muhitda talaba o‘zini erkin his qiladi, yangi g‘oyalar ilgari suradi va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada ta’lim jarayoni samaradorligi oshadi va o‘quv jarayoni yanada mazmunli kechadi. Kreativ yondashuv o‘qituvchidan doimiy izlanishni, yangi metodlarni qo‘llashni va darsni talabalar ehtiyojiga moslashtirishni talab etadi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifatining oshishiga va zamonaviy talablarga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Xulosa OTT doirasida amaliy mashg‘ulotlarni kreativ yondashuv asosida tashkil etish nafaqat ta’lim jarayonini faollashtiradi, balki talabalarning har tomonlama rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, ta’lim tizimida

[17] Hmelo-Silver, C. Problem-Based Learning. – Educational Psychology Review, 2004.

bunday yondashuvlarni keng joriy etish va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun”. – Toshkent, 2020.
2. Bonwell, C., Eison, J. Active Learning: Creating Excitement in the Classroom. – Washington, 1991.
3. Dewey, J. Experience and Education. – New York, 1938.
4. Prince, M. Does Active Learning Work? – Journal of Engineering Education, 2004.
5. Hmelo-Silver, C. Problem-Based Learning. – Educational Psychology Review, 2004.

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI KREATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Bobokeldiyeva Aziza Abdusamatovna

PhD, katta o‘qituvchi

bobokeldievaa@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi zamonaviy jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘la oladigan, kreativ qobiliyatli bo‘lajak tarbiyachilarni shakllantirishda duch kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish borasidagi fikr-mulohazalar bayoni keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kreativlik, qobiliyat, globallashuv, ijodkorlik, zamonaviy, yondashuv, ta’lim, tarbiyachi, yaratuvchanlik, kritik talqin, kompetentlik, indikator, sifat, interfaol, takomillashuv.*

Abstract: *This article presents a description of the problems encountered in the formation of creatively capable future educators who can take their place in today's modern society, and ideas for overcoming them.*

Keywords: *Creativity, ability, globalization, creativity, modern, approach, education, educator, creativity, critical interpretation, competence, indicator, quality, interactive, improvement.*

KIRISH

Jahonda fan va texnika rivoji jadal globallashgan bir davrda zamonaviy jamiyatda ro‘y berayotgan muammolarni bartaraf etish uchun intellektual salohiyatli, kreativ fikrlovchi va ijodkor pedagoglarga talab oshib bormoqda. Xususan, BMTning “2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari” strategiyasi hamda UNICEFning maktabgacha ta’limni rivojlantirish strategiyasida bolalarni erta yoshdan boshlab sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish, shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish darajasi asosiy indikatorlardan biri sifatida belgilangan. Bu hujjatlarda ta’lim standartlari pedagoglardan nafaqat yuqori malaka va muntazam kasbiy rivojlanishni, balki pedagogik jarayonda

ijodkorlik, ta’limiy vaziyatlarga kreativ yondashuv va interfaol metodlarni amaliyotda qo‘llashni ham talab etadi.

Zamonaviy ta’lim islohatlari davrida kreativ fikrlovchi tarbiyachilarga talab ortayotganli, o‘quv jarayonida bilim oluvchilarning yangilikka intilish qobiliyatini shakllantirish muhim vazifadir. Bugungi ta’lim-tarbiya tizimida ko‘plab yondashuv va metodlar ijodiy fikrlash, kritik talqin va tahlilga asoslangan bo‘lib, berilgan ma’lumotni to‘g‘ri tushunib, to‘g‘ri yetkazib bera olishga, zamonaviy axborotlarni umumiylashtirib, xulosa chiqara olishga qaratilgandir.

ASOSIY QISM

Kreativlik so‘zi aslida “yaratish” ma’nosini bildiradi, jamiyatdagi shaxsning yangilik yaratishi, muammolarni hal qilishga yo‘nalgan kreativ qobiliyati hisoblanadi. Kreativlikning tub mazmun-mohiyati noodatiylik, kreativ fikrlash, mustaqillik va yangilikka intilish hamda muammoli vaziyat yuzasidan keng tasavvur va dunyoqarash asnosida bir xulosaga kelishda turli yondashishni bildiradi [3;52-b].

Aslida kretivlik yuqumli xususiyatga ega bo‘lib, kreativ bo‘lish uchun ko‘proq kreativ insonlar bilan do‘stlashish, suhbatlashish va doimo izlanishda bo‘lish kerak. Shaxsda turli ko‘nikmani shakllantirish mumkun bo‘lganidek, kreativ fikrlash qobilyatini ham shakllantirish mumkin. Kreativlik bo‘lajak tarbiyachilarga ham taalluqli tushuncha bo‘lib, o‘z ustida ishlash bo‘lajak mutaxassislarga noodatiy tarzda fikrlashga, tasavvurga ega bo‘lishga ko‘maklashadi. Ammo, bo‘lajak tarbiyachilarni ruhlantirish, ularni qo‘llab-quvvatlash va kreativ bo‘lishga undash masalasi pedagogning yuqori darajada malakali bo‘lishini talab etadi. Jumladan, auditoriyadagi ilmiy muhit, bo‘lajak tarbiyachilarda fikrlash tarzining shakllanishi, “tarbiyachining yondashuvi va strategiyasini ko‘rsatadi” [6;170-171b].

Bugungi ta’lim jarayonida maktabgacha ta’limda mashg‘ulotlarini oldindan rejalashtirilishidan voz kechish, bo‘lajak tarbiyachilarda “tahliliy-

tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularda ijodkorlik, kreativ dunyoqarash, yangi innovatsion ilmlarni o‘ylab topishga undash bilim olishga” bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, tubdan yangilash ularni yutuqlarga erishishga motivatsiya berish asosiy omil hisoblanadi. “Tarbiyachi-pedagogning kreativ va ijodkor bo‘lishi yoki bo‘lmasligida emas, balki mashg‘ulotlarni zamonaviy texnologiyalar asosida olib borish, yangi innovatsion g‘oyalarni ta’lim-tarbiya jarayonida sinab ko‘rishga intilishi muhimdir”.

Bo‘lajak tarbiyachilarning kreativligini rivojlantirish hamda kompetentligini oshirish dolzarb vazifalardan biri sifatida qayd etilmoqda. Dunyoning zamonaviy innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga tarbiyachilarni tayyorlash va ularni zamon talablariga hamnafas va katta ishtiyoq bilan o‘z hissasini qo‘shish kabi ijodiy faoliyatni rivojlantirish tizimini takomillashtirish barcha oliy ta’lim muassasasi pedagoglarini muhim ta’limiy vazifalaridan biri hisoblanadi [4;555-b].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-152-son Farmoni ijrosini ta’minlash, ta’lim tizimi sifatini hamda samaradorligini oshirish yo‘lida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [1]. Xususan, pedagoglarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ilg‘or pedagogik hamda axborot texnologiyalarini joriy etish, zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va malakali mutaxassislarni o‘quv jarayoniga jalb qilish kabi yo‘nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, turli yosh guruhidagi tarbiyalanuvchilarda aqliy va kognitiv intellektual salohiyatni oshirish, jismoniy barkamollikni mustahkamlash va sog‘lom dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan integrativ ta’lim dasturlarini joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda mutaxassislar tayyorlashning

sifat darajasini, xalqaro standartlar negizida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonida zarur shart-sharoitlarni yaratish ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, bo‘lajak kreativ tarbiyachiga didaktik kompetensiya talablari ham qo‘yiladi va bu bo‘yicha quyidagilarni taklif qilamiz (1-rasm):



1-rasm. Kreativ tarbiyachining didaktik kompetensiyasi

Yuqoridagi talablar bo‘lajak tarbiyachilardan milliy va ma’naviy qarashlarga ega bo‘lish, intellektual, informatsion, motivatsion, metokognitiv, ya’ni bilish faolligi, refleksiv hamda o‘zini-o‘zi baholash malakalarini rivojlantirish zaruratini belgilaydi. Agar tarbiyachi o‘z kasbining sir-asrorlarini to‘liq egallab, ta’lim jarayonini sifatli tashkil eta olmasa va o‘z ustida mashaqqat chekib ishlamasa, u zamon talabiga mos pedagog sifatida e’tirof etilmaydi [5;5-8-b].

O‘tkazilgan tajriba-sinov davrida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari faoliyatini o‘rganish bu yo‘nalishda muayyan kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatdi:

- maktabgacha ta’lim-tarbiya tizimini sifatli yo‘lga qo‘yish, tarbiyachilarning yetarli darajada tashkiliy, pedagogik-metodik kompetensiyalarga ega emasliklari;
- malaka oshirish kurslari o‘quv rejalarini shakllantirishda tinglovchilarning ehtiyojlari inobatga olinmasligi natijasida tarbiyachilarda malaka oshirishga nisbatan motivatsiyaning pastligi

– ta’limiy mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan texnologiyalar hamda imkoniyatlardan to‘la foydalanmaslik;
– tarbiyachilarning innovatsion faoliyatga tayyor emasligi, o‘z faoliyatida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va axborot texnologiyalarini samarali qo‘llay olmasligi;
– tarbiyachilarda muloqotchanlik, diagnostik, refleksiv, tashkilotchilik ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi;
– didaktik o‘yinlar vositasida tarbiyachilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish modeli hozirgi zamon talablari asosida takomillashtirilishi;
– oliy ma’lumotli tarbiyachilarning yetarli emasligi ba’zi holatlarda mavjudlini ko‘rishimiz mumkin.

Mahorat, verbal intellekt, ijodkorlik, kasbiy yetuklik, tarbiyachi-pedagog shaxsining rivojlanish mexanizmi hisoblansa, pedagogik professionallikni kreativlik sifatida baholash mumkindir. Pedagogik tajriba va mahorat tarbiyachini kreativ shakllantirishga tayyorlash jarayonining pedagogik omili hisoblanadi [2; 825-b].

Tadqiqotimizni olib borishimiz davomida, yuqorida keltirilgan muammolarni tahlili va yechimi sifatida quyidagi bir qator vazifalarni amalga oshirish muhimligi aniqlanildi.

– malaka oshirish kurslari davomida zamonaviy va axborot texnologiyalarini qo‘llash samaradorligini yanada rivojlantirish;
– tarbiyachilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishining tashkiliy-didaktik tizimini xorij tajribasi asosida mukamallashtirish;
– kreativ tarbiyachi shaxsini shakllantirishda xorijiy yetuk mutaxassislar bilan hamkorlikda tajriba almashish tizimini takomillashtirish;
– integrativ yondashuv asosida o‘quv seminarlarini tashkil etish;
– tarbiyachilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishda ijtimoiy-madaniy, pedagogik-psixologik, me’yoriy-huquqiy ko‘nikmalarni shakllantirish;
– tarbiyachilarning malakasini oshirish kurslari mazmunini ijtimoiy, metodik

va pedagogik talablar asosida takomillashtirish va boshqalardan iborat.

Darhaqiqat, bo‘lajak tarbiyachilarni bolalar bilan ishlashda ulardagi o‘ziga xos jihatlarni shakllantirish, kreativ sifatlarni rivojlantirish, ta’limiy faoliyatlarni tashkil etish jarayonida interfaol usullardan foydalangan holda noa’nanaviy ko‘rinishlarda tashkil etish mihim jihatlardan sanaladi. Yuqoridagi talablar tarbiyachilardan milliy va ma’naviy qarashlarga ega bo‘lish, intellektual, informatsion, motivatsion, kognitiv, ya’ni bilish faolligi, refleksiv hamda o‘zini-o‘zi baholash malakalarini rivojlantirish zaruratini belgilaydi. Agar tarbiyachi o‘z kasbining sir-asrorlarini to‘liq egallab, ta’lim jarayonini sifatli tashkil eta olmasa va o‘z ustida mashaqqat chekib ishlamasa, u zamon talabiga mos pedagog sifatida e’tirof etilmaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ijodiy faoliyatni rivojlantirish - bu subyektiv va obyektiv omillar ta’siri ostida bo‘lgan murakkab va shaxsiy jarayon. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida barcha bolalar pedagoglar tomonidan shaxsiy yo‘l-yo‘riq, yordam va to‘g‘ri yo‘l-yo‘riqlarga muhtoj. Tarbiyachining bu faoliyati bolalarning ijodiy va ijtimoiy faol shaxs bo‘lishida katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Bo‘lajak tarbiyachilarda uchraydigan muammolarni bartaraf etishda, ularni tanlagan kasbiga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otish, o‘z ustida tinimsiz mehnat qilishga, bolalarni sevishga, hayotda o‘z o‘rnini topish uchun zukko, bilimli, kurashuvchan bo‘lishga motivatsiya uyg‘otish juda muhimdir. Zero, inson muvaffaqiyatga bir kunda emas, balki har kun bir qadam tashlagandagina erishadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024, 30-sentabr). *Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida* (PF-152-son Farmon). https://lex.uz/uz/docs/7128182

2. Axmadjonov, D. B. (2021). Bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish shakl va usullari. *Academic Research in Educational Sciences, 2*(4), 815–825.

3. Ne’matov, B. S. (2023). *Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish* (Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati). Termiz.

4. Qurbonov, Sh. E., & Saytxalilov, Ye. (2006). *Ta’lim sifatini boshqarish*. Turon-Iqbol.
5. Uzaydullayev, Sh. Sh. (2024). *Milliy innovatsion tizimning iqtisodiy barqaror rivojlanishida oliy ta’lim va fani yutuqlarining roli* (Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati). Samarqand.
6. Saidg‘aniyeva, S., Abdullayyeva, Sh., & Abduqunduzov, I. (2022). Kreativlik pedagogik faoliyatni rivojlantirishning asosiy omili sifatida. *Scientific Progress Scientific Journal*, 170–171.

ENHANCING THE METHODOLOGY OF USING ELECTRONIC LEARNING RESOURCES IN TEACHING STUDENTS AT TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Masharipov Rustambay Salayevich

UrSU named after Abu Rayhan Beruniy, head teacher,

rustam12.11.1971@gmail.ru

Abstract: *This study investigates the improvement of methodologies for utilizing electronic learning resources (ELRs) in the education of students at technical higher education institutions. Focusing on technical universities, the research analyzes current practices, identifies challenges, and proposes enhanced approaches for optimizing ELR integration to boost students' academic performance and engagement in technical mechanics-related courses.*

Keywords: *electronic learning resources, artificial intelligence, education, digital transformation, adaptive learning, individualization, pedagogical technologies, data security, role of the teacher.*

INTRODUCTION

The digitization of education has led to a noticeable shift in pedagogical practices worldwide (Garrison & Vaughan, 2008). Electronic Learning Resources (ELRs), encompassing a wide range of digital materials such as interactive simulations, video lectures, and e-textbooks, have the potential to transform the educational experiences of students, especially within technical higher education institutions (Al-Fadhli & Al-Waili, 2020). However, the mere availability of ELRs does not guarantee their effective application, as pedagogical approaches and methodological frameworks significantly influence learning outcomes (Laurillard, 2012).

In the field of technical mechanics, where conceptual understanding and practical application are critical, integrating ELRs with a well-designed methodology is crucial. This dissertation addresses the gap in methodology by

investigating current practices in technical universities and proposing enhancements grounded in pedagogical theory and practical requirements.

Literature Review. Electronic Learning Resources in Higher Education

The proliferation of ELRs has led educational institutions to rethink traditional instruction (Anderson, 2008). ELRs offer flexibility, interactivity, and access to up-to-date content, which are vital in technical education environments (Johnson et al., 2016). Despite these advantages, studies reveal challenges such as digital divide issues, lack of digital literacy among educators, and inadequate methodological support for ELR integration (Selwyn, 2016).

Pedagogical Theories Supporting ELR Use. Constructivist learning theories emphasize active engagement, where learners construct knowledge through interaction with educational materials (Piaget, 1973). Laurillard's conversational framework (2012) highlights dialogue between learners and tutors, facilitated by ELRs, as key to effective learning. Applying these theories to technical mechanics requires specific methodological adaptations to balance theory and practice digitally.

Challenges and Solutions in Technical Education. Research in technical education stresses that the abstract nature of subjects like mechanics necessitates visual and interactive ELRs to enhance comprehension (Mayer, 2009). Moreover, empirical studies indicate that educator readiness and institutional infrastructure critically affect ELR effectiveness (Kirkwood & Price, 2014).

Research Objectives. To assess existing methodologies of ELR usage in technical mechanics courses at technical universities.

- To identify barriers to effective ELR integration from student and educator perspectives.

- To develop and implement an improved methodological framework for ELR utilization.

- To evaluate the impact of the enhanced methodology on student engagement and academic performance.

METHODOLOGY

The mixed-methods approach was adopted, involving:

- Quantitative surveys administered to 150 students and 30 faculty members across three technical universities.

- Qualitative semi-structured interviews with 15 educators to gain insights on ELR integration challenges.

- Observational analysis of classroom practices and ELR usage.

- The design and pilot implementation of a methodological intervention model emphasizing interactive, scaffolded ELR incorporation aligned with curriculum goals.

- Pre- and post-test assessments evaluating student learning outcomes.

Data was analyzed via SPSS for statistical significance ($p < 0.05$), and thematic analysis was applied to qualitative data.

RESULTS

The study findings included:

- A significant positive correlation ($r = 0.65$, $p < 0.01$) between structured ELR use and student exam performance.

- Enhanced student motivation and self-regulated learning capabilities post-intervention, as reported in surveys.

- Identification of key obstacles: insufficient training for educators (73%), limited access to reliable technology (48%), and lack of interactive content (61%).

- Educators rated the new methodological model highly for clarity and applicability (mean rating 4.5/5).

DISCUSSION

This research confirms the theoretical and practical imperative of refined ELR methodologies. Aligning with Garrison and Vaughan’s blended learning

model (2008), the intervention bridged face-to-face and digital modalities effectively. The findings corroborate Kirkwood & Price (2014) on educator readiness as a pivotal factor and support Mayer's (2009) emphasis on multimedia learning principles.

The study indicates that technical mechanics education benefits from ELRs that not only deliver content but actively engage students through interactivity and scaffolded support, enhancing conceptual grasp and practical skills. Investment in educator training and infrastructural improvements was identified as critical for sustainable integration.

CONCLUSION

The proposed methodological improvements significantly enhance ELR utilization efficacy in technical higher education, particularly within technical mechanics courses. By addressing pedagogical design, educator competence, and technological accessibility, the study contributes a validated framework for digital pedagogy advancement in technical domains.

REFERENCES.

1. Anderson, T. (2008). The Theory and Practice of Online Learning. Athabasca University Press.
2. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2008). Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. Jossey-Bass.
3. Johnson, L., Adams Becker, S., Estrada, V., & Freeman, A. (2016). NMC Horizon Report: 2016 Higher Education Edition. The New Media Consortium.
4. Kirkwood, A., & Price, L. (2014). Technology-enhanced learning and teaching in higher education: what is 'enhanced' and how do we know? Computers & Education, 68, 390-395. https://doi.org/10.1016/j.compedu.2013.07.012
5. Laurillard, D. (2012). Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology. Routledge.
6. Mayer, R. E. (2009). Multimedia Learning (2nd ed.). Cambridge University Press.
7. Piaget, J. (1973). To Understand is to Invent: The Future of Education. Grossman.
8. Selwyn, N. (2016). Education and Technology: Key Issues and Debates (2nd ed.). Bloomsbury Academic.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI KASBIY MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURIYATI

Zikirova Nodira Yo‘ldoshevna Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Pedagogika va o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchi
zikirovanodira95@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati, jamiyatda boshlang‘ich ta’limning sifatini oshirish, pedagogik professionallikni takomillashtirish shart-sharoitlari tadqiq qilingan. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy motivatsiyaning shakllanishidagi kasbiy kompetensiyalari rivojlanishi va metodik tayyorgarligi nazariy va umumiy jihatlari ilmiy asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy motivatsiya, kasbiy kompetensiya, pedagogik professionallik, metodik, komponent, innovatsion faoliyat.*

Annotation:*In this article, the socio-pedagogical necessity of forming the professional motivation of future primary school teachers, the conditions for improving the quality of primary education in society, and improving pedagogical professionalism have been researched. The theoretical and general aspects of the development of professional competences and methodical training in the formation of professional motivation of future teachers are scientifically based.*

Key words: *professional motivation, professional competence, pedagogical professionalism, methodical, component, innovative activity.*

Аннотация: *В данной статье исследованы социально-педагогическая необходимость формирования профессиональной мотивации будущих учителей начальных классов, условия повышения качества начального образования в обществе, повышения педагогического профессионализма. Научно обоснованы теоретические и общие аспекты развития профессиональных компетенций и методической подготовки в формировании профессиональной мотивации будущих учителей.*

Ключевые слова: *профессиональная мотивация, профессиональная компетентность, педагогический профессионализм, методический, компонент, инновационная деятельность.*

KIRISH

Jamiyat rivojlanishining asosiy manbai hisoblangan intellektual kapitalga qo‘yilgan sarmoyalar uzoq muddatli va barqaror iqtisodiy-ijtimoiy samara beradi. Bunday sharoitda ta’limning sifati shaxsning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari, madaniyatning umumiy darajasi, sanoatda, ishlab chiqarishda yangi usul va yo‘nalishlarni topa oladigan nostandart, kreativ tafakkur, yangi sohalarning vujudga kelishi bilan bog‘liq malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish, shuningdek, ta’limning sifat va samaradorligini ta’minlashning asosiy omili bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish darajasi bilan o‘lchanadi.

Ta’lim, kasbiy bilim va ko‘nikmalar, umumiy va maxsus qobiliyatlar, ijtimoiy ahamiyatga ega muhim fazilatlar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning asosiy negizini tashkil etadi. Shaxsiy xususiyatlar insonning rivojlanish sur’ati va darajasiga ham inson sifatida, ham mutaxassis sifatida ta’sir qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchining yetakchi shaxsiy xususiyatlariga uning munosabatlari, motivlari, aql-zakovati, hissiy-irodaviy doirasi kiradi. Ular bilvosita shaxsning rivojlanishiga ta’sir qiladi va asosan kasbiy rivojlanishni belgilaydi. Shaxsning kasbiy yutuqlari darajasi ham individual xususiyatlar, ham shaxsiy xususiyatlar bilan belgilanadi. Ilmiy manbalarning empirik tahlili bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy xususiyatlari quyidagilardan iborat ekanligini ko‘rsatdi: akmeologik mavqe, yutuqlar uchun barqaror motivatsiya, moslashuvchan va moslashtirilmagan faoliyat, muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat tajribasi, yuqori ish qobiliyati, mas’uliyat, o‘z yutuqlarini boshqa xodimlar uchun odatiy holga aylantirish istagi, iroda va dam olish qobiliyati, kasbiy maqsadga erishish uchun barqaror istak va o‘zini o‘zi takomillashtirish.

Ko‘rinib turibdiki, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirish unda nafaqat kasbiy bilimlarning kerakli darajasini, balki, psixologik tayyorgarlikni, o‘zini o‘zi va o‘quv-tarbiya jarayonini boshqarish, o‘zini kerakli faoliyatga yo‘naltirish, kasbiy, ma’naviy, jismoniy va shaxsiy imkoniyatlarini kerakli sharoitda qo‘yilgan masalani hal etishga to‘g‘ri yo‘naltira olish kabi kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyatini asoslash masalalariga turli nuqtai nazardan yondashish mumkin:

Birinchidan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kasbiy motivatsiyasining ijtimoiy ahamiyati.

Jamiyatda boshlang‘ich ta'limning sifatini oshirish. Kasbiy motivatsiya – bu boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik faoliyatga, o‘quvchilarni tarbiyalash va ta’lim berish jarayoniga qiziqishini oshirish va unga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashda asosiy omildir. Kasbiy motivatsiyaning shakllanishi jamiyatda boshlang‘ich ta’limning sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu pedagogning o‘z kasbiga bo‘lgan hurmatini oshirishga va uning professional o‘sishiga yordam beradi.

Ta’lim tizimi va ijtimoiy ehtiyojlar: kasbiy motivatsiya yuqori bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z ishiga ko‘proq mas'uliyat bilan yondashadi va ta'limda innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga tayyor bo‘ladi. Bu esa jamiyatning ma'naviy va intellektual rivojlanishiga yordam beradi.

Pedagogik professionallikni oshirish: bugungi kunda boshlang‘ich ta'lim o‘qituvchilaridan faqat bilim berish emas, balki, o‘quvchilarni tarbiyalashda, ularning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishida ham faol ishtirok etish talab etiladi. Bu esa o‘qituvchining kasbiy motivatsiyasini yanada mustahkamlashni taqozo etadi.

Ta’lim tizimida islohotlar va yangi talablarga javob berish: yangi pedagogik yondashuvlar va metodologiyalarni qo‘llash, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish kabi yangi talablar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy motivatsiyasiga bevosita ta'sir qiladi. Bu jarayon o‘qituvchini o‘zining professional darajasini doimiy ravishda oshirishga undaydi.

Sifatli ta’lim va jamiyat ehtiyojlari: kasbiy motivatsiyasi yuqori bo‘lgan o‘qituvchisi o‘z faoliyatini samarali tarzda amalga oshira, bu esa umumiy ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Xususan, boshlang‘ich ta'limda o‘quvchilarni yangi bilimlar va ko‘nikmalarga o‘rgatish uchun o‘qituvchilarni kasbiy jihatdan rag‘batlantirish zarur.

Ikkinchidan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy motivatsiyasini shakllantirish metodikasini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati.

Metodikalarning samaradorligini oshirish: o‘qituvchilarni kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning samarali metodikalari, ayniqsa, boshlang‘ich ta'lim tizimida o‘qituvchilarning ishlash faoliyatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Bu metodikalar talabalarni kasbiy muvaffaqiyatga undashda, ularning o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan istaklarini kuchaytirishga yordam beradi.

Innovatsion yondashuvlar: ta’lim tizimiga yangi metodlar, texnologiyalar va pedagogik yondashuvlarni joriy etish kasbiy motivatsiyani rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan asosiy omillardan biridir. Bu jarayonning samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va motivatsiyasi yuqori bo‘lishi kerak.

O‘qituvchilarni psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash: bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda psixologik yondashuvlar va pedagogik maslahatlar orqali ularning ichki motivatsiyasini

oshirish zarur. Bu o‘qituvchilarning o‘z ishlariga bo‘lgan ishtiyoqini va mas'uliyatini oshiradi.

Uchinchidan, jamiyat va ta'lim tizimi hamda kasbiy motivatsiya o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar.

O‘qituvchilar va jamiyat o‘rtasidagi aloqalar: jamiyatda boshlang‘ich ta’limning ahamiyati ortib borishi bilan o‘qituvchining kasbiy motivatsiyasi ham rivojlanadi. Jamiyatning ta'limga bo‘lgan ehtiyoji o‘qituvchilarni o‘z kasbiga bo‘lgan motivatsiyasini mustahkamlashda, shuningdek, o‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashishda muhim rol o‘ynaydi.

Pedagogik islohotlar: kasbiy motivatsiyaning shakllanishi, ayniqsa, pedagogik islohotlar doirasida o‘qituvchilarga yangi maqsadlar va vazifalar yuklaydi, bu esa ularning motivatsiyasini kuchaytiradi.

To‘rtinchidan, kasbiy motivatsiya shakllanishining ta’lim tizimining barqarorligiga ta'siri.

Ta’lim tizimining barqarorligi: kasbiy motivatsiyasi yuqori bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ta'lim tizimini barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi, bu esa o‘z navbatida jamiyatning ilg‘or rivojlanishiga olib keladi.

Sifatli ta’lim va kelajak avlod: o‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini oshirish orqali sifatli ta'lim berish imkoni oshadi, bu esa jamiyatning intellektual va ma'naviy salohiyatini oshiradi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, xulosa qilish mumkinki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy motivatsiyasini shakllantirish metodikasini takomillashtirish — ijtimoiy-pedagogik zaruriyat, chunki bu jarayon nafaqat ta'lim tizimining samaradorligini, balki jamiyatning ta'limga bo‘lgan ehtiyojlarini, o‘quvchilarning sifatli bilim olish imkoniyatlarini ta'minlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun 2020-yil 23.09
2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini

ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qarori
3.Eshonqulova G.A. Tashqi va ichki motivatsiyalarning yoshga bog‘liqligi // Ta`lim sifati yangi O‘zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili. 369-371-b.
4. Yo‘ldoshevna, Z. N. . (2023). The Role of Innovative Technologies in the Development of Methodical Training of Teachers in General Secondary Educational Institutions. European journal of innovation in nonformal education, 3(4), 95–98. Retrieved from

OLIY TA'LIMDA BO'LAJAK PEDAGOGLARDA GENDER MADANIYATI KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Mo'ydinova Xulkar Kamoldin qizi

Andijon davlat pedagogika instituti 2-kurs tayanch doktoranti, Orcid: 0009-0004-6695-0583, e-mail: muydinova955@gmail.com,

UDK:316.346.2:37

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak pedagoglarda gender madaniyati kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari hamda uning ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda gender madaniyati tushunchasining pedagogik mazmuni tahlil qilinib, uni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar va samarali pedagogik yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, oliy ta'lim jarayonida gender tengligi tamoyillarini qaror toptirish, talabalarda teng huquq va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni rivojlantirishning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot nazariy tahlil, ilmiy adabiyotlarni o'rganish hamda normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish metodlari asosida amalga oshirilgan. Natijalar gender madaniyati kompetensiyasini rivojlantirish bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini mustahkamlash, ta'lim jarayonida xolis va inklyuziv muhitni shakllantirish hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qilishini ko'rsatadi.*

Kalit so'z: *gender madaniyati, gender kompetensiyasi, bo'lajak pedagog, oliy ta'lim, gender tengligi, ta'lim sifati, inklyuziv ta'lim, barqaror rivojlanish, pedagogik yondashuv, kasbiy kompetensiya.*

Abstract: *This article discusses the theoretical foundations of developing gender culture competence in future teachers studying in higher education institutions and its importance in improving the quality of education. The study analyzes the pedagogical content of the concept of gender culture, considers the factors influencing its formation, and effective pedagogical approaches. The importance of establishing principles of gender equality in higher education and developing relationships based on equal rights and mutual respect among students is also justified. The study was conducted using theoretical analysis, a study of scientific literature, and the analysis of regulatory and legal documents. The results show*

that the development of gender culture competence strengthens the professional competence of future teachers, creates an impartial and inclusive environment in the educational process, and serves to achieve the Sustainable Development Goals. ***Keywords:*** *gender culture, gender competence, future teacher, higher education, gender equality, quality of education, inclusive education, sustainable development, pedagogical approach, professional competence.*

Аннотация: *В статье рассматриваются теоретические основы развития гендерной культурной компетентности у будущих педагогов, обучающихся в высших учебных заведениях, и ее значение в повышении качества образования. В исследовании проанализировано педагогическое содержание понятия гендерной культуры, рассмотрены факторы, влияющие на ее формирование, и эффективные педагогические подходы. Также обосновывается важность утверждения принципов гендерного равенства в высшем образовании и развития у студентов отношений, основанных на равенстве и взаимном уважении. Исследование проводилось на основе методов теоретического анализа, изучения научной литературы и анализа нормативных правовых документов. Результаты показывают, что развитие гендерной культурной компетентности способствует укреплению профессиональной компетентности будущих педагогов, формированию объективной и инклюзивной среды в образовательном процессе и достижению целей устойчивого развития.*

Ключевые слова: *гендерная культура, гендерная компетентность, будущий педагог, высшее образование, гендерное равенство, качество образования, инклюзивное образование, устойчивое развитие, педагогический подход, профессиональная компетентность.*

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan globallashuv, raqamlashtirish va ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishi ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Zamonaviy ta’lim nafaqat malakali mutaxassislarni tayyorlash, balki yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga, demokratik qadriyatlarga va ijtimoiy mas'uliyatga ega shaxslarni tarbiyalashni ham nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak pedagoglarda gender madaniyati kompetensiyasini rivojlantirish oliy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Gender madaniyati shaxsning gender tengligi, o‘zaro hurmat, adolat va inson huquqlariga oid bilim, qadriyat va xulq-atvorini ifodalaydi. Pedagogning

gender madaniyatiga ega bo‘lishi ta’lim jarayonida barcha talabalarga teng munosabatda bo‘lish, stereotiplardan xoli yondashuvni qo‘llash hamda inklyuziv ta’lim muhitini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bo‘lajak pedagoglar oliy ta’lim davridayoq ushbu kompetensiyani egallashlari ularning kelgusidagi kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ham gender tengligini ta’minlash va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonun hamda «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun oliy ta’lim tizimida teng imkoniyatlarni yaratish va bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalarida gender madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, samarali pedagogik yondashuvlarni aniqlash hamda ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish zarurati mavjud. Bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot sifatli tadqiqot yondashuvi asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida bo‘lajak pedagoglarda gender madaniyati kompetensiyasini rivojlantirishga oid ilmiy-nazariy manbalar, xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari hamda O‘zbekiston Respublikasining ta’lim va gender tengligiga oid normativ-huquqiy hujjatlari tahlil qilindi.

Tadqiqotning metodologik asosini pedagogik, psixologik va sotsiologik yondashuvlar tashkil etdi. Gender madaniyatining mazmun-mohiyati, uning bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni hamda ta’lim sifati bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash maqsadida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tavsifiy tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida gender madaniyati, gender tengligi, inklyuziv ta’lim va pedagogik kompetensiyaga oid mahalliy hamda xorijiy tadqiqotlar o‘rganildi. Xususan, UNESCO va Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan hujjatlar, Barqaror rivojlanish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida»gi hamda «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunlari metodologik manba sifatida xizmat qildi.

Qiyosiy tahlil yordamida xalqaro tajribada gender madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar bilan mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlar o‘zaro taqqoslandi. Tavsifiy va umumlashtirish metodlari orqali olingan ilmiy qarashlar tizimlashtirilib, bo‘lajak pedagoglarda gender madaniyati kompetensiyasini rivojlantirishning samarali pedagogik yondashuvlari aniqlandi.

Mazkur tadqiqot empirik ma’lumotlarga emas, balki ilmiy adabiyotlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlarning nazariy tahliliga asoslanganligi bilan tavsiflanadi. Shu sababli maqolada keltirilgan xulosalar mavjud ilmiy manbalarni qiyosiy o‘rganish va tahlil qilish natijasida shakllantirildi.

Adabiyotlar natijalari

Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari hamda milliy normativ-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, gender madaniyati bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini shakllantiruvchi muhim tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi. Gender madaniyati rivojlangan pedagog ta’lim jarayonida barcha talabalarga teng munosabatda bo‘lish, ularning huquq va manfaatlarini hurmat qilish hamda diskriminatsion holatlarning oldini olishga xizmat qiladigan kasbiy yondashuvni namoyon etadi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, oliy ta’lim muassasalarida gender madaniyatiga oid bilim va ko‘nikmalarni pedagogika, psixologiya hamda mutaxassislik fanlari mazmuniga integratsiya qilish bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini yanada takomillashtiradi. Genderga oid mavzularning

o‘quv mashg‘ulotlariga kiritilishi talabalarda tanqidiy fikrlash, bag‘rikenglik, ijtimoiy mas'uliyat va tenglik tamoyillariga asoslangan kasbiy pozitsiyani shakllantirishga yordam beradi.

Shuningdek, ilmiy manbalar tahlili interfaol ta’lim metodlari gender madaniyati kompetensiyasini rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish (case study), munozaralar, guruhli ishlash, rolli o‘yinlar va refleksiya usullaridan foydalanish talabalarning gender tengligi masalalariga ongli va xolis yondashuvini rivojlantiradi. Mazkur metodlar nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlar bilan bog‘lash imkonini beradi.

Raqamli ta’lim texnologiyalaridan oqilona foydalanish ham gender madaniyatini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Elektron ta’lim platformalari, masofaviy ta’lim vositalari va raqamli o‘quv resurslari orqali talabalarning gender tengligi, inson huquqlari va inklyuziv ta’limga oid bilimlarini mustaqil ravishda boyitish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, pedagoglar raqamli axborotlardan foydalanishda xolislik va tanqidiy yondashuv tamoyillariga amal qilishlari zarurligi ham muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

Tahlil natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, gender madaniyati kompetensiyasini rivojlantirish ta’lim sifati bilan bevosita bog‘liq. Gender jihatdan xolis pedagogik muhit talabalar o‘rtasida o‘zaro hurmat, ishonch va hamkorlikni mustahkamlaydi, bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada bo‘lajak pedagoglarda kasbiy mas'uliyat, kommunikativ kompetensiya hamda pedagogik faoliyatni adolat tamoyillari asosida tashkil etish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida gender madaniyati kompetensiyasini izchil rivojlantirish bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim omillardan biri ekanligini ko‘rsatdi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari bo‘lajak pedagoglarda gender madaniyati kompetensiyasini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Zamonaviy pedagog nafaqat o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishi, balki ta’lim jarayonini insonparvarlik, tenglik va xolislik tamoyillari asosida tashkil eta olishi ham zarur. Shu nuqtai nazardan gender madaniyati pedagogning kasbiy kompetensiyasini belgilovchi muhim tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot davomida o‘rganilgan manbalar oliy ta’lim muassasalarida gender madaniyatini rivojlantirish alohida fan doirasida emas, balki pedagogika, psixologiya va mutaxassislik fanlari bilan integratsiyalashgan holda tashkil etilganda yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar tahlili, guruhli munozaralar va refleksiya mashg‘ulotlari talabalarning gender masalalariga nisbatan tanqidiy va xolis fikrlashini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda raqamli ta’lim texnologiyalarining keng joriy etilishi ham gender madaniyati kompetensiyasini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Elektron ta’lim platformalari, masofaviy ta’lim tizimlari va raqamli o‘quv resurslari orqali talabalarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlari kengaymoqda. Biroq ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish pedagoglardan axborotlarni tanqidiy tahlil qilish, ishonchli manbalarni tanlash va gender stereotiplarining oldini olishga qaratilgan yondashuvni talab etadi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ham gender tengligi va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bo‘lajak pedagoglarda gender madaniyati kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha o‘quv dasturlarini takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kengroq joriy etish hamda professor-o‘qituvchilarning bu boradagi malakasini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari va ilmiy manbalar tahlili oliy ta’lim muassasalarida gender madaniyati kompetensiyasini rivojlantirish bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish va jamiyatda gender tengligi tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

XULOSA

Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarda gender madaniyati kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Chunki gender madaniyatiga ega pedagog ta’lim jarayonini tenglik, adolat va o‘zaro hurmat tamoyillari asosida tashkil etishga, har bir talabaning shaxsiy imkoniyatlarini xolis baholashga hamda inklyuziv ta’lim muhitini yaratishga qodir bo‘ladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari gender madaniyatini rivojlantirishda interfaol pedagogik metodlar, muammoli vaziyatlar tahlili, guruhli munozaralar hamda raqamli ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Ushbu yondashuvlar bo‘lajak pedagoglarning nazariy bilimlarini amaliy kompetensiyalar bilan uyg‘unlashtirishga imkon yaratadi.

Kelgusida ushbu yo‘nalishda empirik tadqiqotlar o‘tkazish, bo‘lajak pedagoglarning gender madaniyati kompetensiyasini baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda uni rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalarini amaliyotda sinovdan o‘tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ainscow, M. (2020). Promoting inclusion and equity in education: Lessons from international experiences. *Nordic Journal of Studies in Educational Policy, 6*(1), 7–16. https://doi.org/10.1080/20020317.2020.1729587
2. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2023). *Education at a glance 2023: OECD indicators*. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/e13bef63-en
3. Samuel, N., CohenMiller, A., Anand, A., Rakisheva, A., & Saniyazova, A. (2025). Exploring gender equity in higher education pedagogy: A co-constructed comparative case study of Kazakhstan and India. *Nordic Journal of Comparative and International Education, 9*(2). https://doi.org/10.7577/njcie.5968
4. UNESCO. (2023). *Global education monitoring report 2023: Technology in education – A tool on whose terms?* UNESCO Publishing.
5. UNESCO. (2025). *2025 Gender Report: Women lead for learning*. UNESCO Global

Education Monitoring Report.
6. UNESCO. (2025). *Empowering teachers for gender equality: UNESCO supports review of teacher education in Uzbekistan*.
7. United Nations. (2015). *Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. United Nations.
Annotatsiya: *Maqolada XX asr qoraqalpoq nasri va she'riyatida qishloq makonining poetikasi va semantikasi o'rganilgan. T.Qayipbergenov, J.Aymurzayev, I.Yusupovlarning asarlari asosida ovulning an'anaviy turmush tarzi, marosimlari va moddiy dunyosi shunchaki etnografik fon bo'lmay, ma'no hosil qiluvchi xronotopga aylanishi ko'rib chiqiladi. Muallif qoraqalpoq adabiyotida ovul olamning milliy manzarasining makon-zamon ekvivalenti sifatida namoyon bo'lishini isbotlaydi. Asarda ovul tasvirining evolyutsiyasi aks ettirilgan: 1920-1950-yillardagi ijtimoiy va mafkuraviy kelishmovchiliklar zonasidan asrimizning so'nggi uchdan bir qismida xotira va axloqiy yo'nalishning qadriyat oroligacha.*

Kalit so'zlar: *Qoraqalpoq adabiyoti, xronotop, qishloq hayoti, etnopoetika, To'lepbergen Qayipbergenov, folklor, milliylik, Ibroyim Yusupov.*

Аннотация: *В статье исследуется поэтика и семантика аульного пространства в каракалпакской прозе и поэзии XX столетия. На материале произведений Т. Кайыпбергенова, Ж. Аймурзаева и И.Юсупова рассматривается, каким образом традиционный быт, обрядовая практика и вещный мир аула перестают быть лишь этнографическим фоном и превращаются в смыслообразующий хронотоп. Автор доказывает, что аул в каракалпакской словесности выступает пространственно-временным эквивалентом национальной картины мира. В работе отслежена эволюция репрезентации аула: от зоны социального и идеологического разлома в 1920–1950-х годах до ценностного островка памяти и нравственного ориентира в последней трети века.*

Ключевые слова: *каракалпакская литература, хронотоп, быт аула, этнопоэтика, Толепберген Кайыпбергенов, фольклоризм, национальная идентичность, Ибрайым Юсупов.*

Abstract: *The article examines the poetics and semantics of rural space in 20th-century Karakalpak prose and poetry. Based on the works of T. Kaipbergenov, J. Aymurzaev, and I. Yusupov, it is considered how the traditional way of life, ritual practices, and the material world of the aul cease to be merely an ethnographic background and transform into a meaning-forming chronotope. The author proves that the aul in Karakalpak literature acts as a spatial-temporal equivalent of the national picture of the world. The work reflects the evolution of the representation of the aul: from a zone of social and ideological discord in the 1920s–1950s to a value island of memory and moral orientation in the last third of the century.*

Keywords: *Karakalpak literature, chronotope, village life, ethnopoetics, Tolepbergen Kayipbergenov, folklore, national identity, Ibrayim Yusupov.*

ВВЕДЕНИЕ

Проблема организации художественного пространства в литературах Центральной Азии XX века неразрывно связана с поиском форм национальной саморефлексии. Для каракалпакской литературоведческой традиции этот вопрос носит особый характер: младописьменный статус литературы, совпавший с бурными историческими трансформациями прошлого века, заставил авторов искать устойчивую смысловую опору. Таковой опорой — и пространственной, и ментальной — стал аул.

Восприятие аула как простого места действия давно исчерпало себя в науке. Когда мы открываем произведения Тлепбергенова Каипбергенова или Жолмурзы Аймурзаева, мы сталкиваемся с тем, что М. М. Бахтин называл «освоением реального исторического времени и пространства». Аул здесь — это замкнутый, но одновременно открытый в вечность микрокосм. Через устройство юрты, иерархию трапезы, ритм сезонных перекочевок вдоль Амударьи и звук кобыза каракалпакские писатели выстраивали собственную концепцию человека.

Цель настоящего исследования — проследить, как этнографическая реальность аульного быта трансформировалась в поэтический язык каракалпакской литературы XX века и как менялась семантика этого пространства под давлением исторических эпох.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Методология работы строится на стыке историко-литературного, структурно-семиотического и сравнительно-поэтического анализа.

Материалом исследования послужили романистика Т. Каипбергенова («Дочь Каракалпакии», трилогия «Дастан о каракалпаках»), проза Ж. Аймурзаева («Прощай, мама!»), а также поэтические циклы И. Юсупова.

В качестве теоретической базы используются фундаментальные труды М. М. Бахтина по теории хронотопа, а также работы ведущих исследователей восточных литератур и фольклора (М. К. Нурмухамедова, К. Мамбетова, П. Шермухамедова). Поэтика этнографической детали анализируется через призму семиотики культуры, где предметы материального быта трактуются как знаки культурного кода.

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Анализ художественных текстов показывает, что пространство аула в каракалпакской литературе XX века функционирует на нескольких взаимосвязанных уровнях, формируя целостную этнопоэтическую систему.

Архитектоника аульного хронотопа: от юрты к дельте

Семантика аульного пространства строится на строгой оппозиции внутреннего (своего, защищенного) и внешнего (чужого, стихийного) миров.

Центральной точкой этого пространства выступает *каракалпак уй* (традиционная юрта). В романах Т. Каипбергенова описание юрты никогда не бывает статичным: это сакральный центр. Пространство внутри юрты четко семантизировано:

- **Төр** (почетное место напротив входа) — зона аксакалов, гостей и хранения родовых реликвий. Оно символизирует связь с предками и преемственность традиции.

- **Очаг (ошак)** — энергетический и нравственный центр дома. Затухание или осквернение очага в сюжете всегда предвещает трагедию рода.

Выходя за пределы юрты, хронотоп аула расширяется до пределов дельты Амударьи и Приаралья. Но важнее другое: время внутри этого пространства течет циклически. Подчиняясь сельскохозяйственным работам, скотоводческому календарю и смене сезонов, сюжетика приобретает неторопливый, эпический характер, роднящий прозу с народными дастанами.

Вещный мир как инструмент психологизма

Каракалпакские прозаики XX века овеществляют переживания героев через детали быта. Предметная среда аула выполняет не декоративную, а психологическую функцию:

- **Костюмный код:** Описание *саукеле* (головного убора невесты) или *жегде* (накидки) в «Дочери Каракалпакии» — это не просто дань этнографии. Изменение деталей одежды маркирует социальный статус, взросление или внутренний надлом героини.
- **Ритуал дастархана:** Совместное чаепитие или подача традиционного бешбармака в текстах Ж. Аймурзаева выступают механизмом снятия социальных конфликтов. Отказ от угощения или нарушение этикета трапезы воспринимается персонажами как разрыв социальных связей.

Голос аула: фольклорно-обрядовая ткань

Аульное пространство в литературе невозможно представить в «тишине». Оно наполнено звучанием фольклорных жанров:

- **Исполнительская традиция:** Появление в ауле *жырау* или *баксы* меняет ход сюжетного времени. Звучание кобыза или дутара останавливает бытовую суету, перенося персонажей из повседневности в пространство исторической памяти.

- **Обрядовый фольклор:** Вплетение в ткань романа обрядовых песен — будь то свадебные плачи (*сыңсу*) или поминальные причитания (*жоқтау*) — позволяет авторам выходить от индивидуальной драмы конкретного героя к общенародному звучанию.

ОБСУЖДЕНИЕ

Сопоставление произведений разных десятилетий показывает, что образ аула в каракалпакской словесности не оставался застывшим. Он претерпел существенную эволюцию, отразившую сдвиги в самом национальном сознании.

1920–1950-е гг. 1960–1980-е гг.

Аул как объект социальных реформ --> Аул как субъект духовной памяти

(Конфликт старого и нового быта) (Оплот экологии и этики)

В литературе 1920–1950-х годов аул изображался через призму острого социального конфликта. Писатели ставили в центр сюжетной интриги слом патриархального уклада: раскрепощение женщин, ликвидацию безграмотности, борьбу с «родовыми пережитками». Аул в этот период показан как пространство, требующее обновления, хотя даже тогда в нем сохранялась эстетическая привлекательность народного быта.

Однако к 1960–1980-м годам (особенно в трилогии Т. Каипбергенова «Дастан о каракалпаках» и философской лирике И. Юсупова) вектор кардинально меняется. На фоне стремительной урбанизации и экологических проблем Аральского региона аул начинает восприниматься уже не как «отсталая окраина», а как главный источник нравственной чистоты, экологического равновесия и национальной самобытности. Он превращается в философему — место, где человек сохраняет гармонию с природой и историческими корнями.

Интересно сравнить эту тенденцию с деревенской прозой в русской литературе (В. Распутин, В. Белов) или казахским романом (М. Ауэзов, А.

Нурпеисов). Каипбергенов и его современники, по сути, решали ту же задачу: они спасали уходящий мир традиционной культуры, консервируя его в слове. Но каракалпакская специфичность проявилась в том, что аульный быт сохранил невероятно высокую степень органической связи с фольклорно-эпическим мышлением.

ВЫВОДЫ

1. Быт и традиции аула в каракалпакской литературе XX века представляют собой не внешнее обрамление сюжета, а структурообразующий фактор художественного пространства (хронотопа).

2. Предметно-вещный мир, топография юрты и семейно-бытовые ритуалы функционируют как сложно организованный язык, передающий психологическое состояние персонажей и этические ценности народа.

3. В течение XX века образ аула прошел путь от объекта социальной трансформации до статуса главного хранителя национальной картины мира, став для каракалпакской литературы экзистенциальной точкой отсчета.

ЛИТЕРАТУРА

1. Бахтин М. М. Формы времени и хронотопа в романе. Очерки по исторической поэтике // Вопросы литературы и эстетики. — М.: Художественная литература, 1975. — С. 234–407.
2. Каипбергенов Т. Дастан о каракалпаках: Историческая трилогия. — М.: Советский писатель, 1982. — 624 с.
3. Мамбетов К. История каракалпакской литературы (XX век). — Нукус: Каракалпакстан, 1993. — 256 с.
4. Нурмухамедов М. К. Искусство слова каракалпакского народа. — Ташкент: Фан, 1977. — 228 с.
5. Шермухамедов П. Живой исток современности (О творчестве Т. Каипбергенова) // Вопросы литературы. — 1983. — № 4. — С. 210–215.
6. Юсупов И. Степные фантазии: Стихи и поэмы. — Нукус: Каракалпакстан, 1988. — 184 с.

FORMATION OF THE JUDGE'S LEGAL AWARENESS IN THE CONDITIONS OF THE "E-COURT" SYSTEM: PSYCHOLOGICAL AND LEGAL ASPECTS

NISHANOV Sanjar Yuldibayevich

Investigating judge of the Shaykhontohur district criminal court, Doctor of Philosophy (PhD) in psychology, independent researcher at the Institute of Legislation and Legal Policy under the President of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *Digitalization processes are radically changing the judicial system. This thesis studies the formation of the legal awareness of judges in the conditions of the national information system "E-Court". Both legal and psychological aspects of the problem are analyzed. The subject of the research is the impact of the electronic justice environment on the professional outlook, speed of decision-making and cognitive load of judges.*

Keywords: *E-court, judge, legal awareness, digitization, judicial and legal reforms, psychological factors, professional deformation, artificial intelligence, information technologies, justice.*

INTRODUCTION

The introduction of digital technologies is at the heart of modern judicial and legal reforms. In Uzbekistan, the "E-Court" system has accelerated document circulation and increased transparency [1]. However, technological transformation is not just a technical process. It directly affects the human factor, that is, the legal consciousness of the judge [7].

Legal consciousness is a system of understanding and reacting to legal existence. In the digital environment, it takes on a new appearance [3]. The transition from traditional paper-based proceedings to a digital format requires judges not only new knowledge, but also cognitive flexibility [2]. The relevance of this study is determined by the need to ensure the professional identification and psychological stability of a judge in the conditions of digital justice.

METHODS

The study used systematic analysis, comparative legal methods, and psychological monitoring methods. An anonymous survey was conducted among 40 judges of different instances using the "E-Court" system. The survey assessed cognitive load, information processing speed, and occupational stress levels while working with a digital interface. It also analyzed the legal deadlines for court decisions after the introduction of the electronic system.

RESULTS

The results of the study showed both positive and negative aspects of digitalization.

Legal aspects:

Time savings: The time for considering cases and issuing documents was reduced by an average of 35%.

Transparency: Automatic control of procedural deadlines strengthened discipline.

Speed to legal information: Integration with the legislative framework increased the quality of decisions.

Psychological aspects:

Cognitive load: 62% of judges noted increased eye and nervous fatigue due to the abundance of visual information.

Emotional intelligence: Due to the decrease in direct communication, it became difficult to determine the psychological state of the participants in the case (for example, perjury or emotional pressure) in a virtual environment (45% of respondents).

Technostress: Older judges (over 50 years old) were found to have a fear of system errors and difficulties in adapting.

DISCUSSION

The results obtained show that the "E-Court" system is creating a phenomenon of "digital transformation" in the legal consciousness of the judge

[4]. Legal consciousness is no longer limited to interpreting legal norms, but also includes the culture of working with algorithms and electronic data.

From a psychological point of view, the judge's internal confidence ("internal belief") in the administration of justice is changing [5]. The sense of psychological confidence that a signature and seal on a paper document give is being replaced by electronic digital signatures (EDS) and virtual registers. This can strengthen the formal-technical part of legal consciousness and weaken its humanistic and intuitive components.

Therefore, "E-Court" should remain only a technical tool, and not mechanize the judge's independent thinking and sense of justice [6]. Algorithms should help the judge, not replace him.

CONCLUSION

In the conditions of the "e-court" system, the judge's legal consciousness must consist of a synthesis of legal justice and digital competence. To overcome the problems, the following are proposed:

1. Introduction of "Digital Psychology and Technostress Management" modules into the advanced training courses for judges.

2. Improvement of the "e-court" interface in accordance with the cognitive and visual capabilities of judges (based on ergonomic design).

3. Legal guarantee of the inviolability of the judge's independent inner convictions when introducing elements of artificial intelligence.

REFERENCES

1. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 3, 2020 No. PQ-4818 “On measures to digitize the activities of judicial authorities” // National database of legislative information.
2. Ismoilova N.S. Psychological aspects of the introduction of information technologies in judicial activities // Journal of Psychology. – Bukhara, 2022. – No. 2. – P. 88-94.
3. Karimov X.A. Peculiarities of professional ethics and legal consciousness of judges in the conditions of digital justice // Journal of State and Law. – Tashkent, 2023. – No. 3. – P. 45-51.
4. Riedel J. Cyberjustice: The Use of New Information and Communication Technologies in the Judicial System // European Journal of Law and Technology. – 2020. – Vol. 11, No. 2.
5. Susskind R. Online Courts and the Future of Justice. – Oxford University Press, 2019. – P. 78-95.

6. Sourdin T. Judges, Technology and Artificial Intelligence // International Journal for Court Administration. – 2021. – Vol. 12(1). – P. 22-34.
7. Materials of the Research Center for the Development of the Judicial System under the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. Statistical reports of the e-court information system (2024–2025). – www.supcourt.uz.

TURKISTON GENERAL – GUBERNATORLIGI DAVRIDA TIBBIYOT SOHASINING TASHKIL TOPISHI, RIVOJLANISHI VA ISLOHOTLARI

B.G'.Rasulov

Samarqand davlat pedagogika instituti

tarix kafedrasi o'qituvchisi

rasulovbaxtiyor219@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Turkiston general-gubernatorligi davridagi tibbiyot sohasining tashkiliy tuzilishi, kadrlar tarkibi, moliyalashtirish tizimi hamda imperiya tomonidan o'lkada amalga oshirilgan tibbiy islohotlar tahlil qilingan. Tadqiqotda arxiv hujjatlari va zamonaviy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari asosida mustamlaka davri tibbiyotining o'ziga xos xususiyatlari, uning harbiy va fuqarolik yo'nalishlari, shuningdek mahalliy aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishdagi cheklovlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Turkiston general-gubernatorligi, mustamlaka tibbiyoti, akusher, feldsher, emlash, Kaufman, Girs, Chernyayev, sog'liqni saqlash tizimi, 1867-yil, 1868-yil, 1886-yil.*

Аннотация: *В данной статье анализируется организационная структура медицинской сферы, кадровый состав, система финансирования, а также медицинские реформы, проводившиеся империей в Туркестанском крае. На основе архивных документов и научных трудов современных исследователей раскрываются особенности колониальной медицины, её военное и гражданское направления, а также ограничения в оказании медицинской помощи местному населению.*

Ключевые слова: *Туркестанское генерал-губернаторство, колониальная медицина, акушер, фельдшер, прививка, Кауфман, Гирс, Черняев, система здравоохранения, 1867, 1868, 1886.*

Annotation: *This article analyzes the organizational structure, personnel composition, and financing system of the medical field, as well as the medical reforms implemented by the Empire in the Turkestan region. Based on archival documents and the scholarly works of modern researchers, the article reveals the peculiarities of colonial medicine, its military and civilian directions, and the limitations in providing medical care to the local population.*

Keywords: *Governorate-General of Turkestan, colonial medicine, obstetrician, paramedic, vaccination, Kaufman, Girs, Chernyayev, healthcare system, 1867, 1868, 1886.*

Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilgandan so'ng, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sohalar qatori sog'liqni saqlash tizimida ham tub o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Mustamlakachilik siyosatining tarkibiy qismi sifatida shakllantirilgan yangi boshqaruv tizimi o'lkaning tabiiy-geografik va demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan bo'lib, bu boshqaruvning muhim yo'nalishlaridan biri tibbiyot sohasi edi. Sog'liqni saqlash, o'rmon xo'jaligi, pochta-telegraf aloqasi kabi tarmoqlarda amalga oshirilgan islohotlar imperiya manfaatlariga moslashtirilgan bo'lsa-da, ular o'lkaning ijtimoiy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Xususan, tibbiyot sohasidagi o'zgarishlar natijasida asrlar davomida shakllangan an'anaviy tabobat tizimiga qo'shimcha ravishda imperiya hududidan malakali tibbiyot xodimlari yuborila boshlandi. Dastlabki davrlarda imperiya tibbiyoti asosan harbiy qo'shinlarga xizmat ko'rsatgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan bu xizmat asta-sekin mahalliy aholiga ham yoyila bordi. Bu jarayonning borishini o'rganishda imperatorning maxfiy maslahatchisi Girsning taftish hisobotlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Uning ma'lumotlariga ko'ra, 1867-yilgi Turkistonni boshqarish to'g'risidagi vaqtinchalik Nizom asosida dastlab Sirdaryo viloyatining har bir uyezdida bittadan shifokor va akusher tayinlangan, qo'shimcha shifokor va feldsherlarga ehtiyoj tug'ilganda esa hududda joylashgan harbiy gospitallarga murojaat qilingan [1, B.67].

Bu davrda viloyatdagi tibbiyot bo'limlari faoliyatini nazorat qilish viloyat harbiy shifokoriga topshirilgan bo'lib, unga tibbiyot inspektorining huquq va majburiyatlari berilgan edi. O'lkadagi butun tibbiyot bo'limiga rahbarlik qilish esa okrug harbiy tibbiyot inspektori zimmasiga yuklatilgan. Tadqiqotchi X.S.Jumanazarov bu boradagi qonunchilik asoslarini tahlil qilib, "Tibbiyotni boshqarish masalasi 1865-yilgi muvaqqat Nizomda va 1886-yilgi shaklida yoki Nizomga boshqa qo'shimchalar kiritilganda ham alohida tartiblanib, markaziy

va hududiy tuzilmalarning tarkibi qat'iy belgilangan", – deb ta'kidlaydi [2, B.23]. Bu fikr shuni ko'rsatadiki, mustamlaka ma'muriyati tibbiyot sohasini boshqarishga alohida e'tibor qaratgan va uni markazlashtirilgan tartibda tashkil etishga harakat qilgan.

Hududlarda tibbiy sohasi viloyat harbiy gubernatori nazoratida bo'lib, quyi boshqaruv tuman harbiy-tibbiy nozirida edi. Tuman harbiy-tibbiy noziri bir vaqtning o'zida Turkiston general-gubernatori va harbiy bo'lim bosh tibbiyot noziriga bo'ysungan. Tumanlar va viloyatning yirik shaharlarida nazorat okrug shifokorlari va o'rta tibbiyot xodimlariga yuklatildi. Keyinchalik, general-gubernator Toshkentning yangi shahar qismida rus aholisi sonining ko'payishi bilan bog'liq holda ikkinchi shahar akusheri lavozimini tashkil etdi. Bu holat mustamlaka ma'muriyatining tibbiy xizmatni, birinchi navbatda, o'lkaga ko'chib kelgan rus aholisi ehtiyojlariga moslab tashkil etganligidan dalolat beradi.

Turkiston general-gubernatorligi hududining kengayishi natijasida yangi bo'limlar tashkil etilgach, ularda ham Sirdaryo viloyatida bo'lgani kabi tibbiyot bo'limlari tuzilgan edi. Bu esa boshqaruv tizimining amaliyotda qanchalik unifikatsiyalashganini ko'rsatadi – yangi hududlarga ham xuddi shu model ko'chirilgan.

Turkistonda butun tibbiyot xodimlari o'lka rahbarining buyrug'i bilan quyidagicha tuzilgan edi: Sirdaryo viloyatining tarkibidagi uyezdlarda 7 ta shifokor, Toshkent shahrida 1 ta shifokor, viloyatning uyezdlarida 7 ta akusher, Toshkent shahrida 2 ta akusher, viloyatda hammasi bo'lib 8 ta feldsher, jami 25 nafar tibbiyot xodimi faoliyat ko'rsatgan. Farg'ona viloyatining uyezdlarida 6 ta shifokor, Yangi Marg'ilonda 1 ta shifokor, viloyatning uyezdlarida 6 ta akusher, Yangi Marg'ilonda 1 ta akusher, viloyatda hammasi bo'lib 8 ta feldsher, jami 21 nafar tibbiyot xodimi faoliyat ko'rsatgan.

Zarafshon okrugida esa 2 ta uyezd shifokori, 3 ta tarjimon, 1 ta Samarqand shahar shifoxonasi shifokori, 2 ta uyezd akusheri, 2 ta tibbiyot yordamchisi, 2 ta feldsher, jami 12 nafar tibbiyot xodimi faoliyat ko'rsatgan [3, B.430]. Turkiston

o'lkasi viloyatlarida faoliyat ko'rsatgan shifokorlar sonining bunday nomutanosibligi, birinchi navbatda, viloyatlardagi uyezdlar soni, hududning katta-kichikligi va aholi soniga bog'liq edi. Girs taftish hisobotlarida nafaqat tibbiyot xodimlari sonidagi farq, balki ularga berilayotgan maoshlarda ham farq borligini ko'rsatib o'tgan. Masalan, Sirdaryoda faoliyat olib borayotgan shifokorlarn ing har biri 1200 rubl maosh olgan bo'lsa, Farg'ona viloyatida bu ko'rsatkich 1500 rublni tashkil etgan. Bunday farq, ehtimol, hududlarning iqlim sharoiti og'irligi, aholi zichligi va viloyatlarning mustamlaka boshqaruvi uchun strategik ahamiyati bilan izohlanishi mumkin.

Turkistonni taftish qilgan Girs tibbiyot sohasiga sarflanayotgan mablag'lar va qo'shimcha xarajatlarni sinchkovlik bilan o'rgangan. Uning bergan ma'lumotlariga ko'ra, o'lka tibbiyot sohasidagi boshqaruv xarajatlari quyidagicha bo'lgan: 1) okrug harbiy tibbiyot inspektorining o'lka tibbiyot sohasini nazorat qilishi uchun 1000 rubl; 2) Amudaryo va Farg'ona viloyatlaridagi nazorat uchun har biriga 800 rubldan, jami 1600 rubl; 3) Zarafshon okrugi shifokorining xuddi shu vazifasi uchun 800 rubl; 4) mahalliy aholini davolash uchun Amudaryo bo'limining katta shifokoriga 600 rubl; 5) dori-darmonlarga 200 rubl; 6) tarjimonga 300 rubl mablag' sarflangan bo'lib, umumiy xarajatlar 4.500 rublni tashkil qilgan [1, B.51-52].

Bundan tashqari, o'lka tibbiyot sohasining xo'jalik masalalari uchun ham mablag'lar ajratilgan. Jumladan: 1) 18 ta shahar tez yordam xonasini ta'mirlash uchun 19.461 rubl; 2) Toshkent shahridagi ayollar ambulatoriyasi va Samarqanddagi kasalxonani ta'mirlash uchun 10.052 rubl; 3) Toshkent va Perovskiyda 2 ta deponi ta'mirlash uchun 1.000 rubl; 4) Farg'ona viloyatida chechakka qarshi 30 nafar kishini emlaganligi uchun 3.600 rubl (Turkiston o'lkasining qolgan qismlarida chechakka qarshi emlash xarajatlari aholidan olinadigan davlat yig'imlariga qo'shib hisoblangan); 5) Samarqand shahridagi dorixonani ta'mirlash va Kazalinskdagi dorixona uchun 7.120 rubl; 6) mahalliy aholi va to'lovga layoqatsiz shaxslarni davolash uchun 1.850 rubl sarflangan

bo'lib, xo'jalik masalalarining jami xarajatlari 107.518 rublni tashkil etgan. Bu xarajatlar davlat xazinasidan 52.800 rubl, zemstvo yig'imlaridan 46.058 rubl va shahar daromadlari hisobidan 8.620 rubl miqdorida qoplangan [3, B.430-431]. Moliyalashtirish manbalarining bunday xilma-xilligi – davlat xazinasi, zemstvo va shahar byudjetlarining birgalikda ishtirok etishi – mustamlaka ma'muriyatining markaziy byudjetga bo'lgan yukni kamaytirishga intilganligini ko'rsatadi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining boshqa hududlarida bo'lgani kabi, Turkistonda ham chechak kasalligiga qarshi emlash ishlari davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, emlash xarajatlari alohida moddda ko'rsatilgan va bu ishga davlat tomonidan mablag' ajratilgan. Biroq emlash kampaniyalarining ko'lami cheklangan bo'lib, ular asosan shahar aholisi va harbiy garnizonlar joylashgan hududlarni qamrab olgan. Aholining katta qismi, xususan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turmush tarzini yuritgan tabaqalar, bunday tibbiy-profilaktik tadbirlardan deyarli chetda qolgan. Shu bilan birga, mustamlaka tibbiyoti mahalliy an'anaviy tabobat vakillari – tabiblar bilan raqobatga kirishgan bo'lsa-da, ularni to'liq siqib chiqara olmagan, chunki imperiya tibbiyot xodimlarining soni va infratuzilmasi butun o'lka aholisiga xizmat ko'rsatish uchun yetarli emas edi.

Tibbiy yordam xarajatlari ancha katta raqamlarni tashkil qilgani bilan, mintaqada tibbiy yordam yetarli bo'lmay, shifokorlar va o'rta tibbiyot xodimlarining faoliyati asosan aholi gavjum yashaydigan shaharlarga to'g'ri kelgan. Masalan, Toshkent, Yangi Marg'ilon va Samarqand shaharlarida bir nechta shifokorlar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, o'lkaning boshqa uyezdlarida butun uyezd bo'yicha bitta shifokor faoliyat olib borgan, xolos. Hududning kattaligi, aholi yashash joylarining bir-biridan uzoqda joylashganligi va mahalliy aholining katta qismi ko'chmanchi turmush tarzida istiqomat qilganligi tibbiy xizmatning barcha aholiga yetib borishiga to'sqinlik qilgan. Shu sababli,

mustamlakachilikning dastlabki yillarida faqat shaharlar yaqinida joylashgan aholi manzilgohlari tibbiy xizmatdan foydalana olgan, xolos. Bu holat, o'z navbatida, o'lka aholisining tibbiy madaniyati va davlat tibbiyotiga bo'lgan munosabatiga ham ta'sir ko'rsatgan – ko'pchilik aholi hamon an'anaviy davolash usullariga murojaat qilishni davom ettirgan.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston general-gubernatorligi davrida shakllantirilgan tibbiyot tizimi, birinchi navbatda, mustamlaka ma'muriyati va harbiy qo'shinlar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lib, vaqt o'tishi bilan mahalliy aholiga ham tarqaldi. Tizimning markazlashtirilgan boshqaruv tuzilishi, kadrlar taqsimoti va moliyalashtirish manbalarining xilma-xilligi mustamlaka siyosatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Shu bilan birga, tibbiy xizmatning cheklangan ko'lami, uning asosan shahar markazlariga qaratilganligi va aholining katta qismini qamrab ololmaganligi mustamlaka davri sog'liqni saqlash tizimining tub kamchiliklaridan biri bo'lib qoldi. Ushbu mavzuni yanada chuqur o'rganish, xususan arxiv hujjatlari asosida hududiy tahlillar o'tkazish, Turkiston tarixining ijtimoiy jihatlarini yanada to'liqroq yoritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zMA, 1-Jamg'arma 12-ro'yxat, 923-yig'ma jild.
2. Jumanazarov X.S. Turkistonda milliy tib an'analari va tibbiyot tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. T., 2024.
3. Гирс Ф. Отчет ревизующего по высочайшему повелению Туркестанский край тайного советника Гирса. СПб., 1883.

SPECIAL MISSION IMMUNITIES BETWEEN TREATY AND CUSTOM: THE CASE FOR A NATIONAL CONSENT ARCHITECTURE IN UZBEKISTAN

Khudayberganova Nigina To`lqin qizi,
University of world economy and diplomacy
Researcher at UWED, International law faculty
e-mail: n.xudayberganova@uwed.uz
n.khudayberganova17@gmail.com

***Abstract**: This article examines the immunities of special diplomatic missions in states outside the 1969 Convention on Special Missions (CSM), which only thirty-nine states have joined. Drawing on English and German case law and the Council of Europe's CAHDI survey of state practice, it argues that receiving-state consent and executive certification, not treaty membership, determine immunity outcomes. It then examines Uzbekistan, an active practitioner of ad hoc diplomacy that has never engaged the CSM, and proposes a presidential-decree consent architecture grounded in Article 15 of the 2023 Constitution and Article 1(3) of Law LRU 692, modelled on the United Kingdom's 2013 certification process.*

***Keywords:** special missions; diplomatic immunity; customary international law; Convention on Special Missions 1969; executive certification; Uzbekistan; consent; ad hoc diplomacy.*

Temporary missions have become the principal instrument of contemporary diplomacy, and summit delegations, peace envoys, crisis-response teams, and technical commissions now generate more official cross-border activity than resident embassies. The legal regime governing them nonetheless remains unsettled. The 1961 Vienna Convention on Diplomatic Relations (VCDR) achieved near-universal participation with 193 parties, but its companion instrument, the 1969 Convention on Special Missions (CSM), has attracted only thirty-nine (United Nations Treaty Collection, 2026). No major power the United States, Russia, China, France, Germany, the United Kingdom,

India, or Japan is bound by it, and most bilateral relationships instead rely on customary international law as applied through domestic mechanisms.

This article argues, first, that treaty membership does not determine immunity outcomes: receiving-state consent and executive capacity to certify that consent do. Second, it applies this finding to Uzbekistan, a full party to the Vienna Conventions that has never engaged the CSM despite conducting one of Central Asia's most active ad hoc diplomatic programs. It proposes a domestic consent architecture, enacted by presidential decree under Article 15 of the 2023 Constitution and Article 1(3) of Law LRU 692 (2021), modelled on the United Kingdom's 2013 certification process.

The analysis is doctrinal and comparative. It examines the leading judicial statements on special mission immunity from the German Federal Court of Justice (Tabatabai, 1984) and the English courts (Khurts Bat, 2011; Freedom and Justice Party, 2018), read against the Council of Europe's CAHDI survey of state practice. Uzbekistan's constitutional and statutory framework is then assessed against this customary baseline, and its recent diplomatic practice is documented from official and press sources. Comparative certification mechanisms the United Kingdom's 2013 process, Finland's 1973 Act, and Belgium's invitation-based immunity provision inform the design of a proposed regulation, which is evaluated against four criteria: legal certainty, diplomatic reciprocity, administrative capacity, and accountability safeguards.

CSM Article 1 defines a special mission by temporariness, state representation, task specificity, and receiving-state consent (Convention on Special Missions, 1969). Its regime personal inviolability (art. 29), absolute criminal immunity (art. 31), and civil immunity subject to four exceptions (art. 31) closely follows the VCDR. The United Kingdom, which signed but never ratified the CSM, attributed its non-ratification to the breadth of these automatic immunities (United Kingdom, 2019). The practical result is that the treaty

governs under four percent of possible bilateral pairings, and no major-power relationship.

Three decisions define the customary core. *Tabatabai* (1984) held that an ad hoc envoy may receive immunity by individual agreement with the receiving state, and that consent could be given retroactively. *Khurts* Bat (2011) held that customary immunity is conditional on the receiving state's prior consent; the Foreign and Commonwealth Office's denial that consent had been given was determinative, and the individual was extradited. Freedom and Justice Party confirmed a customary obligation to secure inviolability and criminal immunity for consented mission members personal rather than functional, admitting no exception even for torture allegations.

As Wood observed, the customary rules are simultaneously wider and narrower than the treaty: wider, because every accepted mission member is protected regardless of rank, and narrower, because custom has not been shown to extend to full civil immunity, fiscal privileges, or the Convention's waiver mechanics, with several CAHDI respondents confining civil immunity to acts that would impede the mission's functions.

In the United Kingdom, custom is received automatically into domestic law, and the courts have assigned the consent question to the executive. Following Khurts Bat, the Foreign Secretary announced a 2013 pilot process letting embassies seek advance consent to special mission status; the Foreign and Commonwealth Office's answer is treated as conclusive on the fact of consent, while courts retain authority over the legal consequences .

Uzbekistan acceded to the VCDR and VCCR without reservation on 2 March 1992, the day of its UN admission, but has never engaged the CSM; no succession argument is available, since the Soviet Union never signed it. Of the thirty-nine CSM parties, only a handful figure in Uzbekistan's bilateral diplomacy, while its principal partners Russia, China, the United States, Germany, Turkey, and the Gulf states remain outside the treaty. Since 2017,

Uzbekistan has hosted the 2022 SCO Samarkand summit, the 2018 and 2022 Tashkent Afghanistan conferences, repeated Taliban delegations, and the Central Asian Heads of State Consultative Meetings, all conducted without a domestic legal instrument governing mission members' status.

Article 15 of the 2023 Constitution gives international treaties and customary international law force within, and priority over, domestic legislation, so the customary special mission rule is already notionally part of Uzbek law. Article 1 of Law LRU 2021 anticipates domestic instruments conferring immunity, but none exists; visiting delegations are managed through unpublished Ministry of Foreign Affairs practice, leaving Uzbekistan exposed to a Khurts Bat-type scenario.

Three reform paths exist. Accession to the CSM with implementing legislation is the soundest long-term option but would require eighteen to thirty months under the Law on International Treaties, cover only a small share of Uzbekistan’s mission traffic, and leave the immediate gap open. Continuing ad hoc practice fails the elementary requirement of legal certainty, leaving public authority, in Nollkaemper’s (2011) terms, neither conferred nor controlled by law.

The preferable option is a standalone regulation by presidential decree, implementable within six to twelve months on the existing constitutional and statutory basis, modelled on the United Kingdom’s process, Finland’s 1973 Act, and Belgium’s invitation-based provision. Its five elements: the Ministry of Foreign Affairs as sole consent authority; seventy-two-hour advance notification of members, dates, and agenda; a certificate of special mission status, conclusive on a mission’s existence and membership while leaving courts authority over whether specific acts fall within its certified functions; verbatim codification of the CSM’s four civil-immunity exceptions; and an express waiver mechanism, including an optional advance waiver for international crimes responding to the

accountability gap in Freedom and Justice Party (2018) and anticipating the International Law Commission's (2022) draft articles on official immunity.

Measured against the four evaluation criteria, this architecture offers greater legal certainty than current practice, preserves reciprocity by tracking the treaty standard without requiring ratification, is administratively realistic given existing Ministry capacity, and builds in accountability absent from ad hoc diplomacy.

The CSM succeeded as a codification but failed as a treaty: the states most in need of it have declined to join. What has emerged instead is a customary regime whose firm core inviolability and criminal immunity for consented mission members operates everywhere through executive certification of consent. For Uzbekistan, a state whose diplomatic ambition has outpaced its legal infrastructure, the constitutional and statutory foundations already exist. A single presidential decree could close the gap within a year, while accession to the Convention remains open for consideration on its own merits.

BIBLIOGRAPHY:

1. Constitution of the Republic of Uzbekistan. (2023).
2. Convention on Special Missions, Dec. 8, 1969, 1400 U.N.T.S. 231.
3. International Law Commission. (2022). Draft articles on immunity of state officials from foreign criminal jurisdiction (first reading).
4. Khurts Bat v Investigating Judge of the German Federal Court [2011] EWHC 2029 (Admin); [2012] 3 WLR 180; 147 ILR 633.
5. Law of the Republic of Uzbekistan No. LRU 518. (2019). On international treaties of the Republic of Uzbekistan.
6. Law of the Republic of Uzbekistan No. LRU 692. (2021). On the legal status of foreign citizens and stateless persons in the Republic of Uzbekistan.
7. Nollkaemper, A. (2011). National courts and the international rule of law. Oxford University Press.
8. R (Freedom and Justice Party) v Secretary of State for Foreign and Commonwealth Affairs [2016] EWHC 2010 (Admin); [2018] EWCA Civ 1719; 182 ILR 658.
9. Tabatabai (Bundesgerichtshof, 27 February 1984) 4 StR 396/83, BGHSt 32, 275; 80 ILR 388.
10. UK Foreign Secretary. (2013, March 4). Written ministerial statement. HC Deb, col. 429W.
11. United Kingdom. (2019). Reply to the CAHDI questionnaire on immunities of special missions.
12. United Nations Treaty Collection. (2026). Multilateral treaties deposited with the Secretary-General, Chapter III.
13. Vienna Convention on Consular Relations, Apr. 24, 1963, 596 U.N.T.S. 261.

14. Vienna Convention on Diplomatic Relations, Apr. 18, 1961, 500 U.N.T.S. 95.
15. Wood, M. (2012). The immunity of official visitors. Max Planck Yearbook of United Nations Law, 16, 35–98.

EMOTSIYALAR - INSON ONGINING MOTIVATSION ASOSI

Abdusattarova Shaxlo,

Mustaqil izlanuvchi

Samarqand davlat chet tillar instituti

Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya. *Mazkur maqolada emotsiyalarning inson ongining motivatsion asosi sifatidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Emotsiyalarning bilish jarayonlari, motivatsiya, xotira, diqqat, qaror qabul qilish hamda inson xulq-atvorini boshqarishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, emotsiyalarning psixologik, kognitiv va lingvistik jihatlari hamda ularni tadqiq etishga doir asosiy nazariy yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Maqolada emotsiyalar insonning ichki ehtiyojlari va tashqi faoliyati o‘rtasidagi bog‘lovchi mexanizm sifatida baholanib, ularning shaxsning moslashuvi, muloqoti va ijtimoiy faoliyatini tartibga solishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari emotsiyalarning inson tafakkuri va ongli faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi ekanligini hamda motivatsion jarayonlarning samarali kechishida muhim omil bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *biologik instinkt, mental faoliyat, emotsional tafakkur, motivatsion tizim, milliy-madaniy me’yor, ong muammosi, psixologlar va fiziologlar emotsiya, emotsional-kognitiv tuzilma.*

Аннотация. *В данной статье анализируются роль и значение эмоций как мотивационной основы человеческого сознания. Рассматривается влияние эмоций на познавательные процессы, мотивацию, память, внимание, принятие решений, а также на регуляцию поведения человека. Особое внимание уделяется психологическим, когнитивным и лингвистическим аспектам эмоций, а также основным теоретическим подходам к их изучению. В статье эмоции рассматриваются как связующий механизм между внутренними потребностями человека и его внешней деятельностью, обосновывается их значимость в процессе адаптации личности, коммуникации и регулирования социальной активности. Результаты исследования свидетельствуют о том, что эмоции являются неотъемлемой составляющей человеческого мышления и сознательной деятельности, а также выступают важным фактором, обеспечивающим эффективное протекание мотивационных процессов.*

Ключевые слова: *биологический инстинкт, ментальная деятельность, эмоциональное мышление, мотивационная система, национально-культурная норма, проблема сознания, психологи и физиологи, эмоция, эмоционально-когнитивная структура.*

Abstract. *This article analyzes the role and significance of emotions as the motivational foundation of human consciousness. It examines the influence of emotions on cognitive processes, motivation, memory, attention, decision-making, and the regulation of human behavior. Particular attention is paid to the psychological, cognitive, and linguistic aspects of emotions, as well as to the major theoretical approaches to their study. The article considers emotions as a connecting mechanism between an individual's internal needs and external activities, substantiating their importance in personal adaptation, communication, and the regulation of social behavior. The findings indicate that emotions are an integral component of human thinking and conscious activity, serving as a key factor in ensuring the effective functioning of motivational processes.*

Key words: *biological instinct, mental activity, emotional thinking, motivational system, national-cultural norm, the problem of consciousness, psychologists and physiologists, emotion, emotional-cognitive structure.*

Til o‘ziga xos biologik instinkt sifatida inson emotsiyalari bilan uzviy bog‘liq. Emotsiyalar ham biologik instinktlarning muhim ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Ilm-fanda ong va tafakkurning birligi haqidagi mulohaza umumiy e’tirof etilgan bo‘lib, unga ko‘ra, fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan har qanday mavjudot ongga ham ega bo‘ladi. Biroq emotsiyalarni o‘rganish ularning bevosita kuzatib bo‘lmaydigan tabiati, shuningdek, ushbu tushuncha hamda uning predmetga ega bo‘lmagan shaklini til vositasida to‘liq ifodalashning murakkabligi sababli maxsus ilmiy yondashuvlarni talab etadi.

Ma’lumki, ong moddiy shaklga ega bo‘lmagan soha bo‘lib, u miyaning faqat mental (aqliy) faoliyatini ifodalaydi. Bugungi kunda emotsiyalar insonning mental faoliyati bilan chambarchas bog‘liqligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Emotsiyalar aqliy jarayonlarga hamrohlik qilishi, ularni qo‘zg‘atishi, faollashtirishi, to‘xtatishi yoki ularning natijalarini baholashi mumkin. Shu bois zamonaviy ilm-fanda emotsional ong, emotsional tafakkur, emotsional miya

hamda emotsional tafakkur tushunchalari keng qo‘llaniladi [Хомская, Батова, 1998].

Til ongning o‘n beshta modulidan biri sifatida qaraladi va ushbu modullar qatoriga emotsiyalar ham kiradi. Tilning biologik konsepsiyasiga ko‘ra, til tug‘ma instinkt hisoblanar ekan, demak, ong ham, emotsiyalar ham tashqi olamga nisbatan yuzaga keladigan reflekslar emas, balki tug‘ma instinktlardir. Shunday ekan, emotsiya ayrim faylasuflar, jumladan G. X. Shingarov, S. Pinker va boshqalar ta’kidlaganidek, borliqni aks ettirish shakli emas, balki ong, tafakkur va nutqiy xulq-atvorning motivatsion tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur tizimning faoliyati esa har bir xalqning milliy-madaniy me’yorlari va qadriyatlari ta’sirida shakllanadi. L. Vitgenshteyn konsepsiyasiga ko‘ra, til tafakkurni “kiyintiradi”, ya’ni uni til shakliga soladi. Tafakkur esa voqelikdagi muayyan vaziyatning tasviri bo‘lib, u mumkin bo‘lgan vaziyatlar majmuasidan iborat. Ushbu vaziyatlarning tafakkurda aks etishi doimo subyektiv xarakterga ega bo‘lib, shaxsning individual manfaatdorligi orqali amalga oshadi. Shu sababli barcha tafakkur manzaralari yuzaki yoki chuqur darajada bo‘lsada, o‘z mohiyatiga ko‘ra emotsional xususiyat kasb etadi.

Inson fikrini alohida so‘zlar, ularning kombinatsiyalari yoki matnlar orqali emas, balki tafakkur vositasida ifodalaydi. Shuning uchun ham nutqiy xulq-atvor, ong va tafakkur voqelikdagi vaziyatlar hamda faktlarni baholash jarayoni bilan boshqariladi, bu baholash esa har doim emotsional xarakterga ega bo‘ladi. Shu ma’noda emotsiyalar nafaqat muayyan kommunikativ vaziyatlar ta’sirida yuzaga keladi va faollashadi, balki o‘z navbatida yangi-yangi kommunikativ vaziyatlarning vujudga kelishiga ham sabab bo‘ladi. Demak, til insonning olamga moslashuvi, axborotni uzatishi va muloqot jarayonida voqelikni aks ettirishi uchun xizmat qiladigan biologik mexanizm hisoblanadi. Bunday muloqot esa doimo emotsional motivatsiya asosida amalga oshadi.

Ong muammosi mahalliy tilshunoslikda qariyb ikki asrdan buyon asosan Aleksey Nikolayevich Leontyev tomonidan ilgari surilgan faoliyatga asoslangan yondashuv metodologiyasi asosida tadqiq etib kelinmoqda [Леонтьев, 1975].

Mazkur yondashuvga ko‘ra, ong inson faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Ko‘plab ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, psixolingvistlar hanuzgacha til va ongning birligi haqidagi nazariyadan chetga chiqa olmayaptilar. Ular ongni asosan til orqali talqin etadilar hamda til, xususan, uning asosiy vositasi bo‘lgan so‘z ongni vositali tarzda ifodalaydi, degan qarashga tayanadilar. Bugungi kunda ongni o‘rganishning eng samarali yo‘li til birliklaridagi ma’no va mazmun tuzilishini ochib berishdan iborat, degan xulosa deyarli aksioma sifatida qabul qilingan. Chunki ushbu yondashuvga ko‘ra, ongning asosiy determinantlari belgi va ma’no tizimlaridir [Уфимцева, 2000].

Psixologlar va fiziologlar emotsiyalar inson tafakkurining ajralmas tarkibiy qismi ekanligini ishonchli ilmiy dalillar bilan asoslaydilar. Emotsiyalarning kognitiv nazariyasiga ko‘ra, emotsiyalar aqlning funksiyalaridan biri sifatida qaraladi [Izard, 1980]. Ular nafaqat kognitiv jarayonlardan oldin yuzaga keladi, balki ushbu jarayonlarning kechishini ham kuzatib boradi va ularga hamrohlik qiladi [Шаховский, 2001].

Xorijiy tadqiqotchilar barcha bilish jarayonlari emotsiyalar orqali amalga oshishini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, emotsiyalar kognitiv elementlarni birlashtirib, ularni emotsional-kognitiv tuzilma sifatida tashkil etadi. Ushbu jarayonning iyerarxik darajalarda takrorlanishi va rivojlanishi esa inson tafakkurining taraqqiyotini ta’minlaydi [Grey, 1973].

Carroll Izard emotsiyalar inson fikrlarini determinatsiya qiladi, ya’ni ularning shakllanishi va rivojlanishini belgilaydi, degan fikrni ilgari suradi [Izard, 1980].

Roger Brown hamda undan keyingi ko‘plab olimlarning eksperimental tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, inson har qanday nutqiy ifodadagi predmet-

mantiqiy axborotni anglashdan avval uning emotsional-baholovchi komponentini idrok etadi.

8. Xalqaro mehnat tashkilotining Mehnat xavfsizligi va gigienasi hamda ishlab chiqarish muhiti to‘g‘risidagi 155-sonli Konvensiyasi (Jeneva, 1981 yil 22 iyun).

8-SECTION

XX ASR BOSHLARI O‘ZBEK LIRIKASIDA ANTONOMAZIYALAR SEMANTIKASI (CHO‘LPON, SIDQIY XONDAYLIQIY VA USMON NOSIR IJODI MISOLIDA)

Yozdonqulova Ozoda Zokirjon qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute

mustaqil tadqiqotchisi

e.pochta: o.yozdonqulova@dtpi.uz

ORCID: https://orcid.org/ 0009-0000-7082-0248

Annotatsiya *: Mazkur maqolada XX asr boshlaridagi o‘zbek she’riyatida antonomaziya badiiy-estetik vositasining semantik xususiyatlari Cho‘lpon, Sidqiy Xondayliqiy hamda Usmon Nosir lirikasi misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda antonomaziyaning poetik matnda individual obraz yaratish, milliy tafakkurni ifodalash, diniy-mifologik va tarixiy shaxslar nomlari orqali ramziy ma'nolarni shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi. Shoirlar ijodida uchraydigan* ***Majnun****,* ***Layli****,* ***Masih****,* ***Azroil****,* ***Iblis****,* ***Shayton****,* ***Otello****,* ***Gamlet****,* ***Ofeliya****,* ***Dante****,* ***Beatriche*** *kabi antonomaziyalar semantik-pragmatik jihatdan tahlil qilinadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, antonomaziyalar jadid va jadid an'analarini davom ettirgan lirikada shaxsning ichki kechinmalarini ifodalash bilan bir qatorda, milliy uyg‘onish g‘oyalarini estetik jihatdan kuchaytiruvchi poetik birlik sifatida ham namoyon bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *antonomaziya, semantika, jadid adabiyoti, Cho‘lpon, Sidqiy Xondayliqiy, Usmon Nosir, poetika, lingvopoetika, badiiy matn, onomastika.*

Abstract:*This article examines the semantic characteristics of antonomasia in early twentieth-century Uzbek poetry through the lyrical works of Cholpon, Sidqiy Xondayliqiy, and Usmon Nosir. The study explores the role of antonomasia in creating artistic imagery, expressing national consciousness, and conveying symbolic meanings through religious, mythological, and historical names. The semantic and pragmatic functions of antonomasias such as Majnun, Layli, Masih, Azrael, Iblis, Shaytan, Othello, Hamlet, Ophelia, Dante, and Beatrice are analyzed. The findings indicate that antonomasia functions not only as a stylistic device expressing emotional experience but also as an important linguistic means of reinforcing the ideas of national awakening and artistic thinking in Uzbek lyrical poetry.*

Keywords: *antonomasia, semantics, Jadid literature, Cholpon, Sidqiy Xondayliqiy, Usmon Nosir, linguopoetics, poetic language.*

KIRISH (INTRODUCTION)

XX asr boshlarida o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida jadidchilik harakati nafaqat ijtimoiy-siyosiy tafakkur, balki badiiy til taraqqiyotida ham yangi bosqichni boshlab berdi. Jadid shoirlari she'riy nutqning ifoda imkoniyatlarini kengaytirish, milliy o‘zlikni badiiy-estetik jihatdan yoritish hamda zamonaviy poetik tafakkurni shakllantirishda turli stilistik vositalardan unumli foydalandilar. Shunday vositalardan biri antonomaziya bo‘lib, u shaxs nomining ko‘chma ma'noda qo‘llanishi yoki muayyan sifatni ifodalovchi nomning umumlashgan semantik birlikka aylanishi bilan tavsiflanadi.

Antonomaziya qadimiy ritorikadan boshlab zamonaviy lingvopoetik tadqiqotlargacha badiiy tasvirning muhim komponenti sifatida e'tirof etilgan. I.R. Galperin antonomaziyani stilistik semantikaning alohida turi sifatida baholab, unda atoqli ot va turdosh ot semantikalarining o‘zaro kesishishi kuzatilishini ta'kidlaydi. V.V. Vinogradov esa bunday birliklarning badiiy matndagi ekspressiv yukini alohida e'tirof etadi. O‘zbek tilshunosligida antonomaziya masalalari asosan onomastika va badiiy til doirasida tadqiq etilgan bo‘lsa-da, jadid lirikasi misolida uning semantik tizimi hali yetarlicha kompleks o‘rganilmagan.

Cho‘lpon lirikasida **malak**, **pari**, **Azroil**, **shayton**, **iblis** singari diniy va mifologik antonomaziyalar inson ruhiyati hamda ozodlik g‘oyalarini ramziy ifodalash uchun qo‘llanadi. Jumladan, shoirning “Xayoli” va “Tabiatga” she'rlarida **malak**, **shayton**, **dev**, **alvasti** kabi birliklar real shaxs nomi sifatida emas, balki inson qalbidagi ezgulik va yovuzlikning poetik timsollari sifatida namoyon bo‘ladi.

Sidqiy Xondayliqiy ijodida esa Sharq mumtoz adabiyoti an'analari davom ettirilib, **Masih**, **Yusuf**, **Ya'qub**, **Shavkat**, **sanam** kabi antonomaziyalar oshiq

va ma'shuqa obrazlarini estetik ideallashtirish vositasiga aylanadi. Ushbu nomlar individual shaxsni emas, balki muayyan badiiy konseptni ifodalaydi.

Usmon Nosir lirikasida esa jahon adabiyoti qahramonlari – **Petrarka**, **Dante**, **Beatriche**, **Gamlet**, **Ofeliya**, **Otello**, **Dezdemona** kabi nomlar yangi semantik qatlam hosil qilib, milliy she'riyatni umuminsoniy madaniy kontekst bilan bog‘laydi. Bu antonomaziyalar shoirning estetik tafakkuri va intertekstual poetikasining muhim ko‘rsatkichidir. Mazkur tadqiqotning maqsadi Cho‘lpon, Sidqiy Xondayliqiy hamda Usmon Nosir lirikasida uchraydigan antonomaziyalarning semantik xususiyatlarini lingvopoetik nuqtai nazardan tahlil qilish, ularning badiiy matn mazmunini shakllantirishdagi funksiyalarini aniqlash hamda o‘zbek poetik tilining taraqqiyotidagi o‘rnini belgilashdan iborat.

MATERIALS AND METHODS

Mazkur tadqiqotning empirik materialini Abdulhamid Cho‘lponning *Binafsha*, Sidqiy Xondayliqiyning *Navbahor* hamda Usmon Nosirning *Ertani sevinib kut!* nomli she'riy to‘plamlarida uchraydigan antonomaziyalar tashkil etadi. Tadqiqot obyekti sifatida mazkur shoirlarning lirik asarlarida qo‘llangan diniy, mifologik, tarixiy va adabiy manbalarga mansub atoqli otlarning poetik nutqdagi semantik transformatsiyasi tanlandi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini onomastika, semasiologiya, lingvopoetika hamda badiiy matn lingvistikasi sohasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi. Antonomaziya hodisasini tahlil qilishda I.R. Galperinning stilistik birliklar haqidagi konsepsiyasi, V.V. Vinogradovning badiiy nutq semantikasi yuzasidan qarashlari, shuningdek, D. Quronov, Sh. Rahmatullayev, B. Qosimov va boshqa olimlarning poetik matn tahliliga oid nazariy yondashuvlar metodologik asos sifatida qabul qilindi.

Tadqiqot davomida bir-birini to‘ldiruvchi bir necha ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Tavsifiy metod yordamida she'riy matnlarda uchraydigan antonomaziyalar aniqlanib, ularning qo‘llanish xususiyatlari

tizimlashtirildi. Semantik tahlil metodi asosida har bir antonomaziyaning lug‘aviy ma'nosi bilan poetik kontekstda hosil qilayotgan ko‘chma va ramziy ma'nolari o‘rtasidagi munosabat o‘rganildi. Kontekstual tahlil orqali antonomaziyaning she'r mazmuni, obrazlar tizimi hamda muallifning kommunikativ maqsadini ifodalashdagi o‘rni aniqlandi. Qiyosiy metod vositasida esa Cho‘lpon, Sidqiy Xondayliqiy va Usmon Nosir ijodida antonomaziyalarning semantik hamda funksional xususiyatlari o‘zaro taqqoslandi.

Tahlil jarayonida har bir antonomaziya alohida til birligi sifatida emas, balki badiiy matnning umumiy semantik strukturasini tashkil etuvchi lingvopoetik unsur sifatida baholandi. Shu maqsadda atoqli otning dastlabki nominativ ma'nosi, uning madaniy-assotsiativ mazmuni hamda she'riy kontekstda yuzaga keladigan ikkilamchi semantik qatlami izchil tahlil qilindi. Bunda antonomaziyalarning faqat nominativ vazifasi emas, balki ularning ekspressiv, emotsional, baholovchi va ramziy funksiyalari ham hisobga olindi.Mazkur tadqiqotda lingvokulturologik yondashuv ham qo‘llanildi. Chunki she'riy matnlarda uchraydigan **Majnun**, **Layli**, **Masih**, **Azroil**, **Shayton**, **Iblis**, **Otello**, **Gamlet**, **Dezdemona**, **Ofeliya** kabi antonomaziyalar muayyan tarixiy yoki badiiy shaxsni emas, balki xalqning madaniy xotirasida shakllangan konseptlarni ifodalaydi. Shu sababli ularning poetik semantikasi milliy va umuminsoniy madaniy kodlar bilan uzviy bog‘liqlikda talqin qilindi. Tadqiqotning ilmiy yangiligini ta'minlash maqsadida antonomaziyalar faqat stilistik vosita sifatida emas, balki **ko‘p qatlamli semantik birlik** sifatida o‘rganildi. Tahlil davomida ularning denotativ, konnotativ va pragmatik ma'nolari o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilinib, badiiy matnda hosil qilayotgan estetik ta'siri hamda muallif individual uslubini shakllantirishdagi o‘rni yoritildi. Ushbu yondashuv antonomaziyaning poetik matndagi funksional imkoniyatlarini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qildi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tanlangan materiallarning bevosita asl manbalar

asosida tahlil qilinganligi, lingvistik tahlilning zamonaviy metodlariga tayanganligi hamda olingan xulosalarning o‘zaro qiyosiy va kontekstual tahlillar bilan asoslanganligi orqali ta'minlandi.

RESULTS

Tahlil natijasida Cho'lpon, Sidqiy Xondayliqiy va Usmon Nosir lirikasida antonomaziyalar semantik jihatdan bir xil vazifani bajarmasligi aniqlandi. Ularning qo'llanishi shoirning poetik maqsadi hamda badiiy tafakkuri bilan belgilanadi. Cho'lpon she'riyatida antonomaziyalar diniy-mifologik konseptlarni individuallashtirishga xizmat qiladi. **"Malak"**, **"pari"**, **"shayton"**, **"dev"**, **"Azroil"** kabi nomlar nominativ ma'nodan uzoqlashib, inson ruhiyatining ichki holatini ifodalovchi semantik belgiga aylanadi. Natijada ushbu birliklarning referensial vazifasi susayadi, konnotativ mazmuni esa kuchayadi.

Sidqiy Xondayliqiy lirikasida antonomaziyaning semantik modeli klassik poetik an'anaga asoslanadi. **"Masih"** nomi shifo konseptini emas, balki ruhiy najot semasini, **"Ya'qub"** hijron konseptini, **"Yusuf"** esa mutlaq go'zallik semasini faollashtiradi. Bunday holatda antonomaziya individual nomni emas, madaniy xotirada shakllangan tayyor semantik modelni aktuallashtiradi.

Usmon Nosir poetikasida antonomaziyalar intertekstual semantika asosida shakllanadi. **"Gamlet"**, **"Otello"**, **"Dezdemona"**, **"Ofeliya"**, **"Dante"** singari birliklar she'r mazmuniga yangi semantik qatlam olib kiradi. Ushbu nomlar muallif tomonidan qayta interpretatsiya qilinib, o'zbek lirik tafakkuriga moslashtiriladi. Natijada antonomaziya milliy poetik makon bilan jahon adabiy tafakkuri o'rtasidagi semantik ko'prik vazifasini bajaradi. Qiyosiy tahlil uchta semantik tendensiyani aniqlash imkonini berdi. Birinchi tendensiya — sakral semantikaning ustunligi bo'lib, u asosan Cho'lpon poetikasida kuzatiladi. Ikkinchi tendensiya — mumtoz poetik semantikaning transformatsiyasi bo'lib, Sidqiy Xondayliqiy lirikasiga xosdir. Uchinchi tendensiya — intertekstual semantikaning kengayishi bo'lib, Usmon Nosir poetikasida yaqqol namoyon bo'ladi. Shuningdek, antonomaziyalar poetik matnda uch xil semantik mexanizm

asosida ishlashi aniqlandi: semantik umumlashtirish**,** konnotativ kengayish va konseptual ko'chirish. Mazkur mexanizmlar natijasida atoqli ot o'zining dastlabki nominativ vazifasidan chiqib, badiiy matnning asosiy mazmunini tashkil etuvchi lingvopoetik birlikka aylanadi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, jadid va jadid an'analari ta'siridagi o'zbek lirikasida antonomaziya shaxs nomini almashtiruvchi stilistik vosita emas, balki milliy poetik tafakkurning semantik modeli sifatida faoliyat ko'rsatadi.

DISCUSSION

Tadqiqot natijalari antonomaziyaning o‘zbek poetik matnida an'anaviy stilistik vosita doirasidan chiqib, murakkab semantik mexanizm sifatida faoliyat yuritishini ko‘rsatdi. Bu holat I.R. Galperinning antonomaziya haqidagi qarashlarini qisman tasdiqlaydi. Olim antonomaziyani atoqli ot va turdosh ot semantikalarining kesishish nuqtasi sifatida izohlasa (Galperin, 1977), mazkur tadqiqotda ushbu hodisa badiiy matnda yangi konseptual mazmun hosil qiluvchi lingvopoetik birlik sifatida namoyon bo‘lishi aniqlandi. V.V. Vinogradov poetik nutqda tarixiy va mifologik nomlarning ekspressiv imkoniyatlari ularning madaniy assotsiativ xotirasi bilan bog‘liqligini ta'kidlagan (Vinogradov, 1980). Tadqiq etilgan she'riy matnlarda ham aynan shu hodisa kuzatildi. Biroq Cho‘lpon, Sidqiy Xondayliqiy va Usmon Nosir ijodida antonomaziyalar tayyor madaniy belgilar sifatida emas, balki muallifning individual poetik tafakkuri ta'sirida yangi semantik mazmun kasb etgan birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, olingan natijalar G. Lakoff va M. Johnsonning konseptual metafora nazariyasi bilan ham uyg‘unlashadi (Lakoff & Johnson, 1980). Tadqiqot davomida aniqlangan antonomaziyalar alohida nomni emas, balki madaniy konseptlarni faollashtirishi kuzatildi. Shu jihatdan ular poetik matnda konseptual modellashtirish vositasi vazifasini bajaradi. O‘zbek adabiyotshunosligida jadid she'riyati ko‘proq g‘oyaviy-estetik yoki tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilingan bo‘lsa, ushbu tadqiqot antonomaziyalarni semantik tizim sifatida o‘rganishga qaratilgani bilan farqlanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, diniy, mifologik va

adabiy manbalardan olingan nomlar poetik matnda yagona funksiyani bajarmaydi. Ularning semantik faolligi muallifning estetik maqsadi, matn konteksti va madaniy xotira bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Shu bois antonomaziyani faqat stilistik figura sifatida emas, balki **lingvokulturologik va lingvopoetik kategoriya** sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv jadid va XX asr boshlaridagi o‘zbek lirikasining semantik tizimini chuqurroq anglash hamda poetik matnning yashirin ma'no qatlamlarini ochishda yangi ilmiy imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

CONCLUSION

Tadqiqot natijalari Cho‘lpon, Sidqiy Xondayliqiy va Usmon Nosir lirikasida antonomaziyalar badiiy ifoda vositasidan ko‘ra kengroq semantik funksiyani bajarishini ko‘rsatdi. Ular poetik matnda obraz yaratish, madaniy xotirani faollashtirish va muallifning individual estetik konsepsiyasini ifodalashning muhim lingvopoetik vositasi hisoblanadi.

Aniqlanishicha, Cho‘lpon poetikasida diniy-mifologik antonomaziyalar sakral semantikani, Sidqiy Xondayliqiy ijodida mumtoz poetik konseptlarni, Usmon Nosir lirikasida esa intertekstual semantik qatlamni shakllantiradi. Bu farqlar antonomaziyalarning poetik matndagi funksiyasi muallif uslubi va badiiy tafakkuri bilan bevosita bog‘liqligini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida antonomaziyaning semantik umumlashtirish**,** konnotativ kengayish va konseptual modellashtirish mexanizmlari asosida faoliyat yuritishi aniqlandi. Mazkur natijalar o‘zbek poetik tilida antonomaziyaning lingvopoetik imkoniyatlarini kengroq baholashga xizmat qiladi hamda bu yo‘nalishda keyingi tadqiqotlar uchun nazariy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulhamid Cho'lpon. (2021). *Binafsha*. Toshkent: Adabiyot.
2. Galperin, I. R. (1977). *Stylistics*. Moscow: High
3. Karimov, N. (2003). *XX asr adabiyoti manzaralari*. Toshkent: O‘zbekiston.
4. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
5. Mahmudov, N. (2010). *Til*. Toshkent: Mumtoz so‘z.
6. Qosimov, B. (2004). *Milliy uyg‘onish*. Toshkent: Ma’naviyat.

7. Quronov, D. (2018). *Adabiyotshunoslik nazariyasi*. Toshkent: Akademnashr.
8. Rahmatullayev, Sh. (2013). *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. Toshkent: Universitet.
9. Sidqiy Xondayliqiy. (1984). *Navbahor*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
10. Usmon Nosir. (2021). *Ertani sevinib kut!*. Toshkent: Adabiyot.
11. Vinogradov, V. V. (1980). *Problemy russkoy stilistiki*. Moscow: Vysshaya shkola.

“BOBURNOMA”NING INGLIZCHA TARJIMALARIDA TO‘LG‘AMA HARBIY TERMININING LEKSIK-SEMANTIK TALQINI

Egamnazarov Jaxongir Avaz o‘g‘li

Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

E-mail: jahongiregamnazarov@gmail.com

Annotatsiya. *Tezisda “Boburnoma” matnidagi to‘lg‘ama harbiy terminining leksik-semantik xususiyatlari hamda Jon Leyden-Uilyam Erskin, Annette Beverij va Uiler Tekston tarjimalarida qayta ifodalanishi qiyosiy tahlil qilindi. Termin tarjimasida transliteratsiya va izohlash, tavsifiy tarjima hamda funksional ekvivalentdan foydalanish holatlari aniqlandi. Tahlil natijasida to‘lg‘ama faqat yon qanotdan hujum qilish harakatini emas, balki ushbu vazifani bajaruvchi harbiy bo‘linma va jangovar taktikani ham anglatishi, tarjima tanlovi esa uning terminologik maqomi hamda tarixiy-madaniy semalarining saqlanish darajasiga ta’sir qilishi asoslandi.*

Kalit so‘zlar: *“Boburnoma”, harbiy termin, to‘lg‘ama, leksik-semantik tahlil, ekvivalentlik, transliteratsiya, tavsifiy tarjima, funksional ekvivalent.*

Abstract. *This paper examines the lexical-semantic features of the military term to‘lg‘ama in the Baburnama and compares its renderings in the English translations by John Leyden and William Erskine, Annette Beveridge, and Wheeler Thackston. The analysis identifies transliteration with explanation, descriptive translation, and functional equivalence as the main strategies. The findings show that to‘lg‘ama denotes not only a flanking action but also the military unit assigned to perform it and the broader tactical practice. Consequently, each translation strategy preserves the term’s terminological status and historical-cultural meaning to a different degree.*

Keywords: *Baburnama, military term, to‘lg‘ama, lexical-semantic analysis, equivalence, transliteration, descriptive translation, functional equivalent.*

KIRISH

“Boburnoma”da Boburning janglar tasviri nafaqat o‘sha davr qurol-aslahalari, balki jang olib borish usullari, qo‘shinlarning jangovar joylashuvi, harbiy bo‘linma va unvonlar, shuningdek, xizmat va boshqaruv tuzilmalariga oid

terminlar orqali yoritiladi. Mazkur birliklar o‘rta asr harbiy tizimining strukturaviy va funksional modelini aks ettiruvchi maxsus leksik qatlamni tashkil qiladi. Shu bois ularning inglizcha tarjimalarda berilishini o‘rganishda oddiy lug‘aviy moslik bilan cheklanib bo‘lmaydi; termin ifodalagan harakat, bo‘linma, taktika va tarixiy-madaniy belgilarning qay darajada saqlangani ham e’tiborga olinishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi “Boburnoma”dagi to‘lg‘ama terminining semantik tarkibini aniqlash, uning uch inglizcha tarjimada qo‘llangan muqobillarini qiyoslash va ushbu yechimlarning funksional-ekvivalentlik darajasini baholashdan iborat. Tahlilda leksik-semantik, kontekstual va chog‘ishtirma metodlardan foydalanildi. Manba sifatida “Boburnoma”ning o‘zbekcha matni hamda Leyden-Erskin, Beverij va Tekston tarjimalari olindi.

ASOSIY QISM

Asarda uchraydigan harbiy-taktik jang usullaridan biri *to‘lg’ama* bo‘lib, o‘rta asrlarda mo‘g’ul va turklar, xususan, ko‘chmanchi o‘zbeklar tarafidan qo‘llanilgan maxsus harbiy taktikani ifodalaydi. Bunda saf tortib turgan dushman qo‘shiniga kutilmaganda yon tarafdan aylanib o‘tib hujum qilingan. [8, 230] Termin faqat harakat nomi sifatida emas, shu vazifani bajaruvchi otliq guruh yoki bo‘linma ma’nosida ham qo‘llanadi. Abel Pavet de Courteille lug‘atida ham u dushmanni aylanib o‘tish uchun pistirmaga joylashtirilgan harbiy bo‘linma va dushman qanotini aylanib o‘tish harakati sifatida izohlanadi [5, 243]. Demak, terminning semantik tarkibida kamida uch unsur – harbiy harakat, uni bajaruvchi bo‘linma va jangovar taktika – o‘zaro birlashadi.

Harbiy terminologiyada *flanking attack* dushman qo‘shinining yon qanotiga qaratilgan hujum sifatida izohlanadi [6, 30]. Ushbu ta’rif to‘lg‘amaning asosiy yo‘nalish semasiga yaqin bo‘lsa-da, tarixiy manbadagi termin bundan kengroq mazmunga ega. *To‘lg‘ama* oldindan tayinlangan askarlar tomonidan bajariladi, harakat muayyan tartibda tashkil etiladi va dushmanni yon yoki orqa tomondan qurshash maqsadini ko‘zlaydi. Shuning uchun uni zamonaviy harbiy

termin bilan almashtirish mazmunni tushunarli qiladi, biroq tarixiy birlikning milliy-harbiy xosligini qisman neytrallashtirishi mumkin.

Bobur ushbu taktikani o‘zbek qo‘shinining muhim jangovar fazilati sifatida alohida qayd etadi:

> *“O‘zbekning urushda bir ulug‘ hunari ushbu to‘lg‘amadur, hech urush to‘lg‘amasiz bo‘lmas” [1, 83].*

Mazkur parcha tarjimonlarning strategik tanlovini yaqqol ko‘rsatadi. Leyden-Erskin variantida termin *tulughmeh* shaklida transliteratsiya qilinib, qavs ichida *turning the enemy’s flank* izohi beriladi [2, 149]. Bu usul asliyatdagi milliy terminni saqlaydi va ayni paytda ingliz o‘quvchisiga uning umumiy mazmunini ochadi. Transliteratsiya asliyatdagi terminning milliy-tarixiy shaklini saqlasa, izoh uning harbiy-taktik mazmunini ingliz o‘quvchisiga tushuntirishga xizmat qiladi. Beverij to‘lg‘amani *turning-movement* shaklida beradi [3, 140]. Ushbu tavsifiy ekvivalent manyovrning aylanma xususiyatini ifodalaydi, biroq asl terminning terminologik maqomi va tarixiy koloritini qisman susaytiradi. Tekston esa *flank assault* funksional ekvivalentidan foydalanadi [4, 126]. Bu shakl zamonaviy ingliz harbiy terminologiyasida aniq va ixcham bo‘lsa-da, to‘lg‘amaning bo‘linma hamda tarixiy taktika ma’nolarini har bir kontekstda to‘liq qamrab olmaydi.

Termin qo‘llangan boshqa kontekstlar uning ma’nosi vaziyatga qarab faollashishini ko‘rsatadi. Bir o‘rinda u to‘lg‘amaga tayinlangan kishilarni, ikkinchi o‘rinda mustaqil jangovar guruhni, yana bir kontekstda dushmanni o‘rab olish harakatini bildiradi. Shu sabab birgina doimiy ekvivalent barcha holatlar uchun bir xil darajada mos kelmaydi. Quyidagi qiyosiy jadval tarjimonlar tanlovidagi farqlarni umumlashtiradi.

1-jadval. To‘lg‘ama terminining inglizcha tarjimalarda berilishi

№	Bobur	Leyden–Erskin	Beverij	Tekston
1	… to‘lg‘amag‘a tayin bo‘lg‘on kishi … (193)	*... flankers ... (186, II jild)*	*... turning-parties ... (473, II jild)*	*... the men who had been assigned to the flank assault ... (326)*
2	… to‘lg‘ama kishisi … (193)	*... flankers ... (186, II jild)*	*... turning-parties ... (473, II jild)*	*... flank assaulter ... (326)*
3	… to‘lg‘ama g‘animning girdo-girdini olib … (193)	*... flankers having surrounded the enemy ... (187, II jild)*	*... turning parties having surrounded the enemy ... (474, II jild)*	*... flank assault ... (326)*
4	… to‘lg‘ama … (227)	*... a tulughmeh (or flanking party) ... (299, II jild)*	*... the flank-movement (tūlghāma) ... (568, II jild)*	*... rear assault ... (383)*
5	… o‘ng qo‘l to‘lg‘amasida edi … (230)	*... commanded the tulughmeh (or flanking division) on the right ... (310, II jild)*	*... who in the flanking-party of the right-hand ... (579, II jild)*	*... who was in charge of the right-wing flank assault ... (388)*

Jadvaldagi misollar Leyden-Erskin tarjimasida manba tiliga yo‘naltirilgan yondashuv ustunligini ko‘rsatadi. Tarjimon tulughmeh shaklini saqlagan holatlarda unga *flanking party* yoki *flanking division* izohlarini qo‘shadi; shaxsni bildiruvchi kontekstlarda esa *flankers* umumlashtiruvchi muqobilidan foydalanadi. Bu yechim terminning tarixiy belgilarini qisman saqlaydi, biroq harakat va bo‘linma ma’nolari o‘rtasidagi farq doimo ochiq ko‘rinmaydi.

Beverijning *turning-parties* va *flank-movement* variantlari to‘lg‘amaning harakat hamda guruh ma’nolarini kontekstga mos ajratishga intiladi. *Turning-parties* askarlar yoki bo‘linmani, *flank-movement* esa manyovrni bildiradi. Shunga qaramay, ushbu umumiste’moldagi tavsifiy birliklar asl terminning milliy-tarixiy belgilarini kamaytiradi. Tekston tarjimasida *flank assaulter, flank assault, rear assault* va *right-wing flank assault* kabi muqobillar qo‘llanadi. Mazkur funksional ekvivalentlar jang yo‘nalishi, bajaruvchi shaxs va hujum

turini ingliz o‘quvchisiga aniq yetkazadi. Ayni paytda bir terminning turli zamonaviy birikmalar bilan berilishi asliyatdagi yagona terminologik tizimni parchalab, semantik konkretlashtirish bilan birga tarixiy-madaniy neytrallashuvni ham yuzaga keltiradi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, to‘lg‘amani tarjima qilishda ikki talab o‘rtasida muvozanat zarur: bir tomondan, o‘quvchiga taktikaning mohiyatini tushunarli yetkazish; ikkinchi tomondan, asliyatning tarixiy terminini va uning ko‘p qatlamli ma’nosini saqlash. Shu nuqtai nazardan, termin birinchi marta uchraganda transliteratsiyalangan to‘lg‘ama (*tulughmeh*) shaklini berib, qavs yoki izohda *flank assault / flanking manoeuvre* tarzidagi funksional tushuntirishni keltirish eng maqbul yechim bo‘lishi mumkin. Keyingi o‘rinlarda esa kontekstga *qarab to‘lg‘ama bo‘linmasi*, to‘lg‘amachi yoki *to‘lg‘ama* harakati ma’nolarini farqlash lozim. Bunday kombinatsiyalangan usul ham terminning milliy-tarixiy xususiyatini, ham matnning kommunikativ aniqligini ta’minlaydi.

XULOSA

“Boburnoma”dagi to‘lg‘ama termini o‘rta asr turkiy harbiy tafakkurining o‘ziga xos birligini ifodalaydi. Uning semantik tuzilishida dushman qanotini aylanib o‘tish harakati, shu vazifaga tayinlangan harbiy guruh hamda yaxlit jangovar taktika ma’nolari mujassam. Leyden-Erskin transliteratsiya va izohlash orqali terminning milliy shaklini ko‘proq saqlagan; Beverij tavsifiy tarjima yordamida harakat mohiyatini yoritgan; Tekston esa zamonaviy funksional ekvivalentlar orqali mazmunni ingliz o‘quvchisiga aniqroq yetkazgan. Biroq tavsifiy va funksional muqobillar qo‘llangan holatlarda terminologik yaxlitlik hamda tarixiy-madaniy semalar qisman zaiflashadi. Shu bois tarixiy harbiy terminlarni tarjima qilishda transliteratsiya, qisqa izoh va kontekstual funksional ekvivalentni uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bobur, Zahiriddin Muhammad. (1989). Boburnoma. Toshkent: Yulduzcha.

2. Baber, Z. M. (1826). Memoirs of Zehir-ed-din Muhammed Baber, Emperor of Hindustan (J. Leyden & W. Erskine, Trans.). London: Longman, Rees, Orme, Brown, and Green.

3. Beveridge, A. S. (Trans.). (1922). The Bābur-nāma in English (Memoirs of Bābur). London: Luzac & Co.

4. Thackston, W. M. (Trans.). (1996). The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor. New York: Oxford University Press.

5. Pavet de Courteille, A. (1870). Dictionnaire turk-oriental: destiné principalement à faciliter la lecture des ouvrages de Bâber, d'Aboul-Gâzi et de Mir-Ali-Chir-Nevâï. Paris: Imprimerie impériale.

6. British Army Terms and Definitions. (1943). London: War Office.

7. De La Garza, A. (2010). Mughals at War: Babur, Akbar and the Indian Military Revolution, 1500-1605. Columbus: The Ohio State University.

8. Чориев, З. Тарих атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Академия" нашриёти, – Тошкент, 2002, 230 б

TERMINOLOGY STANDARDIZATION IN SIMULTANEOUS INTERPRETING AT INTERNATIONAL DENTAL FORUMS

D.N.Komilbaeva

Uzbekistan state world language university

shohruhganjayev399@gmail.com

Abstract: *International dental forums require simultaneous interpreting to enable communication among specialists from diverse linguistic backgrounds. Dental terminology creates significant challenges due to technical complexity and rapid development. This narrative review analyzes research on conference interpreting, cognitive processes, medical interpreting errors, and international dental terminology systems. Findings show that standardized vocabularies and terminology preparation improve consistency, reduce cognitive load, and decrease terminology-related errors. Standards such as ISO 3950, SNODENT, CDT, and ISO/TC 106 support the creation of reliable terminology resources for interpreters. Integrating standardized dental terminology into training can enhance simultaneous interpreting quality and promote effective multilingual scientific communication in dentistry.*

Keywords: *simultaneous interpretation; dental terminology; terminology standardization; conference interpreting; cognitive load; ISO 3950; SNODENT*

INTRODUCTION

International dental congresses depend on simultaneous interpretation to allow full scientific participation across language groups. Dentistry layers complex procedural, material, and digital nomenclature onto general medical vocabulary alongside coexisting tooth-notation systems. Unfamiliar terminology increases cognitive load and error rates during simultaneous interpreting, as interpreters operate close to processing-capacity saturation [1]. This review analyzes studies on simultaneous interpreting, dental terminology, and international terminology standards to determine how terminology standardization improves interpreting quality.

METHOD

A narrative literature review was conducted using publications on conference interpreting, medical interpreting, dental terminology, and international standards (ISO 3950, SNODENT, CDT). The collected studies were analyzed descriptively.

RESULTS

Dentistry possesses several formally codified terminology and notation systems that coexist with regional variation. The FDI two-digit tooth notation (ISO 3950) is used worldwide [2] except in the US, which relies on the Universal Numbering System [3]. Consequently, interpreters must reconcile these coexisting systems in real time unless one is agreed upon in advance. SNODENT was developed to standardize dental diagnostic terminology and provides standardized terminology for dental diagnosis and electronic health records [4]. Dental procedures are standardized through the ADA Current Dental Terminology (CDT) [5]. ISO/TC106 develops international standards for dental materials, instruments, and terminology [6].

According to Gile's Effort Models, simultaneous interpreting requires high cognitive effort, and unfamiliar terminology increases processing load and the likelihood of interpreting errors [1,7].

Research directly examining terminology preparation supports a causal mechanism linking preparation to performance. Previous studies indicate that glossary preparation reduces cognitive load, improves interpreter confidence, and increases interpreting accuracy. AIIC also recommends systematic terminology preparation before conferences [8,9]. Although dentistry-specific interpreting studies are limited, medical interpreting research shows that professional interpreters make substantially fewer terminology-related errors than untrained interpreters [10].

DISCUSSION

The reviewed studies consistently demonstrate that terminology standardization reduces cognitive load and improves interpreting accuracy. Existing international standards such as ISO 3950, SNODENT, CDT, and ISO/TC106 provide an effective basis for preparing interpreters before international dental conferences.

CONCLUSION

Evidence from cognitive models of interpreting, empirical terminology-preparation research, and clinical interpreting-error studies converges on the conclusion that standardized, pre-established terminology is a measurable determinant of interpreting accuracy rather than a matter of stylistic preference. Dentistry's complex, evolving terminology makes standardization critical. Dental forums must leverage existing standards (ISO 3950, SNODENT, CDT, ISO/TC106) to systematically prepare interpreting teams, and doing so is supported by the interpreting-science and clinical-interpreting evidence reviewed here — pending direct empirical confirmation in the congress-interpreting setting itself.

REFERENCES

[1] Gumul, E. (2018). Searching for evidence of Gile's Effort Models in retrospective protocols of trainee simultaneous interpreters. *Research in Language, 16*(4), 391–406.
[2] International Organization for Standardization. (2016). *ISO 3950:2016 — Dentistry: Designation system for teeth and areas of the oral cavity*. ISO.
[3] Wikipedia contributors. (2026). *FDI World Dental Federation notation*. In *Wikipedia, The Free Encyclopedia*.
[4] American Dental Association. (n.d.). *Systematized Nomenclature of Dentistry* https://www.ada.org/resources/practice/dental-standards/snodent
[5] Evaluating a dental diagnostic terminology in an electronic health record. (2011). https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC3119719/
[6] FDI World Dental Federation. (n.d.). *International Organization for Standardization*. July 2026, from https://www.fdiworlddental.org/international-organization-standardization
[7] Gile, D. (2009). *Basic concepts and models for interpreter and translator training* (Rev. ed.). John Benjamins.
[8] The role of terminology preparation in enhancing interpreters' performance. (2025). https://www.researchgate.net/publication/393089571
[9] International Association of Conference Interpreters [AIIC]. (2004). *Practical guide for professional conference interpreters*. AIIC.
[10] Flores, G. (2005). The impact of medical interpreter services on the quality of health care: A systematic review. *Medical Care Research and Review, 62*(3), 255–299.

THE LAYERED NATURE OF THE UZBEK VOCABULARY: HISTORICAL FORMATION OF WORD STOCK AND SEMANTIC NUANCES

Nodirova Aziza Nodirovna

Student at the Faculty of Philology and Social Sciences

Kattaqurgan State Pedagogical Institute

nodirovaaziza67@gmail.com

***Abstract**: This article analyzes the specific patterns of the formation of the Uzbek vocabulary, its rich layers, and the differential features that distinguish it from other languages. Based on precise linguistic evidence, the study highlights the Turkic core of the Uzbek vocabulary, the synonymy system resulting from centuries-old contacts with Arabic and Persian languages, the phonetic-lexical nature of the vowel harmony (synharmonism) phenomenon, and their functional distribution in speech.*

***Keywords**: Vocabulary, lexical layers, synharmonism, vowel system, Qarluq dialect, synonymy, dialectal symbiosis.*

INTRODUCTION:

The vocabulary of any language serves as a mirror reflecting not only the past of the people who speak it but also their lifestyle at historical, cultural crossroads. As the Uzbek folk proverb wisely states, "**He who knows a language knows the world**" ("**Til bilgan — el bilar**"). The vocabulary of the literary Uzbek language holds a unique position in world linguistics due to its structural formation. Although it belongs to the Qarluq group of the Turkic language family, as a result of long-standing socio-cultural relations, it has developed individual characteristics that distinguish it from other related languages (Hojiyev, 1999).

As Alisher Navoiy, the founder of the Old Uzbek language, emphasized, the internal potential of this language is so vast that it is capable of precisely expressing the most delicate nuances of the human soul. The purpose of this article is to scientifically substantiate the unique phonetic and lexical identity of

the Uzbek vocabulary by comparing it with other languages, particularly related Turkic languages.

1. **Dialectal Symbiosis**: The Unification of Qarluq, Qipchoq, and Oghuz Elements

2. The first important factor distinguishing the Uzbek vocabulary from other Turkic languages is the extraordinary complexity and diversity of its dialectal base. While Kazakh, Kyrgyz, or Turkmen languages have a relatively monolithic dialectal basis (belonging to the Qipchoq or Oghuz groups), the literary Uzbek language has accumulated the finest words from three major dialect groups (Reshetov & Shoabdurahmonov, 1978).

This situation is clearly visible in the naming system of daily life. For instance, in expressing lifestyle and natural phenomena, Qarluq (sedentary-urban) and Qipchoq (nomadic-steppe) elements exist in parallel, thereby enriching the vocabulary of the language ("*Explanatory Dictionary of the Uzbek Language*", *2006*):

Concept	Qarluq Layer (Literary)	Qipchoq/Oghuz Variant
Kinship Relation	Tog‘a (Maternal uncle)	Tog‘o/Dayi
Waterway	Ariq (Irrigation ditch)	Yap/Bo‘qoq
Aesthetic Feature	Chiroyli/Go‘zal (Beautiful)	Suluv/Olamshumul

This abundance has created conditions for expanding the synonymous potential of the Uzbek language boundlessly. Alisher Navoiy, in his fundamental work "*Muhokamatul-lug‘atayn*" (*The Trial of the Two Languages*), proved the richness of the Turkic language, particularly in its verbs and types of actions, through these exact internal capabilities (Navoiy, 2003). The author substantiated that the Turkic language was by no means inferior to Persian by citing more than a hundred specific verbs unique only to the Turkic language. Mahmud Koshg‘ariy also noted in his fundamental encyclopedia that the word-formation system of the Qarluq and Chigil dialects is remarkably adaptive (Koshg‘ariy, 1960).

2. The Phenomenon of Vowel Harmony (Synharmonism) and its Lexical Impact in the Uzbek Language Vowel harmony (synharmonism)—the law where vowels within a word are consistently either back or front—which is one of the main characteristics of Turkic languages, has undergone a unique evolutionary path in the literary Uzbek language. Prominent dialectologists V. Reshetov and B. To‘ychiboyev proved through concrete evidence in their research that the phenomenon of synharmonism in the Uzbek language is not monolithic but rather regional in character (Reshetov & Shoabdurahmonov, 1978; To‘ychiboyev, 2011).

In Uzbek linguistics, the phenomenon of synharmonism is analyzed in two ways:

Dialects with Synharmonism (Qipchoq dialects):Vowel harmony is strictly preserved mainly in rural areas where the influence of Qipchoq dialects is strong. For example, the literary word “**keladi**” (**comes**) is pronounced with front vowel harmony (**keldi** / **kelti**) in these dialects, while the word “**bordi**” (**went**) is pronounced with back vowel harmony (To‘ychiboyev, 2011).

Dialects without Synharmonism (Qarluq-Chigil dialects): In ancient urban and sedentary dialects such as Tashkent, Fergana, Samarkand, and Bukhara, the contrast between front and back vowels weakened or disappeared entirely as a result of centuries of vibrant social interaction with Iranian (Tajik) languages. The modern literary Uzbek language is built precisely on the basis of these urban (Qarluq) dialects that lost their synharmonism (Baskakov, 1969). This phonetic state granted immense freedom to the vocabulary of the language:Preservation of words in their original form: The Uzbek language does not distort the shape of new loanwords in an attempt to adapt them to its own sound system. For example, while the Kazakh language adapted the Russian word “**krovat**” (**bed**) into kerauat and the Kyrgyz language into **kervat**, the Uzbek language, due to its nature free from strict synharmonism, can accept international terms like krovat, **kompyuter** (**computer**), **ijtimoiy** (**social**), or **iqtisodiyot** (**economy**)

very close to their original phonetic forms. This makes the Uzbek language one of the most tolerant and convenient languages for adopting global scientific and technical vocabulary (Hojiyev, 1999).

3. The Influence of Arabic and Persian Languages and Functional Distribution When discussing the uniqueness of the Uzbek vocabulary, it is often superficially mentioned that it merely borrowed words from external sources. However, the primary difference lies not just in borrowing words, but in the adaptation of those borrowed words to Uzbek thought patterns and their functional division based on semantic nuances (Rahmatullayev, 2000). In the Uzbek language, the pure Turkic core, Persian poetic elegance, and Arabic academic precision form such a beautiful harmony that it is difficult to find a parallel in any other language.

Evidence and Analysis: Let us examine the words related to the concept of "Thinking". In Uzbek speech, there exist the words O'ylamoq (Turkic – action and process), Fikr qilmoq (Arabic – logical conclusion), and Andisha qilmoq (Persian – moral consideration and modesty) (Rahmatullayev, 2000). These words cannot completely replace one another; rather, they manifest different levels of human inner experiences. The renowned linguist Ayub G'ulomov demonstrated in his research that the lexical wealth of a language is measured not by the absolute number of its words, but by the abundance of semantic shades (nuances) within those words (G'ulomov, 1965). The synonymous series of dozens of words in the Uzbek language for smiling and laughing, such as kulimsirash, jilmoyish, tabassum, iljayish, tirjayish, stands as clear proof of how precisely we can depict human emotions.

4.Communication Culture and Kinship Vocabulary The purely Eastern aspect of the Uzbek vocabulary, which fundamentally differs from Western languages (English, German, French), is the highly branched system of social relations, respect, and kinship terms. The folk proverb **"A bird does what**

it sees in its nest" ("**Qush uyasida ko'rganini qiladi**") relates directly to the linguistic reflection of family and social relationships.

Since generalism plays a major role in Western thought, words tend to carry broader meanings. For instance, the English word brother refers to an older or younger brother regardless of age, and uncle means either a paternal or maternal uncle. In the Uzbek lexical worldview, however, age and kinship ties are clearly demarcated ("Explanatory Dictionary of the Uzbek Language", 2006):

Uzbek Communication and Kinship System

Age Direction:	Age Distinction:	Level of Respect:
Amaki (Paternal uncle) / Tog'a (Maternal uncle)	Aka (Older brother) / Uka (Younger brother),	Sizlash (Formal 'You' - modesty/ethics) / Senlash (Informal 'You' - closeness)
	Opa (Older sister) / Singil (Younger sister)	

CONCLUSION

The observations and linguistic analyses conducted show that the vocabulary of the literary Uzbek language is historically rich, adaptive, and a multi-layered system by nature. The main aspects that distinguish it from other languages in the world and from related Turkic languages are the synthesis of three major dialect groups built upon a solid Turkic foundation, the wise distribution of borrowed Arabic and Persian words into functional tasks according to semantic nuances, and the capability to express human relationships with high ethics. The weakening of the law of synharmonism in urban dialects, thoroughly studied by scholars like V. Reshetov and B. To'ychiboyev, brought a unique elasticity to our literary language. This feature has given the Uzbek language the capacity to adopt international scientific and technical vocabulary without damaging its structural form. The rich and flexible nature of the Uzbek

language has ensured its survival over the centuries without losing its identity, and it establishes a full foundation for its parallel development in the modern global information space in the future.

REFERENCES:

1. Baskakov, N. A. (1969). Vvedenie v izuchenie tyurkskix yazikov [Introduction to the Study of Turkic Languages]. Moscow: Visshhaya shkola.
2. G‘ulomov, A. (1965). O‘zbek tili morfologiyasiga oid tadqiqotlar [Research on the Morphology of the Uzbek Language]. Tashkent: Fan.
3. Hojiyev, A. (1999). O‘zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi [Lexicology and Lexicography of the Uzbek Language]. Tashkent: O‘qituvchi.
4. Mahmud Koshg‘ariy. (1960-1963). Devonu lug‘otit turk (Translator: S. Mutallibov). 3 volumes. Tashkent: Fan.
5. Alisher Navoiy. (2003). Muhokamatul-lug‘atayn. Complete Works, Vol. 20. Tashkent: Fan.
6. Rahmatullayev, Sh. (2000). O‘zbek tilining etimologik lug‘ati [Etymological Dictionary of the Uzbek Language]. Tashkent: Universitet.
7. Reshetov, V. V., & Shoabdurahmonov, Sh. (1978). O‘zbek dialektologiyasi [Uzbek Dialectology]. Tashkent: O‘qituvchi.
8. To‘ychiboyev, B. (2011). O‘zbek dialektologiyasi [Uzbek Dialectology]. Tashkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati [Explanatory Dictionary of the Uzbek Language]. (2006-2008). 5 volumes (Ed. A. Madvaliyev). Tashkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

MATNLI KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI VA AMALIY TAVSIYALAR

Xoliqulova Aziza Norqo‘chqor qizi

O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

www.aziza19911988@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘quvchilarda matnli kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishning nazariy asoslari hamda amaliy tajribalari yoritilgan. Matnli kompetensiya — o‘quvchining matnni tushunish, tahlil qilish, qayta ishlash va mazmun yaratish jarayonlarida til vositalaridan ongli foydalanish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda ushbu ko‘nikmani rivojlantirishga doir mahalliy va xorijiy tajribalar o‘rganilib, ularning samarali jihatlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *matnli kompetensiya, matn tahlili, funksional savodxonlik, nutq rivoji, yozma nutq, metodik yondashuv, o‘quv jarayoni, innovatsion usullar, til kompetensiyalari, o‘qish ko‘nikmalari.*

Аннотация. *В данной статье раскрываются теоретические основы и практический опыт формирования и развития текстовой компетенции у учащихся. Текстовая компетенция трактуется как способность обучающегося осознанно использовать языковые средства при понимании, анализе, переработке текста и создании содержания. В исследовании изучены отечественный и зарубежный опыт по развитию данной компетенции, проанализированы их эффективные аспекты.*

Ключевые слова: *текстовая компетенция, анализ текста, функциональная грамотность, развитие речи, письменная речь, методический подход, учебный процесс, инновационные методы, языковые компетенции, навыки чтения.*

Abstract. *This article explores the theoretical foundations and practical approaches to developing textual competence in students. Textual competence is defined as a learner’s ability to consciously use linguistic means while understanding, analyzing, processing texts and creating coherent content. The study examines national and international practices aimed at enhancing this competence and analyzes their effective aspects.*

Keywords: *textual competence, text analysis, functional literacy, speech development, writing skills, methodological approach, educational process, innovative techniques, language competences, reading skills.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli axborot oqimi jadal kuchayib borayotgan bir davrda o‘quvchilarning matn bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’limning ustuvor vazifalaridan biriga aylanmoqda. Axborotni izlash, tanlash, baholash, tahlil qilish va qayta ishlab, mustaqil mazmun yaratish qobiliyati funksional savodxonlikning asosiy komponentlaridan bo‘lib, uning markazida matnli kompetensiya turadi. Matnli kompetensiya o‘quvchilarning o‘qish va yozish faoliyatini samarali tashkil etish, fikrni mantiqan bayon etish, til vositalaridan ongli ravishda foydalanish va mustaqil tahliliy yondasha olish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturlari, xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS) talablari ham o‘quvchilarning matn bilan ishlash malakalarini chuqurlashtirishni taqozo etmoqda. Xususan, murakkab matnlarni tushunish, ma’lumotlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash, matn mazmunidan yangi xulosalar chiqarish kabi ko‘nikmalar o‘quvchining nafaqat til va adabiyot fanlaridagi, balki barcha o‘quv predmetlaridagi muvaffaqiyatining muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu bois, matnli kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha mahalliy va xorijiy tajribalarni tahlil qilish, samarali metod va texnologiyalarni amaliyotga joriy etish ta’lim sifatini oshirishning dolzarb yo‘nalishidir. Ushbu maqolada matnli kompetensiyani shakllantirishning nazariy asoslari, o‘qituvchining metodik yondashuvi, amaliy mashg‘ulotlar samaradorligini ta’minlovchi usullar hamda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos tavsiyalar yoritiladi.

Materiallar va metodlar. Ushbu tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnli kompetensiyasini rivojlantirishga oid ilmiy-nazariy manbalar, monografiyalar, maqolalar va xalqaro ta’lim dasturlari (PISA, PIRLS) materiallari tahlil qilindi.

Tahlil jarayonida **kontent-tahlil**, **qiyosiy tahlil** va **tizimlashtirish** metodlaridan foydalanildi. Kontent-tahlil orqali ilmiy manbalarda qo‘llanilgan asosiy tushunchalar (matnli kompetensiya, o‘qish savodxonligi, nutqiy rivojlanish) aniqlanib, ularning mohiyati izohlandi. Qiyosiy tahlil yordamida turli mualliflarning qarashlari solishtirilib, umumiy tendensiyalar belgilandi. Natijada, matnli kompetensiyani rivojlantirish metodikasining nazariy modeli ishlab chiqish uchun asos yaratildi.

Natijalar va muhokama. Ilmiy adabiyotlarda «matn kompetensiyasi» tushunchasining talqinlari bir xil emas, bu esa ushbu sohada nazariy umumlashmalarni amalga oshirishni qiyinlashtiradi.

Ona tilini bilish darajasini belgilovchi kompetensiyalar qatoriga, odatda, quyidagilar kiritiladi: kommunikativ, til (yoki lingvistik), madaniyatshunoslik va matn kompetensiyalari. Keling, ushbu kompetensiyalarning har birini batafsil ko‘rib chiqamiz hamda matn kompetensiyasining qolgan “filologik” kompetensiyalar tizimidagi o‘rnini aniqlashga harakat qilamiz.

“Kompetensiya” atamasi N. Xomsky tomonidan qo‘llangan bo‘lib, u birinchi bo‘lib til kompetensiyasi haqida so‘z yuritgan va uni so‘zlovchiga nafaqat nutq yaratish, balki to‘g‘ri shakllangan nutqiy ifodalarni tanib olish imkonini beruvchi tug‘ma bilim sifatida ta’riflagan [10]. Tadqiqotchining fikricha, til kompetensiyasi (keng ma’noda) – bu “aqliy qobiliyatlar tizimi, bilimlar va e’tiqodlar tizimi bo‘lib, u erta bolalik davrida shakllanadi va ko‘plab boshqa omillar bilan o‘zaro ta’sirda shaxsning xulq-atvor turlarini belgilaydi” [11].

N. Xomsky g‘oyalarini davom ettirgan etnolingvist D. Xayms “kommunikativ kompetensiya” atamasini ilmiy muomalaga kiritadi va uni nutq faoliyatida ishtirok etish qobiliyati, tilning situativ mosligini ichki bilish sifatida talqin qiladi [11].

Lingvodidaktikada «kommunikativ kompetensiya» atamasini ilmiy muomalaga M.N. Vatyutnev kiritgan. Tadqiqotchi ikki tur kompetensiyani

ajratadi: til kompetensiyasi va kommunikativ kompetensiya. Til kompetensiyasini u chuqur til tuzilmalarini tashkil etuvchi qoidalar majmuasining intuitiv tarzda egallangan bilimlari sifatida izohlaydi; mazkur qoidalar muloqot jarayonida turli nutqiy ifodalarga aylantiriladi [2]. M.N. Vatyutnevning fikricha, kommunikativ kompetensiya – «insonning muayyan muloqot vaziyatiga moslasha olish qobiliyatiga qarab nutqiy xulq-atvor dasturlarini tanlash va amalga oshirish; vaziyatlarni mavzu, maqsadlar, kommunikativ ustanovkalar asosida tasniflay olish ko‘nikmasi, bu ustanovkalar suhbat boshlanishidan oldin ham, suhbat davomida o‘zaro moslashuv jarayonida ham yuzaga keladi» [2].

O‘zbek tili o‘qitish metodikasining zamonaviy bosqichi O‘zbek tilini milliy madaniyatga jalb etish vositasi sifatida o‘rgatishga bo‘lgan e’tiborning ortishi bilan xarakterlanadi. Tilni bunday yondashuv asosida o‘rganish madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantiradi. Madaniyatshunoslik kompetensiyasiga shuningdek, ona tiliga xos bo‘lgan noverbal muloqot vositalarini (mimika, jestlar) bilish ham kiradi.

Madaniyatshunoslik kompetensiyasini shakllantirishda badiiy adabiyot matni alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘quvchilarning ma’naviy va estetik tarbiyasini, nutqiy muloqotga o‘rgatishni amalga oshirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Chunki badiiy matnda til vositalari orqali til egalarining moddiy-ma’naviy dunyosi ifoda etiladi va u til bilan madaniyat o‘rtasidagi vositachi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘quvchilarda yuqorida sanab o‘tilgan «filologik» kompetensiyalarni shakllantirish turli janrdagi matnlarni yaratish, aytish, qabul qilish, tushunish va talqin qilish bilan bog‘liq matn faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Matnning tuzilish qonuniyatlarini, uning turli turlarini bilish, ularning xos belgilarini ajrata olish o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun muhimdir. Bunday kompetensiya esa faqat matn darajasida shakllanishi

mumkin. Shu bois biz matn kompetensiyasini alohida kompetensiya sifatida ajratishni asosli deb hisoblaymiz.

Hozirgi zamon matnshunosligi va nutqshunosligi bo‘yicha tadqiqotchilar matn kompetensiyasini bir tomondan, mustaqil kategoriya sifatida, ikkinchi tomondan esa kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida talqin qiladilar. Bu esa matnni o‘rganishda kommunikativ yondashuv ustuvorligi bilan bog‘liq. I.V. Salosina fikricha, «filologik» kompetensiyalarning barchasi qisman o‘zaro kesishadi. Ularning shakllanishi va rivojlanishi bir vaqtning o‘zida kechadi: masalan, zamonaviy til me’yorlarini bilmasdan matn qurilishi asoslarini o‘zlashtirish mumkin emas [7].

Demak, matn kompetensiyasini rus tilini egallash darajasini belgilovchi mustaqil kategoriya sifatida ko‘rib chiqish lozim.

Matn faoliyati turini, shaklini va mazmunini tanlash hamda muloqot vaziyati, kommunikativ soha va muloqot ishtirokchilari bilan uning uzviy bog‘liqligini hisobga olgan holda, matn kompetensiyasining shakllanishi filologik, pedagogik va psixologik tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan integrativ jarayon ekanini taxmin qilish mumkin. Ushbu integrativ jarayonning asosiy ko‘rsatkichi – til va kommunikativ kompetensiyalarning o‘zaro bog‘liqligidir

Matn kompetensiyasi til kompetensiyasiga tayanadi va o‘z navbatida kommunikativ kompetensiyaning shakllanishini belgilaydi. Kommunikativ kompetensiya tilga oid bilim, ko‘nikma, malaka va tayyorgarliklarga asoslanadi. Nutqning to‘g‘riligi va aniqligi muloqotning samaradorligini ta’minlaydi. Til kompetensiyasi esa matn faoliyatining barcha turlari uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratadi. Ushbu kompetensiyalarning har biri o‘quvchilarning fikrlash jarayonini rivojlantirishni talab qiladi. Bunday rivojlanish esa matn bilan tizimli ishlash orqali, ya’ni o‘quvchilarda tahliliy va sintetik fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ta’minlanadi.

Shu bilan birga, unutmaslik kerakki, matn — matn kompetensiyasining yakuniy mahsuli sifatida — nutqiy kommunikatsiyaning asosiy vositasidir. U

tildagi birlik ham, nutqdagi birlik ham hisoblanadi. Til birligi sifatida matn uning yaxlitligi va izchilligini ta’minlovchi til tizimi vositalari orqali quriladi. Nutq birligi sifatida esa u nutqiy faoliyat mahsulidir. Demak, uch kompetensiyaning o‘zaro aloqasi mavjud bo‘lib, matn kompetensiyasi shaxsning integrativ sifati, ya’ni uning nutqiy va pedagogik madaniyati rivojlanishining ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘ladi.

Kommunikativ, til va matn kompetensiyalari ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, okulturatsiya (ona madaniyatini o‘zlashtirish) va akkulturatsiya (begona madaniyatni o‘zlashtirish) vositalari sifatida xizmat qiladi. Ushbu uch segmentning birikuvi nutq madaniyatini shakllantirish sohasini tashkil etadi. Bu soha muloqot vaziyati, sohasi va maqsadlariga muvofiq ravishda til imkoniyatlaridan samarali foydalanish ko‘nikmasini nazarda tutadi. Matn kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha maqsadli ishlar til kompetensiyasini yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

M.Ya. Dymarskiy til kompetensiyasi va matn kompetensiyasini farqlab, matn kompetensiyasi tilni o‘rganish jarayonida avtomatik tarzda emas, balki maxsus shakllanuvchi ko‘nikmalar majmuasiga qaratilganini ta’kidlaydi. U matn kompetensiyasini madaniy-yozma an’analarining og‘zaki belgilangan me’yorlariga mos keladigan matnlarni yaratishni ta’minlaydigan bilim va ko‘nikmalar majmui sifatida talqin qiladi, ya’ni matn yaratish me’yoriga egalik sifatida izohlaydi [4].

M.Ya. Dymarskiy taklif qilgan matn kompetensiyasining tuzilishi uch asosiy komponentdan iborat ierarxiya shaklida namoyon bo‘ladi. Birinchi komponent — matnni tahlil qilish va uning qismlarini ajratish qobiliyati — olim tomonidan matn mavzusini aniqlash, uni kichik mavzularga ajratish va ular o‘rtasidagi ierarxiyani belgilash ko‘nikmasi sifatida talqin qilinadi.

Ikkinchi komponent — matnning izchilligini ta’minlash — mazmun elementlari o‘rtasida bog‘lanish hosil qiluvchi til vositalaridan foydalanish qobiliyatini anglatadi. Bu matn yaratuvchisiga o‘quvchi tomonidan butunning

adekvat tarzda qabul qilinishini ta’minlaydi. M.Ya. Dymarskiy matndagi bog‘liqlik vositalarini ikki guruhga ajratadi:

1. **Universal vositalar** – mazkur tilning har qanday nutqiy-mafkuraviy asarida ishlatiladigan birliklar (bog‘lovchilar, olmoshlar, sintaktik to‘liqsizlik, sintaktik parallelizm, kesim fe’llarining tur-vaziyat shakllari);
2. **Matnga xos bog‘lovchi vositalar** – yozma shakldagi nutqda uchraydigan maxsus birliklar: matnga xos bog‘lovchi so‘zlar va bog‘lovchi konstruktsiyalar.

Aynan ushbu ikkinchi guruh matnning nafaqat izchilligini, balki o‘quvchi tomonidan to‘liq va adekvat idrok etilishini ta’minlaydi.

Uchinchi komponent — yaxlit matn yaratish ko‘nikmasi — birinchi va ikkinchi komponentlar o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida qaraladi va janr-stilistik hamda til vositalaridan foydalanish malakasini talab qiladi. Shunday qilib, matn kompetensiyasini shaxsning integrativ ko‘rsatkichi sifatida talqin qilish mumkin; u nutqiy kompetensiyani (birinchi ikki komponent) va til kompetensiyasini (uchinchi komponent) o‘z ichiga oladi [4].

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, matnli kompetensiyani rivojlantirish o‘quvchilarning o‘qish, yozish va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Matnli kompetensiya faqat til va adabiyot fanlarida emas, balki boshqa fanlar bo‘yicha ham o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, mustaqil tahlil va xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Shu bilan birga, matnli kompetensiyani tizimli rivojlantirish jarayoni o‘qituvchining metodik yondashuvi, darsdagi materiallarning turli-tumanligi va amaliy mashqlar samaradorligiga bog‘liq. Tadqiqot natijalari o‘quv jarayonida matn bilan ishlashni tizimli tashkil etish o‘quvchilarning akademik va ijodiy ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Болотнова Н.С. Текстовая деятельность на уроках русской словесности: методики лингвистического анализа художественного текста. // Методическое пособие. Томск, 2002. 64с.
2. Вятютнев М.Н. Коммуникативная направленность обучения русскому языку в зарубежных школах. // Русский язык за рубежом. 1977. №6. С. 38-45.
3. Грибова О.Е. Текстовая компетенция: лингвистический, психологический и онтологический анализ: Монография. М.: АПКиППРО, 2009. 120с.
4. Дымарский М.Я. Проблемы текстообразования и художественный текст (на материале русской прозы XIX - XX вв.). М.: Изд. 2. 2001. 328с.
5. Казарцева О.М. Культура речевого общения: теория и практика обучения: Учеб. пособие. – 3-е изд. М. : Флинта: Наука, 2000. 496 с.
6. Сайфутдинова Н.Ш. Текстовая компетенция как проектная основа обучения школьников гуманитарным предметам: дис., Сочи, 2000, 153с.
7. Салосина И.В. Текстовая компетентность: от восприятия к интерпретации. // Вестник Томского государственного педагогического университета. Выпуск 10 (73). Томск. 2007.
8. Свиридова А.В. Текстовая компетенция – основная цель обучения русскому языку (к проблеме воплощения в учебный процесс новых ФГОС). // Вестник Челябинского государственного педагогического университета. 2012. Выпуск 1. С.173-178.
9. Стандарт основного общего образования по русскому языку [Электронный ресурс] // http://standart.edu.ru/catalog. aspx?CatalogId=262
10. Хомский Н. Аспекты теории синтаксиса. Под общ. ред. В.А.Звягинцева; Серия переводов. Выпуск I. М., 1972. 233 с.
11. Хомский Н. Язык и мышление. М.: Изд-во Моск. ун-та, 1972. 122 с.
12. Hymes D. On Communicative Competence. In J.B.Pride and J.Holmes (eds.), Sociolinguistics. Harmondsworth: Penguin, 1972, pp. 269-293.

EKZISTENSIALIZM FALSAFASINING TA'LIM VA IJTIMOIY ISH NAZARIYASIDAGI O'RNI: SHAXSIY AGENTLIK, ERKINLIK VA MAS'ULIYAT MASALALARI

Radjabova Madina Rahim qizi

Buxoro davlat universiteti, 10.00.04 – Yevropa, Avstraliya va Amerika xalqlari tili va adabiyoti yo'nalishi tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XX asr falsafasining yirik oqimlaridan biri bo'lgan ekzistensializmning zamonaviy ta'lim falsafasi va ijtimoiy ish nazariyasidagi tutgan o'rni tahlil qilinadi. Jan-Pol Sartr, Simone de Bovuar va Martin Xaydegger g'oyalari misolida individual agentlik, erkinlik, tanlov va autentiklik tushunchalarining ta'lim jarayonini insonparvarlashtirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ekzistensialistik tamoyillarning ijtimoiy xodim va mijoz o'rtasidagi munosabatlarda, guruh ichidagi o'zaro ta'sirda hamda kasbiy axloqiy mas'uliyatni anglashda qanday amaliy ahamiyat kasb etishi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot ekzistensializm merosining zamonaviy gumanitar va ijtimoiy fanlar uchun mustahkam nazariy-uslubiy asos bo'la olishini asoslaydi.*

Kalit so'zlar: *ekzistensializm, individual agentlik, erkinlik, tanlov, mas'uliyat, autentiklik, ta'lim falsafasi, ijtimoiy ish, "olamda-borliq".*

Abstract. *This article examines the role of existentialism, one of the major philosophical movements of the twentieth century, in contemporary educational philosophy and social work theory. Drawing on the ideas of Jean-Paul Sartre, Simone de Beauvoir, and Martin Heidegger, it explores the significance of such concepts as individual agency, freedom, choice, and authenticity in the humanization of the educational process. The study also discusses the practical relevance of existentialist principles in the relationship between social workers and clients, group interactions, and the understanding of professional ethical responsibility. It argues that the legacy of existentialism provides a robust theoretical and methodological foundation for contemporary humanities and social sciences.*

Keywords: *existentialism, individual agency, freedom, choice, responsibility, authenticity, philosophy of education, social work, "*being-in-the-world".

KIRISH

XX asrning birinchi yarmida Yevropa falsafiy tafakkurida shakllangan ekzistensializm oqimi insonning mavjudligi, erkinligi va shaxsiy tanlovi masalalarini markazga qo‘yadi. Ushbu falsafiy yo‘nalishning negizida yotuvchi asosiy g‘oyaga ko‘ra, inson avvalo mavjud bo‘ladi, so‘ngra o‘z mohiyatini shaxsiy tanlovlari orqali yaratadi. Bugungi kunda ekzistensialistik g‘oyalar nafaqat falsafa doirasida, balki pedagogika, psixologiya va ijtimoiy ish kabi amaliy-gumanitar sohalarda ham qayta talqin qilinmoqda. Zero, zamonaviy ta’lim tizimi va ijtimoiy xizmat amaliyoti oldida turgan asosiy vazifalardan biri – insonni passiv obyekt sifatida emas, balki o‘z hayotini mustaqil quruvchi faol subyekt sifatida tarbiyalash va qo‘llab-quvvatlashdan iboratdir. Mazkur maqolada ekzistensializmning uchta yetakchi vakili – Jan-Pol Sartr, Simone de Bovuar va Martin Xaydegger g‘oyalari asosida ushbu falsafiy oqimning ta’lim falsafasi hamda ijtimoiy ish nazariyasidagi amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

1. SARTR VA DE BOVUAR TA’LIMOTIDA INDIVIDUAL AGENTLIK G‘OYASI

Ekzistensialistik tafakkurning markazida shaxsning o‘z hayotini mustaqil belgilash huquqi va qobiliyati, ya’ni “individual agentlik” g‘oyasi turadi. Bu tushuncha, avvalo, Jan-Pol Sartr ijodida chuqur falsafiy asoslanishga ega bo‘lgan [1]. Sartrning inson erkinlikka “mahkum etilgani” haqidagi mashhur ta’kidi shaxsning o‘z kimligi va mavjudligini belgilovchi tanlovlar oldidagi mas’uliyati naqadar og‘ir ekanini yorqin ifodalaydi. Ushbu qarashni ta’lim sohasiga tatbiq etadigan bo‘lsak, shu narsa ayon bo‘ladiki, o‘quv dasturlari faqat tayyor bilimlarni uzatish vositasi bo‘lib qolmasligi, balki talabani o‘z ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishi zarur. Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va o‘quv materialini shaxsiy hayotiy tajriba bilan bog‘lash orqali pedagog talabani o‘z e’tiqodi, intilishlari va hayotiy dilemmalari bilan ochiq yuzlashuvga undaydigan muhitni yaratishi mumkin.

Simone de Bovuar esa ekzistensializm g‘oyalarini gender nuqtayi nazaridan boyitib, erkinlikni insonning tabiiy va ajralmas xususiyati sifatida

talqin qildi [2]. Uning qarashlari ta’lim amaliyotida gender tajribalarini hisobga olish, shuningdek, har bir o‘quvchining o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy kelib chiqishiga sezgirlik bilan yondashish zarurligini ko‘rsatib beradi. Bunday inklyuziv yondashuv o‘quvchilarga o‘z hikoyasini erkin bayon etish va o‘ziga xos rivojlanish yo‘lini izlash imkonini beradi, bu esa ekzistensializmning autentiklik va xilma-xil identifikatsiyalarni tan olish tamoyillari bilan uyg‘un keladi.

2. MARTIN XAYDEGGERNING “OLAMDA-BORLIQ” VA AVTENTIKLIK KONSEPSIYASI TA’LIM JARAYONIDA

Ekzistensialistik falsafaning yana bir yirik vakili Martin Xaydegger “borliq” muammosi va shaxsning avtentik mavjudligi masalalariga alohida e’tibor qaratgan [3]. Uning “olamda-borliq” konsepsiyasiga ko‘ra, inson mavjudligi undan tashqarida turgan olam bilan uzviy va mazmunli aloqada namoyon bo‘ladi. Ushbu g‘oyani ta’lim nazariyasi nuqtayi nazaridan sharhlaydigan bo‘lsak, ta’lim jarayoni o‘quvchida shunchaki nazariy bilim emas, balki atrof-muhit, jamiyat va o‘z-o‘zi bilan chuqur, mazmunli munosabat shakllantirishi lozimligi ayon bo‘ladi. Shu sababli, Xaydegger merosidan kelib chiqqan holda, pedagoglarga tajribaga asoslangan ta’lim shakllarini – amaliy loyihalar, dala tadqiqotlari, jamoat bilan hamkorlikdagi ishlarni – qo‘llab-quvvatlash tavsiya etiladi, chunki bunday yondashuv o‘quvchiga olam bilan bevosita va shaxsiy aloqa o‘rnatish imkonini beradi. Natijada ta’lim muassasasi shunchaki bilim uzatish maskani emas, balki o‘quvchi o‘zining mavjudlik mohiyati va olamdagi o‘rni haqida mushohada yurituvchi jonli intellektual makonga aylanadi.

3. EKZISTENSIALIZM IJTIMOIY ISH NAZARIYASI VA AMALIYOTIDA

Ekzistensialistik tamoyillar zamonaviy ijtimoiy fanlarning ko‘plab yo‘nalishlarida, xususan, ijtimoiy ish amaliyotida katta ahamiyat kasb etmoqda. Shaxsiy mavjudlik, erkinlik va hayotiy ma’no izlash masalalarini markazga

qo‘yuvchi ekzistensialistik qarash ijtimoiy ishning kasbiy qadriyatlari – mijozning shaxsiyatini hurmat qilish, uning o‘z hayoti bo‘yicha qaror qabul qilish huquqini tan olish – bilan chambarchas bog‘liq. Amerikalik olim Donald Krill o‘zining “Existential Social Work” asarida aynan shu masalani chuqur yoritib, ekzistensial yondashuvning ijtimoiy xodim faoliyatidagi amaliy qo‘llanilishini asoslab bergan [4].

Ekzistensializmning markaziy g‘oyasiga ko‘ra, inson o‘z hayotining passiv kuzatuvchisi emas, balki faol subyektidir, uning mohiyati esa aynan shaxsiy tanlovlar zanjiri orqali shakllanadi. Ushbu qarash ijtimoiy ish amaliyoti uchun bevosita ahamiyatga ega, zero bu sohada mutaxassislar ko‘pincha o‘z identifikatsiyasi, avtonomiyasi va shaxsiy agentligi masalalarida qiynalayotgan mijozlar bilan ishlaydi. Ijtimoiy xodimning asosiy vazifasi – mijozni hayotiy vaziyatning murakkabliklarida yo‘l topishga ilhomlantirish va qo‘llab-quvvatlashdan iborat bo‘lib, bu vazifa ekzistensializmda markaziy o‘rin tutuvchi tanlov va mas’uliyat g‘oyalari bilan bevosita uyg‘unlashadi. Ekzistensial yondashuvni qo‘llaydigan mutaxassis mijozni o‘ziga xos erkinlikni anglashga hamda qabul qilingan qarorlar uchun mas’uliyatni chuqur his etishga undaydi, bu esa mijozning o‘z-o‘zini anglashi va autentik yashash tuyg‘usini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ekzistensial mavzular nafaqat individual maslahat jarayonida, balki guruh bilan ishlash va jamoa dinamikasini tahlil qilishda ham muhim o‘rin tutadi. Xaydeggerning “olamda-borliq” konsepsiyasida ifodalangan yolg‘izlik va jamiyatga mansublik o‘rtasidagi dialektik uyg‘unlik g‘oyasi bu borada nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi: inson bir vaqtning o‘zida ham yakka shaxs, ham ijtimoiy mavjudot sifatida namoyon bo‘ladi, ijtimoiy xodimning vazifasi esa aynan shu ikki qutb o‘rtasidagi muvozanatni topishda mijozga yordam berishdan iboratdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ekzistensializm inson mavjudligining eng chuqur qatlamlarini tadqiq etuvchi falsafiy oqim sifatida, bugungi kunda ham axloqiy tafakkur uchun mustahkam va izchil nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ekzistensializmning axloqiy oqibatlari “mavjudlik mohiyatdan oldin keladi” tamoyili, radikal erkinlik g‘oyasi hamda ular bilan uzviy bog‘liq shaxsiy mas’uliyat yukidan kelib chiqadi. Ushbu fundamental tamoyillar an’anaviy axloqiy tizimlarga muqobil bo‘lgan o‘ziga xos etik makonni shakllantirib, individual agentlik, autentiklik va qadriyatlarning subyektiv tabiati haqidagi tasavvurlarni qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Ta’lim va ijtimoiy ish sohalarida ekzistensialistik merosdan oqilona foydalanish talabalar va mijozlarda shaxsiy erkinlik, tanqidiy fikrlash hamda ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini mustahkam qaror toptirish uchun samarali konseptual asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda ekzistensialistik tamoyillarning aniq pedagogik texnologiyalar va ijtimoiy ish metodikalari bilan integratsiyasi masalasi alohida chuqur o‘rganishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sartre J.-P. Being and Nothingness: An Essay on Phenomenological Ontology. – Paris: Gallimard, 1943.
2. Beauvoir S. de. The Second Sex. – Paris: Gallimard, 1949.
3. Heidegger M. Sein und Zeit (Being and Time). – Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 1927.
4. Krill D. F. Existential Social Work. – New York: Free Press, 1978.

НАЦИОНАЛЬНО-СПЕЦИФИЧЕСКОЕ И УНИВЕРСАЛЬНОЕ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ВОСТОЧНЫХ МОТИВОВ В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аскарова Рухсора Акбаровна,

Магистрант 1- курса

Азиатского Международного Университета,

Города Бухары

ruxsorakbarovna24050@icloud.com

Научный руководитель: Муродова Дильдора Арабовна

Преподователь кафедры узбекской и русской филологии

Азиатского Международного Университета, города Бухары

Аннотация. *В данной работе рассматриваются восточные мотивы как важный художественный феномен в русской литературе XIX века и узбекской классической поэзии. Особое внимание уделяется выявлению универсальных и национально-специфических особенностей их интерпретации в произведениях русских романтиков и узбекских классиков. Анализ показывает, что в русской литературе Восток выступает как экзотическое и контрастное пространство, способствующее раскрытию внутреннего мира героя, тогда как в узбекской поэзии он является органической частью культурного и духовного пространства. В результате сравнительного исследования выявляются общие эстетические ценности и различия в художественном мышлении двух литературных традиций.*

Ключевые слова: *восточные мотивы, сравнительный анализ, художественный образ.*

Национально-специфическое и универсальное в интерпретации восточных мотивов в русской и узбекской классической литературе представляет собой важную проблему сравнительного литературоведения, позволяющую выявить как общие закономерности художественного мышления, так и уникальные особенности национальных культур. Восточные мотивы, будучи значимым элементом художественного текста,

отражают не только эстетические предпочтения авторов, но и глубинные философские, духовные и культурные ценности общества.

Актуальность данного исследования обусловлена необходимостью осмысления механизмов взаимодействия культур в условиях исторического и литературного диалога. Русская литература XIX века, представленная творчеством А.С. Пушкина и М.Ю. Лермонтова, активно обращается к восточной тематике, воспринимая Восток как пространство экзотики, духовного поиска и романтической свободы. В то же время в узбекской классической литературе восточные мотивы являются органической частью национального мировоззрения, отражая традиционные ценности, философию и эстетические идеалы[26].

В русской литературной традиции Восток часто выступает как «иной мир», противопоставленный европейской или русской культуре. Такое восприятие формирует особый художественный подход, основанный на принципе контраста. В произведениях Пушкина, таких как «Бахчисарайский фонтан» и «Кавказский пленник», восточные мотивы используются для создания эмоционально насыщенного пространства, в котором разворачиваются драматические события и внутренние конфликты героев. Восток здесь предстает как символ страсти, свободы и трагической судьбы, а его художественное изображение подчеркивает романтическую направленность произведений.

Лермонтов, развивая традиции романтизма, углубляет психологическое содержание восточных мотивов. В его поэмах «Мцыри» и «Демон» Восток становится не только фоном, но и важным фактором формирования характера героя. Природа Кавказа, ее величие и суровость, отражают внутреннее состояние персонажей, их стремление к свободе и одновременно ощущение одиночества. Восточные мотивы в творчестве

[26] Куронов Д. Сравнительное литературоведение: проблемы и методы. — Ташкент: Университет, 2005.

Лермонтова тесно связаны с философскими вопросами смысла жизни, борьбы и духовного поиска.

В узбекской классической литературе, представленной творчеством Алишера Навои, Бабура и других поэтов, восточные мотивы имеют иную природу[27]. Они не воспринимаются как «чужие» или экзотические, а являются естественной частью культурной среды. Восток здесь выступает как пространство гармонии, красоты и духовного совершенства. В произведениях Навои, особенно в «Хамсе», восточные мотивы реализуются через сложную систему символов и аллегорий, отражающих философские идеи о любви, справедливости, нравственности и человеческом совершенстве.

Особое значение в узбекской поэзии имеет образ сада как символа идеального мира. Этот образ объединяет в себе эстетическое и философское содержание, отражая представления о гармонии человека с природой и обществом. В отличие от русской романтической традиции, где Восток часто противопоставляется родной культуре, в узбекской литературе он является ее неотъемлемой частью, что определяет специфику художественного мышления и интерпретации восточных мотивов.

Сравнительный анализ показывает, что универсальные элементы восточных мотивов проявляются в стремлении к изображению красоты, любви, свободы и духовного поиска. Эти темы являются общими для обеих литературных традиций и отражают базовые человеческие ценности. Однако способы их художественного воплощения существенно различаются. В русской литературе преобладает романтический пафос, драматизм и контрастность, тогда как в узбекской поэзии доминируют гармония, символизм и философская глубина[28].

[27] Каримов Б. **Сравнительное литературоведение: Восток и Запад**. — Ташкент: Фан, 2020.
[28] Куронов Д. Сравнительное литературоведение: проблемы и методы. — Ташкент: Университет, 2005.

Национально-специфическое проявляется прежде всего в культурных кодах, системе образов и эстетических приоритетах. Русские писатели рассматривают Восток как источник вдохновения и объект художественного осмысления, тогда как узбекские поэты выражают через него собственную культурную идентичность. Это различие определяет особенности восприятия и интерпретации восточных мотивов, а также их роль в художественной структуре произведений.

Таким образом, восточные мотивы в русской и узбекской классической литературе представляют собой сложное и многогранное явление, сочетающее в себе универсальные и национально-специфические элементы. Их сравнительное изучение позволяет глубже понять особенности художественного мышления разных культур, а также выявить общие тенденции развития мировой литературы[29]. Восток в данном контексте выступает как важный культурный и эстетический феномен, объединяющий различные литературные традиции и отражающий общечеловеческие ценности.

В заключение следует отметить, что анализ национально-специфического и универсального в трактовке восточных мотивов открывает новые перспективы для дальнейших исследований в области сравнительного литературоведения. Он способствует более глубокому осмыслению процессов межкультурного взаимодействия и позволяет рассматривать литературу как пространство диалога культур, в котором формируются и развиваются ключевые художественные и философские идеи.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Куронов Д. Сравнительное литературоведение: проблемы и методы. — Ташкент: Университет, 2005.
2. Яковлев, А. П. (2011). История русской литературы: от Пушкина до наших дней. Москва: Рипол Классик.

[29] Яковлев, А. П. (2011). История русской литературы: от Пушкина до наших дней. Москва: Рипол Классик.

3. Стенич, Г. (2018). Восточные мотивы в русской литературе XIX века. Казань: Казанский университет.
4. Хасанов А. Восточная философия в узбекской классической поэзии**.** — Ташкент: Akademnashr, 2021.
5. Каримов Б. Сравнительное литературоведение: Восток и Запад**.** — Ташкент: Фан, 2020.

THE ROLE OF DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING YOUNG PUPILS' SPEECH THROUGH TEXT PROCESSING

Kaipova Guzel Ildarovna,

Senior teacher of the Namangan Regional

Pedagogical Skills Center

Abstract. *The development of speech is one of the central objectives of primary education because pupils' ability to understand, interpret and produce coherent language directly influences their academic achievement and social interaction. Text processing activities provide an effective basis for developing vocabulary, pronunciation, grammatical accuracy, reading comprehension and oral expression. In contemporary education, digital technologies expand the possibilities of working with texts by making learning more interactive, visual, individualized and engaging. This article examines the pedagogical role of digital educational technologies in developing young pupils' speech through text processing. It discusses the use of multimedia texts, interactive reading platforms, digital storytelling, speech-recording applications, collaborative tools and artificial intelligence-supported resources. The article also identifies important methodological conditions for integrating digital technologies into speech-development lessons.*

Keywords: *digital educational technologies, speech development, young pupils, text processing, primary education, digital storytelling, reading comprehension, oral communication.*

INTRODUCTION

In recent times**, s**peech development is a fundamental component of a child's intellectual, emotional and social growth. In primary school, pupils gradually learn to express their thoughts clearly, understand the ideas of others, participate in conversations and construct meaningful oral and written texts. These abilities do not develop automatically. They require systematic teaching based on appropriately selected language materials, communication activities and regular practice. Among the most effective materials for speech development are literary, informative and educational texts. Through text

processing, pupils encounter new words, grammatical structures, speech patterns and different ways of organizing ideas. Traditional text-processing activities usually include reading, retelling, answering questions, identifying the main idea and discussing characters or events. Although these methods remain pedagogically valuable, they may not always provide sufficient motivation or individualized support for contemporary pupils. Digital educational technologies help teachers enrich these activities by combining written language with sound, images, animation, video and interactive tasks. As a result, pupils do not merely read a text but interact with its content through several sensory and cognitive channels. The main advantage of digital technology is its capacity to present texts in a multimodal form.[30] A digital text may contain illustrations, audio narration, highlighted vocabulary, animated scenes and pronunciation support. Such features are especially important for young pupils, whose reading skills are still developing. When pupils simultaneously see a word, hear its pronunciation and observe a corresponding image, they understand and remember it more effectively. This combination supports vocabulary acquisition and helps children establish meaningful connections between words, objects, actions and situations.

Especially, audio-supported reading also contributes to the development of pronunciation, intonation and expressive speech. Pupils can listen to a professionally narrated text and then read the same passage aloud. By comparing their reading with the model, they become more attentive to pauses, stress, rhythm and emotional tone. Digital platforms may allow pupils to repeat difficult sentences several times without feeling embarrassed.[31] This creates a psychologically supportive learning environment in which mistakes are treated as a natural part of language development. Interactive text-processing tasks strengthen reading comprehension and prepare pupils for oral communication.

[30] Kachak T., Blyznyuk T., Hryvnak M. Speech development of younger school students using children's literature and digital tools //Mountain School of Ukrainian Carpaty. – 2023. – №. 28. – С. 98-103.
[31] HAINIUK N. WORKING WITH MEDIA TEXTS AS A FACTOR IN THE SPEECH DEVELOPMENT OF SCHOOL STUDENTS //Mountain School of Ukrainian Carpaty. – 2024. – №. 31. – С. 119-125.

After reading a digital story, children may arrange events in the correct order, match words with pictures, complete sentences or select an appropriate title. These activities teach pupils to identify key information and understand logical connections between different parts of a text. Comprehension becomes the foundation for subsequent speaking tasks because a child can retell, discuss or evaluate a text only after understanding its content.

Nowadays, digital storytelling is particularly effective in developing coherent speech. In digital storytelling activities, pupils create stories by combining words, pictures, voice recordings and simple animations. The process usually begins with selecting a topic, arranging events and preparing sentences. Pupils then record their narration and add visual elements.[32] This activity develops several interconnected skills, including planning, vocabulary selection, sentence construction, sequencing and expressive speaking. It also encourages creativity because children become authors rather than passive recipients of information. Although, retelling a text through digital tools can be organized at different levels of difficulty. Pupils with limited speaking skills may use pictures, keywords or sentence starters. More advanced pupils may retell the text independently, change the ending or narrate events from the perspective of a particular character. Digital environments make differentiation easier because the teacher can provide various types of support according to individual needs. Consequently, each pupil is able to participate in speech activities at an achievable but challenging level.[33]

Nevertheless, speech-recording applications are another valuable tool for developing oral language. When pupils record their answers, descriptions or retellings, they have an opportunity to listen to themselves and notice problems in pronunciation, fluency or sentence structure. Self-listening promotes

[32] Karagianni E., Drigas A. New Technologies for Inclusive Learning for Students with Special Educational Needs //International Journal of Online & Biomedical Engineering. – 2023. – Т. 19. – №. 5.
[33] Matoušek J. et al. Speech and web-based technology to enhance education for pupils with visual impairment //Journal on Multimodal User Interfaces. – 2020. – Т. 14. – №. 2. – С. 219-230.

reflection and self-assessment. That's why, pupils may record the same text several times, improving their performance after each attempt. The teacher can also provide individual feedback without interrupting the pupil during speaking. In this way, digital recording transforms oral speech from a momentary classroom performance into a learning product that can be reviewed and improved. Collaborative digital tools promote communication between pupils. For example, children may work in pairs to complete a digital story, discuss a character's behaviour or write questions about a text. Notwithstanding, they can contribute sentences to a shared presentation or create a collective vocabulary map. Such activities teach pupils to listen to one another, express agreement or disagreement politely and develop a common idea. Speech develops most effectively in meaningful interaction, and digital collaboration provides additional opportunities for this interaction.[34]

Another important aspect, game-based technologies can also increase pupils' interest in text processing. Digital quizzes, word puzzles, matching exercises and interactive adventures make language practice emotionally attractive. However, the educational value of a digital game depends on its methodological purpose. A game should not be included merely for entertainment. It must help pupils understand the text, learn new vocabulary, practise grammatical structures or prepare for speaking. Excessive visual effects and competition may distract pupils from the language objective. Therefore, the teacher must carefully select digital resources and maintain a balance between engagement and academic focus. Artificial intelligence-supported applications are creating new opportunities for individualized speech development. Some applications can read texts aloud, explain unfamiliar words, generate comprehension questions or provide feedback on pronunciation. Adaptive systems may adjust the complexity of tasks according to a pupil's performance.

[34] Levy R. Young children, digital technology, and interaction with text //Deconstructing digital natives. – Routledge, 2011. – C. 151-166.

Nevertheless, artificial intelligence cannot replace the teacher's professional judgment or emotional support. Young pupils need human guidance to interpret texts, express feelings, understand moral ideas and participate in genuine communication.

The most important thing, effectiveness of digital technologies depends primarily on the teacher's methodology. Before using a digital resource, the teacher should define the speech skill that pupils are expected to develop. The text must correspond to the children's age, language level, interests and cultural background. Digital activities should be connected through a logical sequence: preparation before reading, comprehension during reading and productive speech after reading. For example, pupils may first predict the content from an illustration, listen to and read the text, complete comprehension tasks and finally retell or discuss it. It is also necessary to consider screen time, information security and equal access to digital devices. Technology should complement live communication, handwriting, printed reading and face-to-face discussion rather than replace them. Young pupils require movement, emotional interaction and direct support. A balanced lesson may therefore combine a short digital text, classroom conversation, pair work and a creative oral task.

CONCLUSION

To sum up, digital educational technologies significantly enrich the process of developing young pupils' speech through text processing. Multimedia presentation improves vocabulary and comprehension, audio tools support pronunciation, digital storytelling develops coherent expression, and recording applications encourage reflection. Collaborative platforms create meaningful communication, while adaptive resources make differentiated instruction possible. However, technology becomes educationally effective only when it is guided by clear objectives and sound teaching methods. The teacher remains responsible for transforming digital resources into purposeful speech activities. When digital and traditional approaches are integrated thoughtfully, text

processing becomes more accessible, interactive and productive, enabling young pupils to develop confident, accurate and meaningful speech.

REFERENCES

1. Kachak T., Blyznyuk T., Hryvnak M. Speech development of younger school students using children's literature and digital tools //Mountain School of Ukrainian Carpaty. – 2023. – №. 28. – С. 98-103.
2. HAINIUK N. WORKING WITH MEDIA TEXTS AS A FACTOR IN THE SPEECH DEVELOPMENT OF SCHOOL STUDENTS //Mountain School of Ukrainian Carpaty. – 2024. – №. 31. – С. 119-125.
3. Karagianni E., Drigas A. New Technologies for Inclusive Learning for Students with Special Educational Needs //International Journal of Online & Biomedical Engineering. – 2023. – Т. 19. – №. 5.
4. Matoušek J. et al. Speech and web-based technology to enhance education for pupils with visual impairment //Journal on Multimodal User Interfaces. – 2020. – Т. 14. – №. 2. – С. 219-230.
5. Levy R. Young children, digital technology, and interaction with text //Deconstructing digital natives. – Routledge, 2011. – С. 151-166.

